

**Mehnat ta'limi fanidan**  
**8 – sinflar uchun dars ishlanmalar to'plami**

# XALQ HUNARMANDCHILIGI TEHNOLOGIYASI UMUMIY TUSHUNCHALAR

## 1-4 – dars

“Texnologiya va dizayn” hamda “Servis xizmati” yo`nalishlari uchun

|               |   |
|---------------|---|
| <b>Mavzu:</b> | <b>Hunarmandlarning bozor munosabatlari asosidagi faoliyatlari, uyushmalari va uning istiqbollari</b> |
|---------------|---|

### **Darsning maqsadi:**

a) *ta'limiy* – o`quvchilarga xalq hunarmandchiligining bozor munosabatlari asosidagi faoliyatlari, uyushmalari va uning istiqbollari to`g`risida ma`lumot berish;

b) *tarbiyaviy* – o`quvchilarda hunarmandlar tayyorlagan buyumlarga nisbatan badiiy-estetik dunyoqarashni shakllantirish;

v) *rivojlantiruvchi* – o`quvchilarda xalq hunarmandchiligining zamonaviy texnologiyalarini o`rganib, amaliyotda qo`llash ko`nikmasini tarkib toptirish.

**Kasbga yo`naltiruvchi maqsad:** o`quvchilarni xalq hunarmandchiligiga oid kasblar (yog`och o`ymakorligi, ganch o`ymakorligi, naqqoshlik, kandakorlik, kulolchilik, pichoqchilik, tikuvchilik, gilamchilik, do`ppido`zlik, quroqchilik, kashtachilik, zardo`zlik va b) to`g`risidagi bilimlarini rivojlantirish va shu sohalarga doir kasblarga qiziqtirish;

### **Darsning vazifalari:**

- o`zbek xalq hunarmandchiligiga asos solgan hunarmand ustalar to`g`risida ma`lumot berish;

- xalq hunarmandchiligining turlari, ish usullari bilan tanishtirish;

- bozor munosabatlari sharoitida xunarmandchilikning hozirgi zamon ishlab chiqarish faoliyati to`g`risida ma`lumot berish;

- “Hunarmand” uyushmasi va uning istiqbollari bilan o`quvchilarni tanishtirish;

- hunarmandlar tayyorlagan buyumlarga nisbatan badiiy-estetik dunyoqarashni shakllantirish.

**Dars tipi:** yangi bilimlar berish.

**Dars turi:** nazariy.

**Darsda qo`llaniladigan o`qitish metodlari:** “taqdimot”, “bahs-munozara”, “savol-javob”, “Klaster”, “Zinama-zina”.

**Fanlararo bog`lanish:** tasviriy san`at, chizmachilik, matematika, fizika, iqtisodiy bilim asoslari va b.

**Dars jihozi:** tarqatma materiallar, kompyuter, proektor, slaydlar, xalq xunarmandchiligiga oid ko`rgazmali qurollar, asbob-uskunalar.

### **Darsning borishi:**

#### **I. Tashkiliy qism.**

**II. O`tilgan mavzuni so`rash.** Sinfdagi va o`sha paytdagi mavjud sharoitga qarab, oldingi sinflarda o`tilgan ayrim mavzular yuzasidan savol-javob o`tkaziladi. Masalan, odatda birinchi dars mustaqillikka bag`ishlanadi. Shu sababli quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

1. Aziz o`quvchilar, nima uchun mustaqillik eng ulug` ne`mat hisoblanadi?
2. Mustaqillik yillarida mamlakatimiz qanday yutuqlarga erishdi?
3. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda qanday ishlab chiqarish korxonalari ochildi?
4. Yangi o`quv yilida qanday yutuqlarga erishishni oldingizga maqsad qilib qo`ygansiz?

### **III. Yangi mavzu bayoni.**

Reja:

1. Xalq hunarmandchiligi haqida qisqacha ma`lumot.
2. O`zbek xalq hunarmandchiligini rivojlantirgan hunarmand ustalar va ularning ish usullari haqida.
3. Bozor munosabatlari sharoitida “Hunarmand” uyushmasining faoliyati va istiqbollari.
4. Hunarmandlarning bozor munosabatlari asosidagi faoliyatlaridan lavhalar.

**1. Xalq hunarmandchiligi haqida qisqacha ma`lumot.** Xalq hunarmandchiligi har bir xalqning, jumladan, o`zbek halqining paydo bo`lishi, shakllanishi, tarixiy rivojlanishi, milliy qadriyatlarini ifodalaydigan soha bo`lib xizmat qila oladigan ma`naviy, moddiy, madaniy merosi hisoblanadi. Shuning uchun yoshlarga, maktab o`quvchilariga xalq hunarmandchiligiga oid ishlarni o`rgatish ularni ma`naviy tomondan tarbiyalashda, o`z halqining hunarmandchiligi, urf-odatlarini, asriy milliy qadriyatlari bilan tanishtirish va kasb-hunarga yo`naltirishda katta ahamiyatga ega. Xalq hunarmandchiligi naqqoshlik, ganchkorlik, zargarlik yog`och o`ymakorligi, metall o`ymakorligi, kashtachilik, ko`nchilik, pazandachilik, yog`ochlarni kuydirib ishlash, kulolchilik, kosibchilik, mahsido`zlik, sangtaroshlik, temirchilik, pichoqchilik, anjomsozlik, qulfsozlik, misgarlik, ignasozlik kabi 150 dan ziyod sohaga ega bo`lib, o`zida mehnat va kasb ta`limining ko`pgina xususiyatlari – amaliyligi, ijodiyliigi, milliyliigi, mahalliy xomashyolarni topish va tamirlash qulayliigi, o`g`il va qiz bolalar mehnatining o`ziga xosliigi, shahar va qishloq maktabini uyg`unlashtira olishi, asosiy hollarda murakkab qurilmalar, uskunalar, asboblalar va stanoklar talab qilmasliigi, mashg`ulotlarni tashkil etishning soddaligi bilan ajralib turadi. Natijada bu sohani yetarlicha o`rgangan, ma`lum kasblarni egallagan yoshlarning ishsiz qolmasliklari, mehnat bozorining raqobatbardoshliigi bilan alohida e`tiborga molikdir. Xalq hunarmandchiligi san`ati milliy qadriyatlarni va an`analarini izchil o`rganish, rivojlantirish hamda takomillashtirgan holda boyitib borish malaka va ko`nikmalariga asoslanadi. Darhaqiqat, “Ta`lim to`g`risida”gi qonunda “Umumiy ta`lim uzluksiz ta`lim tizimida asosiy bo`g`in bo`lib, ta`lim oluvchilarni ilmiy bilim, mehnat va boshlang`ich kasb-kor ko`nikmalarini, ishbilarmonlik asoslarini egallashlari, shuningdek, ijodiy qobiliyatlarini va ma`naviy fazilatlarini rivojlantirishni ta`minlaydi,” – deb ta`kidlagan. Xalq hunarmandchiligi yoshlarning tafakkuri, tasavvuri, estetik didi, epcilligi kabi sifatlarini shakllantirishga yordam beradi. Zero, bu sifat va fazilatlar yosh avlodni har tomonlama rivojlantirishga samarali ta`sir ko`rsatadi. Shularni hisobga olgan holda keyingi yillarda mamlakatimizda xalq amaliy san`atining bir necha o`nlab turlari rivojlantirilmoqda. Qadimiy yodgorliklarni saqlash, ularni qayta tiklash, ta`mirlash ishlariga keng yo`l ochib berilmoqda. Jumladan, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo`qon

va Toshkentdagi obidalar qayta tiklanmoqda, ularni tiklashga xalq ustalari jalb etilib, ustalar o`z shogirdlari bilan birgalikda obidalarga sayqal berishmoqda.

Naqqoshlik san`ati ancha rivojlantirilib, turli xil zamonaviy binolarga, zeb berish ishlarida keng qo`llanilmoqda, Naqqoshlik namunalarini, ayniqsa, choyxona, oshxona, hammom va madaniyat saroylarida ko`rish mumkin. Bunday yangi binolarni ko`rib ko`zimiz quvonchga, dilimiz zavq-shavqqa to`ladi.

Ganch o`yish va gul solish hunari o`zbek xalq san`atida katta o`rin tutadi. Issiq kunlarda oppoq sathli ganchli devor xonani sovuq tutadi, biroq bezagini ko`zdan kechirsangiz, o`sha oppoq va nafis bezaklar qalbingizni isitadi. Xalq ustalari, ganch tili bilan inson his-tuyg`ularining butun ehtirosini ifodalash mumkin, deb hisoblaydilar. Darhaqiqat, xonadagi ganch o`ymakorligi, jihoz yoki naqsh uyni jonlantirib yuboradi.

O`zbekiston xalq amaliy san`atining juda keng tarqalgan tirlaridan biri kulolchilikdir. Milliy tovoq, bejirim kosalar, piyola, nafis ko`za va vazalarga bugungi kunda ham talab katta, ayniqsa ular sayyohlar nazarini o`ziga jalb qilmoqda.

Kandakorlik san`ati metallarga badiiy ishlov berishning qiziqarli, o`ziga hos tarmog`i hisoblanadi. Misdan ishlangan buyumlar turmushda san`at namunalari sifatida keng foydalanilmoqda.

O`zbekistonda Mustaqillik e`lon qilinishi bilanoq odamlarga munosib turmush va mehnat qilish sharoitlarini yaratishga, xalq farovonligini oshirishga, ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptirishga, o`z kelayotgan yosh avlodni insonparvarlik ruhida tarbiyalashga katta e`tibor qaratildi. Hozirgi sharoitda yoshlarning mehnat va kasb tayyorgarligi muhim ijtimoiy vazifa bo`lib, bu soha nazariyotchilari va amaliyotchilari, pedagog olimlar, o`qituvchi, tarbiyachi, murabbiy va ustalar yoshlarga xalq hunarmandchiligining turli qirralarini o`rgatishi, ularni shu yo`nalishdagi kasblarni egallashga tayyorlashi hunarmandchiligimizni rivojlantirishga, taraqqiy ettirishga va shu orqali jahon madaniyati xazinasiga munosib hissa bo`lib qo`shishga olib keladi.

Milliy urf-odatlar, an`analar xalqlarning yashash sharoiti milliy xususiyatlarni o`zida jamlab, ming yillar davomida hayot deb atalmish murakkab sinovlardan o`tib, xalqning o`ziga xos tuzugi – qonuni darajasiga ko`tarilgan. Mustaqillik sharofati bilan bugunga kelib ajdodlarimizdan qolgan bebaho merosni o`rganish, amaliyotga tadbiiq etishga shart - sharoit yaratildi. Hozirgi davrda ta`lim-tarbiya ishini takomillashtirish, milliylashtirish, jahon andozalariga mos keladigan pog`onaga ko`tarishda boy milliy-madaniy merosimizga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, yangi davrning yangi talablariga alohida ahamiyat berish kerak. Bu esa eng avvalo: zamonaviy ta`lim –tarbiya shakllari, vositalari va usullaridan keng ko`lamda foydalana oluvchi yuqori malakali o`qituvchilar tayyorlashni taqozo etadi. Ta`kidlash kerakki, ta`lim-tarbiyani bir-biridan ajratish mumkin emas. Ta`lim-tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishni ma`lum kasb-hunarga yo`naltirilganligi, tabiiyki, o`quvchilarda mehnatga muhabbat hissi o`z-o`zidan tarkib topgan bo`lmaydi. U oilada ota-onaning yoki boshqa katta yoshdagi kishilarning shaxsiy namuna ko`rsatishi, keyinchalik ta`lim-tarbiya maskanlarida o`tkaziladigan mehnat ta`limiga oid mashg`ulotlarda insoniyat jamiyati to`plagan mehnatsevarlik an`analarini o`rganish orqali tarkib topadi. Bir so`z bilan aytganda mehnat ta`limining asosiy maqsadi – o`quvchilarning hayotdan olgan bilimi va tajribalarini aniq ishlab

chiqarish mazmuniga ega masalalarning yechimini topish yo`li bilan boshlang`ich kasb-hunar sirlarini tarkib toptirishga qaratishdan iborat.

Umumta`lim maktablarida tashkil etiladigan mehnat ta`limi mashg`ulotlarini qiziqarli, samarali va to`la qonli olib boorish uchun o`qituvchida aqliy, ma`naviy, uslubiy, umummehnat, maxsus kasbiy, hisoblash, o`lchash-tekshirish, chizish va tuzishga doir hamda turli xil moslamalar, texnologik jarayonlarni boshqara olish, bevosita mehnat ob`ektlari, predmetlari va qurollari bilan munosabatda bo`lish kabi xislatlar tarkib topgan bo`lishi kerak.

Xalq hunarmandchiligi moddiy madaniyatimizning eng qadimiy va muhim turlaridan hisoblanadi va tasviriy hamda amaliy san`atning ko`pdan-ko`p sohalarini bilan uyg`unlashib ketadi. Ammo tasviriy va amaliy san`at, buyumlarga badiiy ishlov berish jarayoni hamda xalq hunarmandchiligining o`ziga xosligi, yo`llari, xususiyatlari bir-biridan farqlanadi. Shuning uchun moddiy ma`naviyatning, madaniyatning ushbu sohalariga oid mavjud ta`riflarini keltirib, taqqoslab o`tish o`rinlidir.

*Tasviriy san`at* – san`at turi bo`lib, rassomlik, grafika, haykaltaroshlik va foto san`ati sohalarini o`z ichiga oladi. Tasviriy san`at real borliqni ko`rgazmali obrazlarda, mavjud predmetlarni ularning tabiiy shakli, o`rni bo`lishini o`ziga o`xshatib, umumlashtirib va tipiklashtirib ifodalaydi.

*Amaliy bezakchilik san`ati* – tasviriy san`atning eng qadimgi turlaridan biri bo`lib, materialga berilgan bezak texnikasiga qarab farqlanadi. Xalq turmush madaniyatini xarakterlaydi. Amaliy bezak san`ati buyumlarining badiiyliigi shu buyumlarning amaliy funksiyasi bilan bog`liq.

*Hunarmandchilik* – hunarmand, har xil oddiy mehnat qurollari yordamida xomashyodan turli mahsulotlar tayyorlanadigan ishlab chiqarish, shunday mahsulotlar tayyorlanadigan kasblarning umumiy nomi. Bora-bora kulolchilik, duradgorlik, temirchilik, misgarlik, zargarlik, binokorlik, haykaltaroshlik, o`ymakorlik, toshtaroshlik, ko`nchilik, pichoqchilik, do`ppichilik va boshqalar ajrala borgan. Demak yuqoridagi ta`riflardan ko`rinib turibdiki, xalq hunarmandchiligining mohiyati, mazmuni, tuzilishi, xususiyati o`ziga xosdir. Respublikamizda mavjud bo`lgan xalq hunarmandchiligining Toshkent, Samarqand Buxoro, Nukus, Xiva, Termiz, Urganch, Namangan, Andijon, Farg`ona, Chust, Shahrisabz va boshqa markazlarining ta`limiy-tarbiyaviy imkoniyatlari beqiyos bo`lib, o`ziga xosligi jihatidan bir-biridan ajralib turadi.


O`zbek xalqining shakllanishi tarixi bilan uyg`unlashib ketgan xalq hunarmandchiligining o`nlab turlari bo`lishiga qaramasdan, hozirgi zamon ta`lim-tarbiya tizimida ulardan deyarli foydalanmasdan kelish hollari ham mavjud, bu esa mehnat va kasbga yo`naltirishda ta`lim tizimining milliy, mahalliy, etnik, tarixiy xususiyatlardan ajralib qolishiga sabab bo`ladi. Shuning uchun ham hozirgi kunda bu o`zbek milliy an`analarimizni qayta tiklash eng muhim vazifalardan biri bo`lib kelmoqda. Dunyoda har qanday hunar bo`lmasin, albatta uning ustalari va uning shogirdlari bo`ladi. Naqqoshlik, ganchkorlik, misgarlik, pichoqchilik, bo`yrachilik, gilamdo`zlik, zardo`zlik, yog`och o`ymakorlik, savatchi, temirchi, suyak o`ymakor, sangtarosh, chilgar, zargar va boshqa hunar ustalari bor. Milliy hunarmandchilikni rivojlantirishga katta e`tibor berilayotgan hozirgi bir paytda o`zbek milliy an`analarimiz asosida ustozlar shogirdlariga o`z hunarlarini o`rgatib kelmoqdalar.

Har bir hunar qadimdan muqaddas hisoblangan bo`lib, ular hurmatlab, e`zozlab kelingan. Ota-bobolarimiz tomonidan ustoz va shogirdlar uchun o`ziga xos odob-axloq me`yorlari, maxsus tartib-qoidalar, urf-odatlar, muomala madaniyati, irimlar, duolar, milliy an`analar ishlab chiqilgan bo`lib, ularga qat`iy rioya qilingan.

**2. O`zbek xalq hunarmandchiligini rivojlantirgan hunarmand ustalar va ularning ish usullari.** Qadim zamonlardan beri ota-bobolarimiz insoniyat vujudga keltirgan kashfiyot, ilm-fan cho`qqilarini egallab, o`z hunarlarini avlod-dan-avlodga o`tkazib kelmoqdalar. Masalan, yog`och o`ymakorligi, naqqoshlik, me`morchilik, kandakorlik, kulolchilik, pichoqchilik, zargarlik, kashtachilik, zardo`zlik, gilamchilik, do`ppido`zlik, quroqchilik, savatchilik va boshqalar. Bu borada, har bir usta o`zi yashab, ijod etgan yerdagi badiiy an`analarning o`ziga xos tomonlarini o`zida aks ettiradi. Masalan, Xivalik xalq ustalari yog`ochni o`yib naqsh ishlashda yog`ochning tabiiyligini saqlab qolganlar, buxorolik ustalar esa naqsh o`yib ishlagan buyumlarni jim-jimador qilib, uni oltinsimon va kumushsimon ranglar bilan bo`yaganlar. Qo`qonlik xalq ustalari yog`ochni o`yib naqsh solishda uni o`rta chuqurlikda o`yganlar, Toshkent xalq ustalari taxta yuzasidagi naqshlarni zaminsiz, chiziqlar orqali bajarganlar va hoshiya naqshlarini ko`p ishlaganlar. Marg`ilon ustalari o`ymakorlik ishlarining zaminini o`ta chuqur o`yganlar. Hozirgi paytda yog`och o`ymakorligi me`morchilik bilan bir qatorda ro`zg`or buyumlariga bezak berishda ham keng qo`llanilmoqda. O`zbekistonda ishlatiladigan o`yma naqshlarning chuqurliqi 2 mm dan 15 mm gacha boradi.

Toshkent, Buxoro, Qo`qon, Samarqand o`ymakor ustalari buyumlarining o`yilgan zaminini chekma uslubida maxsus chekich iskana qalam bilan chekichlab chiqadilar. Xiva ustalari naqsh zaminini chakichlamasdan tekisligicha qoldiradilar. Ular o`yib tayyorlangan buyumlarning yuziga qizdirilgan chigit yog`i surtadilar. Bunda buyumning namga va issiq-sovuqqa chidamliligi oshadi. Ikkinchidan chigit yog`i naqsh yuzini qoramtir qilib ko`rsatadi. Toshkent, Qo`qon va Samarqand ustalari esa tayyor buyumlarni maxsus lok bilan loklaydilar.

Yog`och o`ymakor ustalari qadimdan uch uslub asosida yog`ochlarga bezak berganlar. Bular bag`dodi, islmiy va pargoridir. Bu uslublardan yana biri girih islmiydir. Agar islmiy naqshlar sirkul yordamida bajarilsa, pargor islmiy, aylana islmiy deb ataladi (1-2 rasm). Bu o`ymakorlik turini ustalar “o`ymali pargori” va “o`yma pargor bilan” deb nomlaydilar. Ozbekistonda pargori uslubi ustalaridan T.Ayibxo`jayev, A.Tursunboyev, Xaydar Najmiddinov, Qodirjon Haydarov, Sulaymon Xo`jayev, Ortiq Fayzullayev, Abduvosiq Saydaliyev, Botir Ganiyev va boshqalarning pargori uslubidagi ishlari elga manzur bo`lib kelmoqda.



1-rasm

2-rasm

**Hunarmandchilik maktablari.** Toshkent ganchkorlik maktabi ham o`ziga xos maktablari bilan ajralib turadi. Bu maktabga xos naqshlar nozikligi aniq simmetrik taqsimga egaligi, jozibadorligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Toshkent ganchkorlik maktabi namoyondalari safida Usmon Ikromov, Toshpo`lat Arslonqulov, Mahmud Usmonov, Anvar po`latov, Mirmahmud Rahmatov, aka-uka Abdurahmon va Mo`min Sultonovlar, Hayot Abdullayev, Ziyodulla Yusupov, Umar Tohirov, Mirvohid Usmonov kabi qator yetuk ustalar faoliyat olib borishadi.

Buxoro ganchkorlik maktabi san`atining eng rivojlangan joyi va o`chog`i hisoblanadi. Zero, bu san`at o`yma ganchlarning yirik hamda o`ziga xos mayinligi, jozibadorligi va boshqa tomonlari bilan ajralib turadi. Buxoro ganchkorlik maktabining eng yirik namoyondalaridan birak ademik Usta Shirin Murodovdir. Buxoro ganchkorlik maktabi namoyondalari Usta Safar, Usta Adis, Usta Savri, Usta Islom, Usta Ikrom, Usta Jo`ra, Usta Qurbon Yuldoshev, Usta Ibrohim Hafizov, Usta Narzillo, Usta Hayot Nosirov va boshqalardir.

Hunarmandlar qadimdan bir-birlari bilan birikib bir mahallada yashaganlar, Shuning uchun mahallalarning nomi ko`pchilik qaysi hunar bilan shug`ullansa shu nom bilan yoritilgan. Masalan, zargarlik bilan shug`ullansa zargarlik (zargaron), misgarlik bilan shug`ullansa misgarlik (misgaron) mahallasi deb yuritilgan va h.

Samarqandda o`rta asrlarda mashhur Registon maydoni yaqinida nodir metallarga badiiy ishlov beruvchi xalq ustalari mahallasi – “Zargaron” mavjud bo`lib, maxsus hovlilarda ustalar o`zlari tayyorlagan noyob san`at asarlarini va buyurtmalarini sotib hayot kechirganlar.

Buxorodagi Misgaron va Zargaron savdo rastalari ham metallga badiiy ishlov berish san`atining hamda metallga badiiy ishlov berishasosida rivojlangan milliy hunarmandchilik kasblarni O`rta Osiyoda qadimdan rivojlanib kelayotganligining isbotidir. Hozirgi davrda ham O`zbekistonda metallga badiiy ishlov berish kasblari, ayniqsa pichoqchilik, kandakorlik, misgarlik keng rivoj topgan. Buxoro va Xiva shaharlarida ishlab turgan xalq amaliy san`ati maktablarida o`quvchilariga bu kasblar o`rgatilib kelinmoqda.

Buxoroda “So`fikordgar” qishlog`ining nomi hali ham saqlanib qolgan. U erda hozir ham pichoqsozlar avlodi yashaydi. O`rta Osiyo hududidagi viloyatlarda bunday mahallalar ko`p bo`lgan. Pichoqdan kesuvchi asbob tariqasida kunda foydalanilsa, Qadimda O`rta Osiyoda erkaklarning ish quroli, bezagi tariqasida foydalanilgan. Pichoqlarni badiiy bezash ham katta rol o`ynagan. Shuning uchun ham Sharq madaniyatining eng yaxshi an`analarini qayta tiklash va o`zlashtirish natijasida mamlakatimiz pichoqsozlari milliy pichoqni san`at darajasiga ko`targanlar.

Bugungi kunda yurtimizning turli viloyatlarida tashkil etilgan maktablarda usta hunarmandlar tomonidan ko`plab buyumlar ishlab chiqarilmoqda. Toshkentlik ustalardan usta Mo`min, Abduqori, Jamila Saidova, Yusufjon va qizi Zebinisolar, buxorolik ustalardan Shodi Muhammad Barotboy, usta Sharif, Salohiddin, Hakim Buxoriy, Olim Abdusalomovlar, qo`qonlik ustalardan Mulla Xoliq, usta musavvir Kashg`ariy, Foriq Xoliqov, Lutfulla Fozilov, Oynisabibi, Sobirabibilar, samarqandlik ustalardan esa Ahmad, Salim misgar, usta Ohunjon, Karim G`ofurov, Karim Ahmedov kabi ustalarning metallarga ishlov berish orqali tayyorlagan buyumlari hozirgacha saqlanib va foydalanib kelinmoqda. Ularning shogirdlari ustozlarining izlaridan borib, ustozlari ishlarini davom ettirishmoqda.

Qorasuv, Chust, Xiva, Shahrixon, Qoqon, Farg`ona vodiysi, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo qadimdan pichoqchilik markazlari bo`lib, ular o`zining ishlash texnologiyasi, shakli, katta-kichikligi va bezaklari bilan bir-biridan tubdan farq qilgan.

O`zbek xalq amaliy bezak san`atining eng keng tarqalgan turlaridan yana biri kandakorlikdir. Kandakorlik deganda metallardan yasalgan badiiy buyumlarga o`yib yoki bortiqlik qilib naqsh ishlash tushuniladi. Savdo-sotiqda qadimdamdan kandakorlik buyumlariga talab katta bo`lgan.

O`zbek xalq amaliy san`ati turlari ichida zeb-ziyat san`ati bo`lmish zargarlik alohida o`rin egallaydi. Qo`qonda shuhrat qozongan zargar ustalardan esa Mahmud, usta Omon hoji Marahimov, X.Najmiddinovlar, Namanganda usta Niyoz Oxun, Andijonda esa Oybergan, X.Otaboyev, Toshkentda S.Bobojonov, Oxun Bobojonov, usta Samihiddin, A.Shoislomov, usta Mirxalil, Urganchda M.Abdullayev, Samarqandda X.Yo`ldoshev, I.Kolimboyev, V.Hafizov va boshqalarning mehnati zargarlik kasbining rivojlanishida juda katta hisoblanadi.

Ozbek milliy kashtado`zlik xalq hunarmandchilik san`atining eng qadimiy turlaridan bo`lib, u xalqning o`z turmushini go`zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashta kiyimlar va buyumlarni bezashda hamda ro`zg`r bezak buyumlari tayyorlashda qadimdan qo`llanilgan.


Kashtachiligimiz san`ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuhrat qozongan. O`zbek chevar ustalari qo`llari bilan tikilgan kirpich, so`zana zardevor, gulko`rpa, choyshab kabilar Fransiya, Italiya, Yaponiya, Germaniya, Belgiya, Amerika, Hindiston kabi horijiy mamlakatlarda, shuningdek, Respublikamizning Farg`ona vodiysida faqat xonadonlarda emas, balki amaliy san`at muzeularida ko`p namunalari to`planib, doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan.

Kashtado`zlikning yirik namoyondalaridan andijonlik rassom kashtado`z

X.Nazarov, samarqandlik tashtado`z Usmon shokirov, toshkentlik kashtado`z va chizmakash Xayri Sobirovalar kashta buyumlariga yangi turli xil naqsh kompozitsiya va tikish usullarini yaratdilar. X.Sobirova onasi Zaxira Mirxoliqovadan qo`lda, mashinada tikish sirlarini va chizmachilikni o`rgandi. X.Sobirova 15 yoshidan boshlab onasining kashtado`zlik hunarini davom ettirib, ko`plab shogirdlar yetishtirishda o`z hissasini qo`shgan.

O`zbek kashtachiligida iroqi, ilma, yorma, bosma, xomdo`zi, chamak, chinda hayod, baxya choklari keng tarqalgan. Turli joylardagi badiiy kashtalarda choklar turlicha tikiladi. Chunonchi, Toshkentda ko`proq bosma choki, Shaxrisabzda yorma, kandaxayol, iroqi, Buxoro, Samarqand, Nurotada yorma choki bilan tikiladi.

Kashtado`z ustalar tabiatdagi gul, barg, novda, g`uncha, qush va boshqalarning tuzilishini, o`shish qonun-qoidalarini, ko`rinishini sinchiklab o`rganib, ulardan turli naqsh kompozitsiyalar ishlash uchun har xil elementlarni stillashtirib olganlar. Masalan gulni stillashtirib olar ekan, uning go`zalligini qaysi holatdagi ko`rinishini tasvirlashni izlab topadi. Osimliksimon naqshlar "Islimiy gullar" deb ataladi. Islimiy gullar o`z navbatida, ikki tomonga ulanadigan ko`rinishda bo`ladi.





O`zbek kashtalarida o`simliksimon, geometrik hamda gul naqshlari ko`p bo`lsa, rus kashtachiligida geometrik, o`simliksimon shakllar, gullar, qush va mevalar ko`p tasvirlanadi, qozoq va qirg`iz kashtachiligida esa ko`proq hayvonlar, shox va tuyoqlarni eslatuvchi elementlar tasvirlanadi.

**3. Bozor munosabatlari sharoitida “Hunarmand” uyushmasining faoliyati va istiqbollari.** Mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohatlar natijasida bugungi kunda barcha sohalar kabi aholini mehnat bilan ta`minlash, ularga kasb-hunar o`rgatish ishlari, jumladan, hunarmandchilik ham asta-sekinlik bilan rivojlanib, takomillashib bormoqda. Respublikamizda aholining mehnat resurslardan oqilona foydalanish maqsadida kasb-hunarining ayrim turlari, ayniqsa, milliy qadriyat sifatida bugungi kunda tiklangan va tiklanayotgan xalq hunarmandchiligiga oid ko`plab qonun va farmonlar ishlab chiqildi.

O`zbekiston Respublikasi Xalq ustalarining, “Usto” birlashmasi va “Musavvir” ilmiy-ishlab chiqarish markazining ushbu markaz huzurida xalq hunarmandlarining Qoraqolpog`iston Respublikasida, viloyatlarda va Toshkent shahrida bo`linmalarga ega bo`lgan “Hunarmand” uyushmasi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 31-martidagi PF-1741-sonli “Xalq amaliy san`ati hunarmandchiligini rivojlantirishni davlat yo`li bilan qo`llab-quvvatlash chora-tadbirlari to`g`risida”gi Farmoniga asosan tashkil topgan. Ushbu farmonga ko`ra “Hunarmand” uyushmasi faoliyatining asosiy yo`nalishlari etib quyidagilar belgilangan.

- xalq hunarmandchiligining mehnat faoliyati masalalarini muvofiqlashtirish, Respublika qonunchiligi tomonidan ularga beriladigan huquqlar va manfaatlarni himoya qilish;

- ustalar va hunarmandlarni moddiy-texnika resurslari, asboblari, kichik mehanizatsiya vositalari bilan ta`minlashni, ishlab chiqarilgan mahsulotni sotishda, shu jumladan eksport qilishda yordam berishni nazarda tutgan holda ularda uyda ishlashlari uchun shart-sharoitlar yaratishda ko`mak berish;

- bozor munosabatlari talablarini o`rganish hamda yuksak badiiy buyumlar tayyorlash uchun mahalliy xom ashyo va materiallarning yangi turlaridan foydalanish bo`yicha tavsiyanomalar ishlab chiqish;

- mamlakat ichkarisida va chet ellarda xalq ustalarining buyumlari keng targ`ib va reklama qilinishini, rasmi materiallar va kataloglar chiqarilishini, ko`rgazmalar va kimochdi savdolari o`tkazilishini tashkil etish;

- xalq san`atining noyob turlarini va buyumlarining yuksak badiiy nusxalarini tayyorlashda an`analarini saqlab qolish hamda bu ish ko`nikmalarini yoshlarga sig`dirish, mohir ustalarni tayyorlash bo`yicha maxsus maktablar tashkil qilish.

**“Hunarmand” uyushmasining asosiy maqsadi:**

- asrlar davomida rivojlanib kelayotgan xalq amaliy san`ati va badiiy hunarmandchiligi an`analarini saqlab qolish, uni nafaqat ichki bozorlarda, balki tashqi bozorlarda ham namoyish qilishga ko`maklashish

- xalq amaliy an`analari asosida faoliyat yuritayotgan xalq ustalari, hunarmandlar, amaliy sanat mutaxasislari, ijodkor yoshlar faoliyatlarini muvofiqlashtirish;

- ularning huquqiy va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

- ijtimoiy, madaniy va ma`rifiy maqsadlarni amalga oshirish;

- iqtidorli bolalar va yoshlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish;

**“Hunarmand” uyushmasining asosiy vazifalari:**

- O'zbekiston va chet mamlakatlarda ko'rgazmalar, auksionlar o'tkazish va ularda hunarmandlar ishtirokini ta'minlash;

- uyushma a'zolarini yangi zamonaviy texnologiya va jihozlar, xom ashyolar, asbob uskuna va kichik mexanizatsiya vositalari bilan ta'minlash;

- hunarmandlar ishlab chiqargan mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarda sotishga, eksport qilishga ko'maklashish;

- milliy ustachilik va hunarmandchilik me'rosini saqlash maqsadida “Ustoz-shogird” maktablarini tashkil etish;

- xalq amaliy san'atini butun dunyoga targ'ib qilish;

- Respublikada kasanachilikni rivojlantirish;

- chet mamlakatlarda xalq madaniy me'rosi bilan shug'ullanadigan tashkilotlar bilan uzviy aloqa o'rnatish, hamkorlik ishlarini olib borish.

Bugungi kunda “Hunarmand” uyushmasining a'zolari Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 20 avgustdagi 357-qarori va O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va Davlat Soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan yo'riqnomaga asosan 2012 yil 1-aprelgacha daromad solig'iva bojxona to'lovlaridan ozod qilingan. Ularga hunarmandchilikning bir qator turlari kiradi (1-jadval).

1-jadval

| T.r | Nomlari   | T.r | Nomlari   |
|-----|---|-----|---|
| 1   | Ganch o'ymakorligi  | 14  | Zardo'zlik buyumlari                                      |
| 2   | Yog'och o'ymakorligi                                      | 15  | Kashtachilik buyumlari                                    |
| 3   | Suyak o'ymakorligi  | 16  | ul bosilgan gazlamalar va chokli buyumlar                 |
| 4   | Tosh o'ymakorligi   | 17  | Milliy choponlar va do'ppilar                             |
| 5   | Yog'ochdan tayyorlangan xalq hunarmandchilik mahsulotlari | 18  | Musiqqa asboblari   |
| 6   | Metal va tunukadan yasalgan buyumlar                      | 19  | Miniatyura, rang tasvir, naqqoshlik va sirlangan buyumlar |
| 7   | Qilich xanjar va picoqlar                                 | 20  | Hajmli va shaklli qoliplarda quyilgan buyumlar            |
| 8   | Kandakorlik (misgarlik buyumlar)                          | 21  | Mayda haykaltaroshlik buyumlar                            |
| 9   | Chinni, fayans va kulolchilik buyumlari                   | 22  | O'yinchoqlar  |
| 10  | Qimmatbaho metallardan zargarlik buyumlari                | 23  | Qo'lda to'qish ishlari                                    |
| 11  | Qo'lda to'qilgan gilam to'qimachiligi                     | 24  | Charm mahsulotlari va poyabzal                            |
| 12  | Qo'lda to'qilgan gazlamalar va qo'l to'qimachiligi        | 25  | Yodgorlik buyumlar  |
| 13  | Shisha buyumlar   |     |   |

**“Hunarmand” uyushmasiga a'zo bo'lish uchun topshirilgan hujjatlar:**

1. Hunarmandning arizasi.
2. Turar joydan ma'lumotnoma.
3. Pasport nusxasi.
4. Shaxsiy varaqa.
5. Tarjimai hol.
6. 3x4 o'lchamli 4 dona foto surat.
7. Bajaradigan ishlaridan namunalar.

Ushbu topshirilgan hujjatlar asosida hunarmandni uyushmaga qabul qilish masalasi Respublika xalq ustalari, hunarmandlari, musavvirlari “Hunarmand”

uyushmasi viloyat kengashlarida ko`rib chiqiladi va uyushmaga a`zolikga qabul qilingan hunarmandlarga maxsus guvohnoma beriladi (1-ilova).

*Uyushmaga a`zo bo`ladigan hunarmandlar yiliga bir marotaba a`zolik badalini quyidagicha tartibda to`laydilar.*

Nafaqaxo`r hunarmandlar:

Bir yilda eng kam ish haqining 2 baravar miqdorida yillik a`zolik badali.  
Masalan,  $75835 \times 2 = 151670$  so`m.

Guvohnoma uchun: 3000 so`m

Kasaba uyushmasiga 1516 so`m

Nafaqaxo`r bo`lmagan hunarmandlar:

Bir yilda eng kam ish haqining 4 baravar miqdorida yillik a`zolik badali.  
Masalan,  $75835 \times 4 = 303340$  so`m.

Kirish badali: 5000 so`m

Guvohnoma uchun: 1500 so`m

Kasaba uyushmasiga: 3334 so`m

**“Hunarmand” xalq hunarmandlari hududiy bo`linmalari ijro etuvchi apparatining namunaviy tuzilmasi:**

1. Bo`lim rahbari.
2. Moddiy-texnika ta`minoti bo`yicha yetakchi mutaxassis.
3. Katta san`atshunos.
4. Marketing bo`yicha yetakchi mutaxassis.
5. Buxgalter-xazinachi.

**Hududiy bo`limlar xodimlari soni:**

|    |   |                 |
|----|---|-----------------|
| 1  | Qoraqolpog`iston Respublikasi           | 5 kishi         |
| 2  | Andijon viloyati, Andijon shahri        | 5 kishi         |
| 3  | Buxoro viloyati, Buxoro shahri          | 7 kishi         |
| 4  | Jizzax viloyati, Jizzax shahri          | 4 kishi         |
| 5  | Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz shahri | 5 kishi         |
| 6  | Navoiy viloyati, Navoiy shahri          | 4 kishi         |
| 7  | Namangan viloyati, Namangan shahri      | 4 kishi         |
| 8  | Samarqand viloyati, Samarqand shahri    | 8 kishi         |
| 9  | Surxondaryo viloyati, Termiz shahri     | 4 kishi         |
| 10 | Sirdaryo viloyati, Guliston shahri      | 4 kishi         |
| 11 | Farg`ona viloyati, Qo`qon shahri        | 8 kishi         |
| 12 | Xorazm viloyati, Xiva shahri            | 7 kishi         |
| 13 | Toshkent viloyati va Toshkent shahri    | 5 kishi         |
|    | <b>Jami:</b>                            | <b>70 kishi</b> |

#### **4. Hunarmandlarning bozor munosabatlari asosidagi faoliyatlari.**


Bugungi kunda bozor munosabatlari sharoiti hunarmandlar oldiga yanada sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish talablarini qo`ymoqda .Bu borada mamlakatimizda qabul qilingan qonunlar va farmonlar asosida hunarmandlar uchun barcha shart – sharoitlar yaratilgan. Ayniqsa , mamlakatimizning qadimiy shaharlari hisoblangan Samarqand ,Xiva , Buxoro, Toshkent, Qo`qon,Marg`ilon kabi shaharlarga tashrif buyurgan mehmonlar, shu jumladan, chet ellik mehmonlar

o'zlarining yurtlariga bu shaharlardan qandaydir estalik, sovg'a olib ketishni xohlaydilar. SHu bois bu joylardagi zahmatkash hunarmandlar o'zlari tayyorlagan turli xil ko'rinishdagi va o'lchamdagi ishlarini olib chiqadilar hamda mehmonlarga taqdim etadilar. Bunday ishlarining turi ko'p, masalan turli rasmlar, o'ymakorlik va kulolchilik ishlari, tikuvchilik va to'quvchilik ishlari kabilardir. Quyida hunarmandlarning bozor munosabatlari sharoitidagi ish faoliyatlaridan lavhalar va milliy hunarmanchilik asosida tayyorlagan buyumlardan namunalar keltirilgan.

Izoh; maskur hunarmandchilik kasblari bo'yicha keltirilgan lavhalar "Taqdimot" metodi orqali o'quvchilarga namoyish etiladi va o'quvchilar bilan "Bahs – munozara" tashkil etiladi.

#### **IV. Darsni yakunlash.**

**Yangi mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimini mustahkamlash.** "Zinama-zina" metodi asosida marraga kim birinchi chiqish texnologiyasining sxematik tuzulishi asosida o'tilgan mavzuni mustahkamlash samarali hisoblanadi. Quida sxematik tuzilishi keltirilgan bo'lib, mavzuga oid savollar ketma – ketlik asosida oddiydan murakkabga qarab tuziladi. Savollar o'qituvchi tomonidan tuzulib, zinalarga joylashtirib qo'yiladi.



**2 Uyga vazifa berish.** O'quvchi mavzu asosida qo'shimcha materiallarini to'plash va tarqatma materiallar tayyorlab berish.

**3 Ish o'rnini yig'ishtirish.**

## 2-4-dars.

“Texnologiya va dizayn” yo’nalishi uchun.

|               |  |
|---------------|--|
| <b>lavzu:</b> | <b>Hunarmandlarning bozor munosabatlari asosidagi faoliyatlari, uyushmalari va uning istiqbollari</b><br><b>Sovg’a uchun quticha (shkatulka) buyumini yasash</b> |
|---------------|--|

### Darsning maqsadi

a) *ta’limiy* – o’quvchilarda sovg’a uchun quticha (shkatulka) yasashni o’rganish ;

b) *tarbiyaviy* - o’quvchilarga har qanday ishni bajarishda o’ziga qulay bo’lgan sharoitni tashkil qilish va sog’lig’iga putur yetkazmaydigan mehnatni tashkil qilishni, ularda o’zbekona mehmonnavozlik xislatini rivojlantirish;

c) *rivojlantiruvchi*- o’quvchilarga buyum tayyorlash ishlarini bajarishda kerak bo’ladigan mehnat ko’nikmasini kengaytirish.

**Kasbga yo’naltiruvchi maqsad:** o’quvchilarning duradgorlik, yog’och o’ymakorligi kabi kasblar to’g’risida bilim ko’nikma va malakalarni rivojlantirish.

### Darsning vazifasi:

- o’quvchilarda texnologik xarita to’g’risidagi umumiy tushunchalarni kengaytirish;
- quticha (shkatulka) uchun texnologik xarita tayyorlash to’g’risidaga ma’lumot berish;
- bajariladigan ish usullari, asbob- uskunalar va moslamalar bilan tanishtirish;
- asbob- uskunalar va moslamalardan foydalanganda xavfsizlik texnikasi qoidalarga amal qilish to’g’risidagi bilimlarni o’rgatish;
- sohaga oid kasblar bo’yicha ma’lumot berish.

**Dars tipi:** Yangi bilimlar berish.

**Dars turi:** amaliy

**Darsda qo’llaniladigan o’qitish metodlari:** “taqdimot”, baxs – munozara , savol-javob.

**Fanlararo bog’lanish:** tasviriy san’at , chizmachilik, matematika, fizika , iqtisodiy bilim asoslari va b.

**Dars jihozi:**kompyuter, proyektor, ekran, slaydlar, “Quticha”ning texnologik xaritasi , asbob- uskunalar va moslamalar, xavfsizlik texnikasi qoidalari, sohaga oid kasb bo’yicha ko’rgazma materiallari.

### Darsning borishi:

#### I Tashkiliy qism.

**II So’rash.** O’tgan dars mavzusi yuzasidan savol-javob o’tkazish, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo’llagan holda o’quvchilar bilimini nazorat qilish qilish. Masalan, o’quvchilarga o’tilgan dars yuzasidan quyidagi topshiriq va savollarni berish mumkin. 1. Xalq hunarmandchiligining qanday turlarini bilasiz? 2 Taniqli o’zbek xalq hunarmand ustalari va ularning ish usullari haqida gaprib bering. 2 Bozor munosabati sharoitida”Hunarmand ” uyushmasining faoliyati va istiqbollari haqida gaprib bering .3 Hunarmandlarning bozor munosabatlari asosida

borayotgan ish faoliyatlaridan misollar keltiring va h. O'quvchilarning javoblari umumlashtirilib , yangi mavzu yuzasidan yo'l-yo'riqlar beriladi.

### **III. Yangi mavzu bayoni**

#### **Reja:**

1. Sovg'a uchun quticha yasashning texnologik xaritasini tuzish.
2. Texnologik xarita asosida sovg'a uchun quticha yasash.

#### **1. Sovg'a uchun quticha yasashning texnologik xaritasini tuzish.**


**Amaliy mashg'ulotning borishi.** Har qanday buyumni yasash uchun uning tegishli chizmasi va texnologik jarayonning asosini tashkil qiladigan texnologik xaritasi bo'lishi shart. Texnologik jarayon deganda umuman ishlab chiqarish jarayonining bir qismi tushuniladiki, unda xom ashyoni tayyor buyumga aylantiriladi. Texnologik jarayon o'z navbatida texnologik mexnat jarayonlariga bo'linadi. Har bir texnologik jarayon texnologik jarayonning tugal bir qismi bo'lib, ularda bir ish o'rnida va asbobni almashtirmay, masalan, arralash, egovlash, parmalash, elimlash, mixlar, burama, mixlar (shurup) va boshqa vositalar bilan birlashtirish kabi biror ish bajariladi. Shuningdek, texnologik jarayon ham yanada kichik elementlarga –texnologik o'tishlarga bo'linadi. Bular texnologik jarayonning tugal qismlaridan iborat bo'lib , foydalaniladigan asbobning va ishlov beriladigan yuzaning doimo bir xilligi bilan xarakterlanadi. Masalan, yog'ochni arralash, g'adirbudur yuzasini randalash va hokazo. Bu mashg'ulotda sovg'a uchun quticha yasashini va uning texnik chizmalari va texnologik xaritasini tuzulishini, ularni daftarga ko'chirib olish kerakligini aytib o'tiladi. Shundan so'ng o'quvchilar bilan birgalikda sovg'a uchun quticha yasashning texnologik xaritasi tuziladi.

#### **2. Texnologik xarita asosida sovg'a uchun quticha yasash.**

Tayyorlangan texnologik xarita asosida o'quvchilar sovg'a uchun quticha yasaydilar. Bu jarayonda yasaladigan qutichani ssifati, chiroyi va tuzulishiga katta e'tibor qaratish kerak. Sovg'a uchun yasaladigan qutichani to'rtburchak, silindrsimon, doirasimon shakllarda ham yasash mumkin. Quticha yuzasiga turli ko'rinishdagi naqshlarni chizish orqali uni yanada jozibadorligini oshirishga erishish mumkin.

Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida sovg'a uchun yasaladigan qutichani oddiy yog'och cho'plaridan ham yasasa bo'ladi. Buning uchun yog'och cho'plari to'lanadi. Ular turli yelimlar yordamida bir-biriga birlashtiriladi. Birlashtirilgan qismlar usti lok yordamida loklab chiqiladi. Bu yo'l bilan quticha yasash orqali o'quvchilarda xom ashyoni tejash, isrof qilmaslik, undan samarali va unumli foydalanish ko'nikmalari rivojlanadi.

## Sovg'a uchun quticha yasash texnologik xaritasi



| T<br>r | Ish<br>ketma-<br>ketligi                            | Ish eskizi | Asboblar                             |                                    | Jihoz va<br>moslamalar        |
|--------|---|------------|--------------------------------------|------------------------------------|-------------------------------|
|        |   |            | O'l-<br>chov                         | Ish                                |                               |
| 1      | Quticha<br>uchun mos<br>yog'och<br>tanlash          |            | chiz-<br>g'ich,<br>qalam             | dast-<br>arra,<br>randa            | TSD-120<br>tipidagi<br>stanok |
| 2      | 10×20×10<br>mm<br>o'lcham-<br>da quloq<br>chiqarish |            | chiz-<br>g'ich,<br>qalam,<br>go'niya | dast-<br>arra,<br>randa            | -//-                          |
| 3      | Tirnoq va<br>go'sha-<br>larni<br>arralash           |            | chiz-<br>g'ich,<br>qalam,<br>go'niya | dast-<br>arra,<br>randa            | -//-                          |
| 4      | O'lcham<br>olish,<br>randalash,<br>arralash.        |            | chiz-<br>g'ich,<br>qalam,<br>go'niya | dast-<br>arra,<br>randa            | -//-                          |
| 5      | Tirnoq va<br>go'sha-lar-<br>ni arralash             |            | chiz-<br>g'ich,<br>qalam,<br>go'niya | dast-<br>arra,<br>randa            | -//-                          |
| 6      | Quticha<br>tagini<br>rejalash va<br>arralash        |            | chiz-<br>g'ich,<br>qalam,<br>go'niya | dast-<br>arra,<br>randa            | -//-                          |
| 7      | Quticha-<br>ning tag<br>qismini<br>qoplash          |            | chiz-<br>g'ich,<br>qalam,<br>go'niya | dast-<br>arra,<br>randa,<br>bolg'a | -//-                          |
| 8      | Qutichani<br>lok,<br>bo'yoq<br>bilan<br>bo'yash     |            | -                                    | jilvir<br>qog'oz,<br>cho'tka       | -//-                          |

Hunarmand ustalar tomonidan sovg'a uchun yasaladigan quticha, lagan va boshqa mahsulotlar ham mana shunday usullar asosida yasaladi va yasalgan buyumlar bozorda o'z xaridorgirligi bilan ajralib turadi. Quyida hunarmand ustalar tomonidan yasalgan buyumlardan misollar keltirilgan.

**Eslatma.** Amaliy mashg'ulot vaqtida o'quvchilar quyidagi xavfsizlik texnikasi qoidalariga royiya qilishlari zarur:

**Ish boshlangunga qadar:**

1. Maxsus kiyimni to'g'ri kiyib olish.
2. Metal qirqish ishlarini bajarishda himoya ko'z yuzligini taqib olish.
3. Barcha asboblarni o'z ornida ekanligini tekshirib ko'rish, nosoz ish asboblari mavjud bo'lgan holda o'qituvchiga xabar qilish.
4. Dastgoh va uskunaning sozligini tekshirib ko'rish.

**Ish vaqtida:**

1. Ishlov beriladigan materialni uskunaga mustahkam qilib o'rnatish.
2. Ishni faqat soz, to'g'ri rostlangan asbobda bajarish.
3. Jarohatlanishning oldini olish maqsadida;
  - bolg'a va to'qmoq muhralari yuzasi silliq, yorilmagan va o'yiqliksiz bo'lishi kerak;
  - uchli asboblari (egov va b) yog'ochdan ishlangan mustahkam o'rnatilgan yoriqlarsiz tutqichga ega bo'lishi;
  - zarbli kesuvchi asboblarda zarb beruvchi qismi soz bo'lishi;
  - egov bilan ishlashda barmoqlar uning ustki qismida bo'lishi.
4. Ishlov berilayotgan yuzaning silliqdigi barmoq bilan tekshirilmaydi.
5. Gaykadan ko'ra kattaroq kalitlardan foydalanilmaydi, kalitni qo'shimcha vositalar bilan uzaytirish taqiqlanadi.

**Ish tugaganidan so'ng:**

1. Asboblari holatini tekshirib ko'rib, nosoz asboblari to'g'risida o'qituvchiga xabar berish.
2. Asboblarni tozalash va soz holatga keltirish.
3. Ish o'rnini tartibga keltirish, chiqitlarni maxsus qutiga tashlash.
4. Asboblarni o'qituvchi joylashtirgan tartibda o'z o'rniga qo'yish.

**Darsni yakunlash.**

1. Yangi mavzu yuzasidan o'quvchilari bilimini mustahkamlash;
1. Quticha yasash uchun qanday xomashyolar kerak bo'ladi?
  2. "Quticha yasashga oid texnologik xarita"ning tuzilishini tushuntirib bering.
  3. Asbob-uskuna, moslamalardan foydalanishda qanday xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilinadi?
2. **Uyga vazifa berish.** Sovg'a uchun yasaladigan buyumlar ro'yxatini tuzish va ulardan bittasini tanlab texnologik xarita tuzish.
3. **Ish o'rnini yig'ishtirish.**



## 2-4-dars.

“Servis xizmati” yo`nalishlari uchun

|               |   |
|---------------|---|
| <b>Mavzu:</b> | <b>Hunarmandlarning bozor munosabatlari asosidagi faoliyatlari, uyushmalari va uning istiqbollari</b> |
|               | <b>To`qishning murakkab usullari. Bolalar panchosini to`qish</b>                                      |

### Darsning maqsadi:

- a) *ta`limiy* – o`quvchilarga to`qishning murakkab usullarini o`rgatish;
- b) *tarbiyaviy* – o`quvchilarni sabrli bo`lishga, go`zallikni his qilishga o`rgatish;
- v) *rivojlantiruvchi* – o`quvchilarning to`quvchilik ishlari haqidagi bilim va ko`nikmalarini kengaytirish.

**Kasbga yo`naltiruvchi maqsad:** o`quvchilarni to`quvchilik kasbiga qiziqtirish.

### Darsning vazifalari:

- to`quvchilik hunari haqidagi tushunchalarni kengaytirish;
- o`quvchilarga murakkab to`qish ishlarini o`rgatish.

**Dars tipi:** Yangi bilimlar berish.

**Dars turi:** nazariy.

**Darsda qo`llanadigan o`qitish metodlari:** Taqdimot, bahs-munozara, savol-javob, klaster, zinama-zina.

**Fanlararo bog`lanish:** rasm, tasviriy san`at, chizmachilik, matematika, fizika, iqtisodiy bilim asoslari va h.

**Darsning jihozi:** tarqatma materiallar, kompyuter, proektor, ekran, slaydlar, to`quvchilik ishlaridan namunalar, ko`rgazmali qurollar, asbob-uskunalar.

### Darsning borishi:

**I. Tashkiliy qism.**

**II. So`rash.** O`tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o`tkazish.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

**Reja:**

1. To`quvchilik va to`quvchilik kasbi haqida ma`lumot.
2. To`qishning murakkab usullarini o`rganishda kryuchokdan foydalanish sirlari.

**1. To`quvchilik va to`quvchilik kasbi haqida ma`lumot.** To`quvchilik – eng qadimgi kasblardan biridir. To`quvchilik kasbini egallash orqali qizlarimizni hayotga tayyorlashdek zarur vazifa bajariladi, chunki har bir ayol to`quvchilik sirlarini bilishi kerak. Tikuvchilik kasbi qatori to`quvchilik kasbi ham sharafligina kasblardan biri hisoblanadi.

To`qish – qadimiy va ommabop qo`l mehnati turlaridan hisoblanadi. Trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoati qanchalik tez sur`atlarda rivojlanishiga qaramay, qo`lda to`qilgan kiyim va buyumlarga bo`lgan qiziqish yildan yilga ortib bormoqda, chunki tanlangan to`quv ipi yordamida inson to`qish hunarini mukammal o`rgangan bo`lsa, o`zining didiga, talabiga mos keladigan turli mavsumlar uchun

mo`ljallangan xilma-xil kiyimlar va buyumlarni qo`lda to`qib olish imkoniyatiga ega bo`ladi.

Hunar albatta yoshlikdan o`rgatiladi. Yurtimizda ko`pgina o`quv yurtlarida amaliy san`at turlariga oid hunarlarni o`rgatish bilan bir qatorda tikish, qo`lda to`qish hunarini o`rgatadigan maktabdan tashqari muassasalar ham faoliyat yuritmoqda. Bu hunar yosh avlodda mehnatga muhabbat, badiiy did va mahorat, sabrlik va ijodkorlik tuyg`ularini shakllantiradi. Qo`lda to`qish to`garaklari maktablar qoshida hamda maktabdan tashqari ta`lim muassasalarida, mahalla qo`mita qoshida tashkil etiladi. Bu to`garaklarda yoshlar qo`lda to`qish tarixi, to`quv jihozlari va iplari turlari, ulardan to`g`ri foydalanish, to`qish uslublari, to`qilgan buyum va kiyimlarni kerakli o`lchovda to`qish, to`qilgan kiyimlarga ishlov berish, ularni asrash kabi malakalarni egallaydilar.

**2. To`qishning murakkab usullarini o`rganishda kryuchokdan foydalanish sirlari.** Kryuchokda to`qishni texnik rasmlarga qarab o`rganish oson. Buning uchun har bir chokning namunasi (sxemasi)ni bilish darkor. Barcha choklarni namunaga qarab to`qishni o`rganib bo`lgach, katta buyumlarni to`qishni boshlash mumkin.




### 2.1. Xalqasimon petlya (sepochnka).

Bu quyidagicha amalga oshiriladi: kalava ipni boshini chap qo`lning ko`rsatkich barmog`iga ilib, o`ng qo`ldagi kryuchokni uning tagidan o`tkaziladi. So`ng chap tomondan o`ng tomonga kryuchokni tortib petlya hosil qilinadi. Hosil bo`lgan petlyaga chap qo`lning bosh barmog`i bilan ushlab yordam beriladi. Sxemada xalqasimon petlya nuqta (°) bilan belgilanadi. Boshlovchilar kryuchokni to`g`ri ushlab olishi zarur. Kryuchok o`ng qo`lda xuddi qalam ushlagandek ushlanadi. Kryuchokni har tomonga aylantirish mumkin emas. Kalava ip va to`qilayotgan ashyo chap qo`lda turadi.

**2.2. Bog`lovchi peltya.** Bu peltya yordamida peltyalar sonini qisqartirish yoki alohida to`qilgan mahsulotlarni ulashda foydalaniladi. Uning sxemadagi belgisi: X.

**2.3. Makidsiz ustun.** Kryuchokni oxiridan bitta oldingi petlyaga kirgizib, ipni tortib yangi petlya hosil qilinadi. So`ng yana ip tortib ikkita petlyani tagidan o`tkazib bitta petlya qiladi. Bu chok xalq tilida "t" chok deyiladi. Sxemadagi belgisi: T. To`qilayotgan buyumning chegarasi tekis chiqishi uchun qator oxirida bitta xalqasimon petlya to`qib yuboriladi.

**2.4. Nakidli ustun.** Kryuchokka bitta ilgak olib, xalqasimon chokning bittasidan o`tkaziladi. Kryuchokda uchta petlya hosil bo`ladi. Ikkita petlyani bitta qilib, petlya olinadi, kryuchokda ikkita





petlya qoladi, yana ikkita petlyani bitta qilib olinadi. Shunda bitta ustunga o`xshash chok paydo bo`ladi. Uning sxemadagi belgisi:

**2.5. Uchta yoki undan ko`p ustunlarni birga to`qish.** Ko`p hollarda uch yoki undan ko`p ustunlar bir joyda to`qiladi. U quyidagicha amalga oshiriladi: barcha ustunlar oxirigacha to`qilmaydi, ya`ni oxirgi petlya kryuchokda qoladi. Qancha ustun kerak bo`lsa, shuncha petlya olinadi, lekin asosiy petlya kryuchokda qoladi. Barcha petlyalar orasidan asosiy ip tortib olinadi va bitta xalqasimon petlya to`qiladi.




**2.6. Shokilali to`qish.** Shokilani ikki xil usulda to`qish mumkin: oldi tomondan va orqa tomondan. Birinchi usul: shokila oldi tomondan to`qiladi: Oldingi qator shunday to`qiladi: ipni chap qo`lning bosh barmog`ga ilib, petlya olinadi (A). So`ng kryuchokni ipning tepa qismidan qo`yiladi.

Kryuchokni oldingi asosiy petlyaga kirgizib ip tortiladi (B) va nakidsiz ustun to`qiladi (V). Qarama-qarshi qator nakidli yoki nakidsiz ustun shaklida to`qiladi. Ikkinchi usul: shokilani orqa tomondan to`qiladi. Ipni qalam yoki tekis yog`ochga o`rab, nakidli yoki nakidsiz ustun to`qiladi. Shokilalarning har bir qatori orasida bir ikki qator, yo nakidli, yo nakidsiz ustun to`qiladi.

**Bolalar panchosi.** Bolalar panchosi yengil ustki kiyimlardan hisoblanadi. Murakkab to`qish usullarini o`rganib olgandan keyin panchoni to`qish ham bir muncha oson bo`ladi.




To`qilgan ishlardan namunalar:



#### IV. Dars yakuni:

##### 1. Yangi mavzu yuzasidan o`quvchilar bilimini mustahkamlash.

“Zinama-zina” metodi asosida marraga kim birinchi chiqish texnologiyasining sxematik tuzulishi asosida o`tilgan mavzuni mustahkamlash samarali hisoblanadi. Quyida uning sxematik tuzulishi keltirilgan bo`lib, mavzuga oid savollar ketma-ketlik asosida oddiydan murakkabga qarab tuziladi. Savollar o`qituvchi tomonidan tuzilib, zinalarga joylashtirib qo`yiladi.



2. Uyga vazifa berish. Mavzu asosida qo`shimcha materiallar to`plash va tarqatma materiallar tayyorlab kelish.

##### 3. Ish o`rnini yig`ishtirish.

## 5-8-dars.

“Texnologiya va dizayn” yo`nalishi uchun.

|             |   |
|-------------|---|
| <b>Mavz</b> | <b>Duradgorlik asboblari dan to`qmoq yasash</b> |
|-------------|---|

### **Darsning maqsadi:**

a) *ta`limiy*- o`quvchilarga to`qmoqlarning vazifasi va konstruksiyasi, ular bilan ishlash usullarini o`rgatish, ularni to`qmoqlarni tayyorlash va ishlatishdagi xavfsizlik texnikasi qoidalari bilan tanishtirish;

b) *tarbiyaviy*-o`quvchilarni ish jarayonida tejamkorlikka o`rgatish, ularda go`zallikni his qilishni rivojlantirish;

v) *rivojlantirish*- o`quvchilarda buyum tayyorlash ishlarini bajarishda hosil bo`ladigan mehnat ko`nikmalarini kengaytirish;

**Kasbga yo`naltiruvchi maqsad:** o`quvchilarning duradgorlik, yog`och o`ymakorligi kabi kasblar to`g`risidagi bilim, ko`nikma va malakalarni rivojlantirish.

### **Darsning vazifalari:**

–o`quvchilarga texnologik xarita to`g`risidagi umumiy tushunchalarni o`rgatish;

–to`qmoq yasash uchun texnologik xarita tayyorlash to`g`risida ma`lumot berish

–to`qmoq yasashda bajariladigan ish usullari, asbob- uskunalar va moslamalar bilan tanishtirish;

–asbob-uskunalar va moslamalardan foydalanishda rioya qilinadigan xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya gigiena talablariga amal qilishni uqtirish;

–sohaga oid kasblar bo`yicha ma`lumot berish.

**Dars tipi:** Yangi bilimlar berish.

**Dars turi:** amaliy

**Darsda qo`llaniladigan o`qitish metodlari;** Taqdimot, baxs-munozara, savol-javob .

**Fanlararo bog`lanish;** rasm, chizmachilik, matematika, fizika, chizmachilik, iqtisodiy bilim asoslari va boshqa.

**Dars jihozi:** kompyuter, proyektor, ekran, slaydlar, texnologik xarita, asbob-uskunalar va moslamalar, buyum namunasi, xavfsizlik texnikasi qoidalari, sohaga oid kasb ko`yicha ko`rgazma materiallari.

### **Darsning borishi.**

#### **I. Tashkiliy qism.**

**II. So`rash.** O`tilgan dars mavzusi yuzasidan savol-javob o`tkazish, Yangi pedagogik va axborot texnologiyalarning qo`llagan holda o`quvchilar bilimini nazorat qilish. O`quvchilarning javoblarini umumlashtirib, yangi mavzu yuzasidan yo`l-yo`riqlar berish.

### **III. Yangi mavzu bayoni**

Reja:

1. Duradgorlik asboblariidan to`qmoq yasash bo`yicha umumiy tushuncha.
2. To`qmoqni yasashga oid eskiz, texnologik xarita tuzish.

#### **1. Duradgorlik asboblariidan to`qmoq yasash bo`yicha umumiy tushuncha.**

Yog`och to`qmoqlar o`quvchilar ustaxonalarda tanishadigan dastlabki asboblardan biridir. Yog`och to`qmoqning qo`llanish sohasi juda keng: ular yuqqa list metalga ishlov berishda ham, duradgorlik ishida ham (dastgoh va randalarni sozlashda, iskanalarni ishlatishda, detallarni yelimlab biriktirishda va h) juda kerakli asbobdir. Tunukasoqlar va duradgorlar yog`och va plastmassadan qilingan kallak shakli va kattaligi har xil bo`lgan to`qmoqlardan foydalanadilar. O`quv ustaxonalari sharoitida bunday xilma-xillikka zarurat yo`q. Yog`och (plastmassa) to`qmoqlarining o`lchamlari o`quvchilarning yosh imkoniyatlariga bog`liq, shakli esa bajariladigan jarayon shartlari bilan belgilanadi. Tajriba shuni ko`rsatadiki, metal va yog`och ishlari uchun o`quvchilar kallagi to`g`ri burchakli to`qmoqlardan foydalanishlari qulayroqdir. Duradgorlik ustaxonasida kallagi 120x60x35mm, 110x50x30mm o`lchamli yog`och to`qmoqlar kerak. Chilangarlik o`quv ustaxonalarida ham shunday to`qmoqlardan foydalanish mumkin. Ammo bu o`rinda kallagi plastmassa (tekstolit)dan tayyorlangan to`qmoqlar qulay. Ularning o`lchamlari yog`och to`qmoqnikidan kichikroq, kesimi taxminan 50x25mm, uzunligi 80-100mm. To`qmoqlarning gabarit uzunligi 250mm dan 300mm gacha oraliqda bo`lishi mumkin.

Maktab o`quv ustaxonalarida to`qmoqlarni o`quvchilarning o`zlari tayyorlaydilar. Ishning eng qiyin qismi – kallakda dasta uchun teshik ochishdir. Teshik bir yo`la yoki kallakning yarmigacha ochilishi mumkin. Bir yo`la ochilgan teshikda dasta pona va nagel yordamida, yarmigacha ochilgan teshikda pona va burama mix yordamida mahkamlanishi mumkin. Yopiq terishning chuqurligi 40-50 mm bo`ladi. Unga dasta quyidagicha mahkamlanadi: dastaning kallakka kiritiladigan uchida diogonal bo`yicha 35-40 mm chuqurlikda qiyin arralanadi. Unga yelim surtilgan pona burab kirgiziladi va dasta kallakka urib kiritiladi. Kallak yorilib ketishining oldini olish uchun dastaning kiritiladigan uchi teshikka nisbatan 1 mm ingichkaroq, qilinadi. Mazkur holatda butun og`irlik kallak to`qimalari bo`ylab tushadi. Bunday yo`nalishda yog`och katta pishshiqlikka ega bo`ladi.

Dasta kallakka taqab kiritilgandan keyin kallakning yon tomonidan kichik teshik parmalanadi, zenkovka qilinadi va burama mixni dastaga kiritadigan qilib burab kiritadi.

O`quvchilar tomonidan to`qmoqni tayyorlash ularga rejalash, arralash, randalash, parmalash ishlarini mashq qilish, oval teshik ochish usullaridan biri bilan tanishish, bolg`a va to`qmoqlar uchun dastalar randalash ketma-ketligi, agel yordamida mahkamlash, iskana bilan ishlash usullari bilan tanishish imkonini beradi.

O`quvchilar to`rtta mashg`ulotda to`qmoq tayyorlashga ulguradilar. Birinchi mashg`ulot eng murakkab va mas`ulyatli mashg`ulotdir. Bu mashg`ulotda o`quvchilar kallak tayyorlaydilar. Ish quyidagi izchillikda bajariladi: kesi kallak kesimiga teng bo`lgan bruslardan uzunligi 120 mm li zagotovkalar arralab olinadi.

Keyin zagotovkada teshik markazlari belgilandi va ular parmalanadi. Ishning eng mas'uliyatli qismi- teshiklar o'rtasidagi peremijkalarni iskana bilan qirqishdir. Bu mahsg'ulotlar davomida o'quvchilarda iskana bilan ishlash ko'nimalari yanada shakillanadi.

## 2. "To'qmoq" yasash uchun eskiz, texnologik xarita tuzish.

To'qmoq yasash uchun kerakli material tanlab olinadi. To'qmoq tuzulishi uch qismdan iborat: kallak, nagel va dasta. Ushbu qismlarni yasashda kallaj va nagel uchun qora qayin hamda dasta uchun oq qayindan foydalanish mumkin. To'qmoq qismlari texnologik xarita asosida tayyorlanadi. Tayyorlangan qismlarni yig'ish ketma-ketligi esa quyidagicha tartibda amalga oshiriladi:

1. Kallak dastaga o'rnatiladi.
2. Nagel uchun teshik randalanadi na parmalanadi.
3. Nagel teshikka urib kiritiladi.
4. To'qmoq jilvir qog'oz bilan tozalanadi, silliqilanadi va loklanadi.

**To'qmoq yasash uchun texnologik xarita**

| Ish ketma-ketligi  | Ish eskizi | Asbobi                            |                                | Jihoz va moslamalar                       |
|--|------------|-----------------------------------|--------------------------------|---|
|  |            | O'ichov                           | Ish                            |   |
| To'g'ri burchakli parallelepiped tayyorlash                  | Kallak<br> | chizg'ich, qalam                  | giralar, iskana                | Parmalash stanogi                         |
| 2 ta 12 mm diametrlil teshikni rejalash va parmash           |            | chizg'ich, qalam                  | giralar, iskana                | Parmalash stanogi, 12 mm diametrlil parma |
| Teshiklar orasidagi peremichkani qirqish.                    |            | chizg'ich, qalam, shtangentsirkul | dastarra, iskana               | dastgoh, yog'goch to'qmoq                 |
| O'icham va go'niyaga qarab randalash                         | Dasta<br>  | chizg'ich, qalam, go'niya         | dastarra, randa                | Mustaqil ravishda taniansin               |
| Qiyalikni rejalash va randalash                              |            | chizg'ich, qalam, go'niya         | randa                          | //-                                       |
| Faskalar-ni randalash  |            | chizg'ich, qalam, go'niya         | randa                          | //-                                       |
| Burchaklar-ni yumaloqlashtirish                              |            | chizg'ich, qalam, go'niya         | dastarra, randa, jilvir qog'oz | //-                                       |
| 12,5 mm li nagel zagatovkani randalash, teshik-dan o'tkazish | Nagel<br>  |                                   | jilvir qog'oz, cho'tka         | //-                                       |

- 1. Yangi mavzu yuzasidan o`quvchilar bilimini mustahkamlash:**
1. Duradgorlik asboblaridan to`qmoq yasashda uchun qanday xom ashyolardan foydalaniladi?
2. To`qmoq yasash eskizi, texnologik xarita tuzulishini tushuntirib bering.
3. To`qmoq yasash qanday asbob-uskuna va moslamalardan foydalaniladi?
4. Toqmoq yasash qanday ish usullaridan foydalaniladi?
5. Asbob-uskuna, moslamalardan foydalanishda qanday xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilinadi?
2. **Uyga vazifa berish.** “To`qmoq” yasash eskiz, texnologik xarita tuzulishini o`rganish va mustaqil ravishda to`moqning boshqacha ko`rinishlarini chizib kelish.
3. **Ish o`rnini yig`ishtirish.**



## 5-8-dars.

“Serviz xizmati” yo`nalishi uchun

|               |   |
|---------------|---|
| <b>Mavzu:</b> | <b>Bayram sovg`alari uchun suvenir yasash. NI-1</b> |
|---------------|---|

### Darsning maqsadi.

- a) *ta`limiy* - o`quvchilarga bayram savg`alari tayyorlashni o`rgatish;
- b) *tarbiyaviy* - o`quvchilarga savg`alarni yuqori badiiy-estetik did bilan tayyorlashni o`rgatish, ularda o`zbekona mehmonnavozlik xislatini rivojlantirish;
- v) *rivojlantiruvchi* - o`quvchilarda savg`a uchun buyum tayyorlash ishlarini bajarishda kerak bo`ladigan mehnat ko`nikmasini kengaytirish.

**Kasbga yo`naltiruvchi maqsad:** o`quvchilarning to`quvchilikka oid kasblar to`g`risidagi bilim, konikma va malakalarni rivojlantirish.

**Dars tipi:** Yangi bilimlar berish.

**Dars turi:** nazariy, amaliy.

**Darsda qo`llaniladigan o`qitish metodlari:** Taqdimot, bahs-munozara, savol-javob, “Klaster”, kichik guruhlarda ishlash.

**Fanlararo bog`lanish:** rasm, tasviriy san`at chizmachilik, matematika, fizika, iqtisodiy bilim asoslari va boshqa.

**Darsning jihozi:** tarqatma materiallar, kompyuter, proyektor, ekran slaydlar, to`qilgan ishlardan namunalari, ko`rgazmali qurollar, sabob-uskunalar.

### Darsning borishi.

#### I. Tashkiliy qism.

**II. So`rash.** O`tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o`tkazish.



#### III. Yangi mavzu bayoni.

Reja:

1. Lentalar, tasmalar va furnituradan foydalanib, bayram sovg`asi tayyorlash. Bayram sovg`asi uchun zaruriy xom ashyolar tanlash.
2. Bayram sovg`asi uchun suvenir yasash texnologiyasi.
3. “Savatda guldasta” bayram sovg`asi uchun suvenir yasash texnologiyasi.
4. Asbob-uskuna, moslamalardan foydalanishda xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablari.
5. Ish o`rnini tashkil etish va yig`ishtirish.

Lentalar, tasmalar va furnituradan foydalanib, bayram sovg`asi tayyorlash. Amaliy mashg`ulot uchun kerakli jihozlar: sovun yoki bo`sh idishlar ( har xil gel idishlar, chokokrem idishlar), bulafka, sm lenta.

1. Sovun - 1 ta.
2. Lenta, eni 1 sm - 4 metr.
3. Guli uchun lenta - 1 metr.
4. Sim - 20 - 25sm.
5. Bulafka - 40-50 ta.



Sovg`a 2 usulda to`qiladi: a) oddiy to`qish; b) krest usulida to`qish.

Oddiy to`qilish. Lantani bir uchi bulafka bilan sovuning ustiga mahkamlanadi. So`ng sovuning tagiga lentani tushirib bulafka bilan mahkamlanadi. Shunday qilib atrofini lenta bilan o`rab chiqiladi. So`ng har bir bulafkani lenta bilan 2 qator aylantirib o`rab chiqiladi. Bandi sifatida simning uchiga lenta bog`lanadi.

### III. Dars yakuni.

1. Yangi mavzu yuzasidan o`quvchilar bilimini mustahkamlash.
2. Uyga vazifa berish. Mustaqil biror sovg`a tayyorlab kelish.
3. Ish o`rnini yig`ishtirish.

## 9-10 dars.

“Texnologiya va dizayn” yo`nishi uchun.

|   |
|---|
| <b>Mavzu: Mebel jihozlari uchun dasta (uchlag`ich) yasash</b> |
|---|

### Darsning maqsadi:

- a) *ta`limiy*- o`quvchilarga mebel jihozlari uchun dasta (ushlag`ich) yasashni o`rgatish;
- b) *tarbiyaviy*- o`quvchilarga uy jihozlaridan, jumladan mebellardan joydalanishda ehtiyotkorona munasabatda bo`lishni o`rgatish;
- v) *rivojlantiruvchi*- o`quvchilarning uy jihozlarni ta`mirlashga oid mehnat ko`nikmalarini kengaytirish.

**Kasbga yo`naltiruvchi maqsadi:** o`quvchilarni duradgorlikka oid kasblar to`g`risidagi bilim va ko`nikmalarini rivojlantirish.

### Darsning vazifalari;

- dasta yasash uchun texnologik xarita tayyorlash to`g`risida ma`lumot berish;
- dasta tayyorlashda bajariladigan ish usullari, foydalaniladigan asbob-uskunalar va moslamalar bilan tanishtirish;
- asbob-uskunalar va moslamalardan foydalanganda xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilishni uqtirish;
- sohaga oid kasblar bo`yicha ma`lumotlar berish:

**Dars tipi:** Yangi bilimlar berish.

**Dars turi:** amaliy

**Darsda qo`llaniladigan o`qitish metodlari:** Taqdimot, bahs- munozara, savol-javob.

**Fanlararo bog`lanish:** chizmachilik, rasm, matematika, fizika, iqtisodiy bilim asoslari va boshqa.

**Dars jihozi:** kamyuter, proyektor, ekran, slaydlar, dastaning texnologik xaritasi, asbob-uskunalar va moslamalar, xavfsizlik texnikasi qoidalari, sohaga oid kasb bo`yicha ko`rgazma materiallari.

### Darsning borishi:

#### I. Tashkiliy qism.

**II. So`rash.** O`tgan dars mavzusi yuzasidan savol-javob o`tkazish, Yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo`llagan holda o`quvchilar bilimini nazorat qilish. O`quvchilarning bergan javoblarini umumlashtirib, yangi mavzu yuzasidan yo`l-yo`riqlar berish.

#### III. Yangi mavzu bayoni.

Reja:

1. Mebellar uchun ishlatiladigan xamoshyo va boshqa materiallar.
2. Dastaning texnologik xaritasini tuzish va yasash.

**1. Mebellar uchun xomashyo va boshqa materiallar.** Har bir oilada turli xil mebellar bo`lib, ulardan inson o`z ehtiyoji uchun doimiy ravishda foydalanadi. Odatda bu mebellar yasalgan materialining turiga ko`ra farqlanadi, Sifatli xomashyo materiallardan yasalgan mebellardan uzoq vaqt foydalanish imkoniyati

mavjud. Ikkinchi tomondan esa bu foydalanuvchining mebelni qanday ravishda tutishiga ham bog`liq.

Mebellar yasashda asosan yog`och materiallaridan foydalaniladi. Bilamizki, yog`och materiallari asosan ikki xil – ninabargli va yaproqli daraxt yog`chlaridan iborat.

Ninabargli daraxtlardan **qarag`ayning** fizik-mexanik xossalari juda yuqori bo`lib, qurilishda, ko`prik, kema, vagon, mashina va samalyotsozlikda hamda mebel sanoatida keng ishlatiladi. **Tilog`och** – qurilishda, yer osti inshootlarida, vagonsozlikda, mebel va parket ishlab chiqarishda ishlatiladi. **Kedrning** mexanik xossalari qora va oq qarag`ay orasida bo`lsada, chirishga chidamliligi jihatidan ulardan yuqori, rangi va teksturasi chiroyli. Qalam ishlab chiqarishda, duradgorlikda va mebelsozlikda ishlatiladi.

Yaproqli daraxtlardan **eman** yog`chining mustahkamligi va qattiqligi yuqori, chirishga chidamli, egila oladigan, teksturasi chiroyli, duradgorlik va mebelsozlikda, faner va parket ishlab chiqarishda, vagon, kema va mashinasozlikda ishlatiladi. **Shumtol** yog`ochining mustahkamligi va qayishqoqligi yuqori bo`lib, yaxshi egiladi, yorilmaydi va tabiiy guli emanga o`xshab ketadi. Mebelsozlikda faner (shpon) ishlab chiqarishda qo`llaniladi. **Oq qayin** daraxtining po`stlog`i oqish, yupqaroq keksayganda qatlam-qatlam bo`lib yoriladi, shpon, faner, DSP, chang`i va mebel ishlab chiqarishda ishlatiladi. **Qoraqayin** yog`ochining mustahkamligi yuqori, tabiiy guli chiroyli, lekin chirishga chidamsiz, yaxshi egiladi. Mebel, shpon, parket ishlab chiqarishda, musiqa asboblari va sport anjomlari tayyorlashda ishlatiladi. **Zarang** yog`ochining mexanik xossalari emandan yuqori, yaxshi pardoatlanadi, tabiiy guli juda chiroyli, randalangan faner, qimmatbaho mebel tayyorlashda va mashinasozlikda ishlatiladi. **Qandag`och** yog`ochi yumshoq, yengil, oson ishlanadi, namga chidamli, bo`yoqni yaxshi oladi, ishlov berish oson, lekin tez qurt yeydi, arzon mebellar, faner va taralar tayyorlanadi. **Tog` teragi** yumshoq va yengil, namga chidamsiz, faner, gugurt, yashiq, tokorlik buyumlari, oddiy va arzon mebellar tayyorlanadi. **Chinor** yog`ochi pishiq, puxta, qattiq, ishlov berish qiyin, tabiiy guli chiroyli, yaxshi pardoatlanadi, randalangan faner, parket va qimmatbaho mebel tayyorlash mumkin. **Nok** yog`ochi mag`izsiz, qizg`ish-ko`ng`ir yoki pushti ranglarda bo`lib, qattiq va mo`rt, tabiiy guli juda chiroyli, faner va mebel tayyorlashda, pardoqlash ishlarida ishlatiladi.

Yog`och xomashyosi hamma vaqt yuqori navli, sifatli, ishlatish uchun yaroqli bo`lavermaydi. Shuning uchun yog`och taxtalarga ishlov berishda ulardagi nuqsonlar: butoqlar, chirigan joylari, hashoratlar bilan shikastlangan qismi yoriqlar, kozlar, tabiiy rangini buzulishi, yog`ochning ustki qismining shikastlanishi, ichki qatlamning shilastlanishi, yog`och qoplaminig chuqur shikastlanishi, yog`och qoplaminig teshib chiqishi kabilar to`g`irlansa, yog`ochdan unumli foydalanish mumkin.

## 2. **Dastaning texnologik xaritasini tuzish va yasash.**

Mebel jihozlari uchun dastaning turli ko`rinishlari mavjud bo`lib, ularni yog`och va metal materiallardan tayyorlash mumkin. Quyida mebel jihozlari uchun oddiy ko`rinishdagi ushlag`ichning texnologik xaritasi keltirilgan.

### **III. Dars yakuni:**

**1. Yangi mavzu yuzasidan o`quvchilar bilimni mustahkamlash:**


1. Mebellar uchun dasta tayyorlashda qanday yog`ochlardan foydalaniladi?
2. Yog`och materiallar asosan necha xil bo`ladi?
3. Dastaning texnologik xaritasi tuzilishini tushuntirib bering.
4. Dastalardan qanday maqsadlarda foydalaniladi?
5. Asbob-uskuna, moslamalardan foydalanishda xavfsizlik texnikasi qoidalari talablarini bilasizmi?

**Mebellar uchun dasta tayyorlash texnologik xaritasi**  
(1-misol)



| T.r | Ish ketma-ketligi                             | Ish eskizi | Asboblari                |               | Jihoz va moslamalar                     |
|-----|---|------------|--------------------------|---------------|---|
|     |   |            | O`lchov                  | Ish           |   |
| 1   | Dasta uchun mos yog`och tanlash               |            | chizg`ich, qalam         | arra, randa   | Parmalash va TSD-120 tipidagi stanoklar |
| 2   | O`lchamlar olish                              |            | chizg`ich, qalam, goniya | arra, randa   | -//-                                    |
| 3   | Ichki qismlarini arralash va randalash        |            | chizg`ich, qalam, goniya | arra, randa   | -//-                                    |
| 4   | Teshiklar o`mini hosil qilish                 |            | chizg`ich, qalam         | arra, randa   | -//-                                    |
| 5   | Teshiklarga jilvir qog`oz bilan ishlov berish |            | chizg`ich, qalam         | jilvir qog`oz | parma                                   |

**Mebellar uchun dasta tayyorlash texnologik xaritasi**  
(2-misol)



| T.r | Ish ketma-ketligi                          | Ish eskizi | Asboblar                 |                                    | Jihoz va moslamalar                    |
|-----|--|------------|--------------------------|------------------------------------|--|
|     |  |            | O'lchov                  | Ish                                |  |
| 1   | Zagatovka tayyorlash                       |            | chizg'ich, qalam, goniya | arra, randa                        | Parmlash va TSD-120 tipidagi stanoklar |
| 2   | Silindri yo'nish va qirqib qo'yish         |            | chizg'ich, qalam, goniya | arra, randa, iskana                | -//-                                   |
| 3   | Shipni yo'nish                             |            | chizg'ich, qalam, goniya | arra, randa, iskana                | -//-                                   |
| 4   | Faska ochish va dasta oyoqchasi ni yo'nish |            | chizg'ich, qalam, goniya | arra, randa, iskana                | -//-                                   |
| 5   | Dasta kallagini yo'nish                    |            | chizg'ich, qalam, goniya | arra, randa, iskana, jilvir qog'oz | -//-                                   |

2. **Uyga vazufa berish.** Mebellar uchun dasta yasash, uning texnologik xaritasi tuzilishini o'rganish.
3. **Ish o'rnini yig'ishtirish.**  
9-10- mahsg'ulot. "Serviz xizmati" yo'nalishi uchun.

## 5-8- dars. “Texnologiya va dizayn” yo`nalishi uchun.

|               |   |
|---------------|---|
| <b>Mavzu:</b> | <b>Xalq hunarmandchiligi bo`yicha ko`rgazma va tanlovlarni tashkil qilish va ishtirokchilarni tanlash qoidalari</b> |
|---------------|---|

### Darsning maqsadi:

a) *ta`limiy* - o`quvchilarga xalq hunarmandchiligi bo`yicha ko`rgazma va tanlovlarni tashkil etish hamda o`tkazish haqida tushuncha berish;

b) *tarbiyaviy* - xalq hunarmandchiligi bo`yicha turli tadbirlar o`tkazish orqali o`quvchilarda o`zaro hurmat va madaniyat qirralarini teranroq hish qilishga o`rgatish;

v) *rivojlantiruvchi* - o`quvchilarni jamoatchilik ishlariga o`rgatish, ularga hunarmandchilik ishlarining mohiyatini kengroq tushuntirish.

**Kasbga yo`naltiruvchi maqsad:** o`quvchilarning xalq hunarmandchiligi sohasiga oid qiziqishlarni o`stirish, maskur sohalarga oid biror kasbni egallashlariga yordam berish.

### Darsning vazifasi:

- xalq hunarmandchiligi bo`yicha o`tkaziladigan turli ko`rgazma va tankovlar haqida tushuncha;
- turli ko`rgazma va tankovlarni tashkil etish hamda o`tkazish shartlari, sharoitlari;
- o`quvchilarni bunday tadbirlarga jalb etish.

**Dars tipi:** Yangi bilimlar berish.

**Dars turi:** nazariy.

**Darsda qo`llaniladigan o`qitish metodlari:** tushuntirish, suhbat.

**Fanlararo bog`lanish:** rasm, chizmachilik, tasviriy san`at, ona tili va adabiyot, tarix va b.

**Dars jihozi:** kompyuter, proyektor, ekran, slaydlar, tadbirlar rejasi, ko`rgazmali materiallar.

### Darsning borishi:

#### I. Tashkiliy qism.

**I. So`rash.** O`tgan dars mavzusi yuzasidan savol-javob o`tkazish, Yangi pedogogik va axborot texnologiyalarini qo`llagan holda o`quvchilarning bilimni nazorat qilish. O`quvchilarning bergan javoblarini umumlashtirib, yangi mavzu yuzasidan yo`l-yo`riqlar berish

#### II. Yangi mavzu bayoni

Reja:

1. Xalq hunarmandchiligi bo`yicha ko`rgazma va tanlovlarni tashkil etish tartibi.
2. Mamlakatimizda an`anaviy xalq hunarmandchiligi bo`yicha tashkil etilayotgan ko`rik tanlovlar va grantlar.

**Xalq hunarmandchiligi bo`yicha ko`rgazma va tanlovlarni tashkil etish tartibi.** Keyibgi yillarda iqtidorli yoshlarni aniqlash va rag`batlantirish maqsadida mamlakatimizda turli xil tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Masalan, “Kelajal ovozi”, “Mehr nuri” jamg`armalari o`tkazayotgan ko`rik-tanlovlar shular

jumlasidandir. Katta yoshdagi tadbirkorlar, ishbilarmonlar va hunarmandlar uchun esa “Tahsabbus” ko`rik-tanlovi o`tkazib kelinmoqda.

Bunday tadbirlarni maktab miqyosida yoki bir necha maktablar ishtirokida ham o`tkazish mumkin. Quyida mana shunday tadbirlardan birini o`tkazish bo`yicha tavsiyalar berilgan.

### **“Yigit husni-hunar” mavzusida ko`rik-tanlovni tashkil etish**

#### **NIZOMI**

**Ko`rik-tanlovning maqsadi:** o`quvchilarga an`anaviy xalq hunarmandchiligi turlarini o`rgatish orqali ularni kasb-huarga yo`llash milliy xalq hunarmandchilik an`analari bilan tanishtirish, tadbirkorlik va kasanachilik faoliyatiga yo`llash.

#### **Ko`rik- tanlovning vazifalari:**

- o`quvchilarning mamlakatimizda yoshlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar va ta`lim sohasida olib borilayotgan ishlar mohiyatini naqadar teran anglayotganliklarini aniqlash hamda ularda mana shu serqirra jarayonni o`quvchi-yoshlar o`z o`rnida his etishi, amalga oshirilayotgan ezgu ishlarning hayotbaxsh ta`siri haqida mustaqil fikrlarini amaliy ifoda eta olish ko`nikmalarini shakllantirish;

- umumiy o`rta ta`lim maktab o`quvchilarining mehnat ta`limi fanidan

Davlat ta`lim standarti va o`quv dasturi talablarini qanday ozlashtirayotganliklarni darajasini aniqlash;

- “Mustaqillik menga nima berdi, deb emas, balki men mustaqil yurt uchun qanday ishlarni amalga oshirdim” iborasini nechog`li tushunganliklarni aniqlash;

- Xalq hunarmandchiligi bo`yicha buyumlar tayyorlashda o`zbek xalq hunarmandchiligi san`atining miiliy an`analaridan maqsadga muvofiq foydalanish;

- Xalq hunarmandchiligi bo`yicha ish usullarini o`rgatish va bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan buyumlar tayyorlash texnologiyasini o`rgatish;

- O`quvchilarni qobiliyat darajasi va shaxsiy qiziqishlarini hamda xalq hunarmandchiligiga oid kasb-hunarlariga yo`naltirish.

#### **Ko`rik-tanlovni tashkil etish bosqichlari:**

Birinchi bosqichda ko`rik tanlovga qatnashuvchi o`quvchilar va ularning xalq hunarmandchiligi bo`yicha tanlagan yo`nalishlari ro`yxatga olinadi (anketa asosida, ilovaga qarang).

Ikkinchi bosqichda o`quvchilarning xalq hunarmandchiligi bo`yicha bilimlari sinovdan o`tkaziladi ( o`quvchilarning bilim darajalari sinflar kesimida savol-javob, tast va boshqa usullar asosida sinovdan o`tkaziladi).

Uchinchi bosqichda o`quvchilarning ko`rik-tanlov uchun topshirgan ishlari hakamlar hay`ati tomonidan ko`rib chiqiladi va baholash mezonlari asosida baholanadi.

To`rtinchi bosqichda o`quvchilarga tanlagan xalq hunarmandchiligi yo`nalishlari bo`yicha ijodiy ish topshiriqlari beriladi. Bajarilgan ijodiy ish topshiriqlari hakamlar hay`ati tomonidan korib chiqiladi va baholash mezonlari asosida baholanadi.

Xalq hunarmandchiligi bo`yicha ko`rik-tanlovni tashkil etish muddati va shartlari maktab ma`muriyati tomonidan belgilanadi.



## Ko'rik-tanlov bo'yicha bajarilgan ishlarni baholash mezonlari

| t.r  | Birinchi, ikkinchi va uchinchi bosqichlar bo'yicha  | 50 ball |
|--|---|---------|
| 1  | Ko'rik-tanlov anketasini tanlagan ijodiy g'oyasi asosida to'ldirilganligi uchun             | 10 ball |
| 2  | Xalq hunarmandchiligi bo'yicha o'zlashtirilgan bilim darajalari uchun                       | 15 ball |
| 3  | Ko'rik-tanlov uchun topshirgan ijodiy ishlari uchun   | 25 ball |
| <b>o'rtinchi bosqich (tanlangan xalq hunarmandchiligi yo'nalishlariga oid ijodiy ish topshiriqlari) bo'yicha</b> |   | 50 ball |
| 1  | Amalga oshirilgan ishning mavzuga mutanosibliigi  | 5 ball  |
| 2  | Ish o'rnini to'g'ri tashkil qilinishi   | 10 ball |
| 3  | Buyumninig texnologik xaritasini tuzilganligi va ish ketma-ketligini to'g'ri bajarilganligi | 15 ball |
| 4  | Tayyorlangan buyum dizaynining o'ziga xosligi   | 10 ball |
| 5  | Xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilinganligi  | 10 ball |

### Hakamlar hay'ati faoliyati va tanlov mezonlari

Ko'rik-tanlov ishlarini baholash uchun tuman (shahar) xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodlik ta'minlash va tashkil etish bo'limlari mehnat ta'limi fani yo'nalishi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan, o'z sohasining bilimdoni, hurmat-e'tbarga sazovar bo'lgan o'qituvchi, pedagoglardan iborat hakamlar hay'ati tuziladi. Ularning tarkibiga maktablarning eng tajribali mehnat ta'limi fani o'qituvchilari kiritiladi va har bir bosqichda maktabda maktab direktorining, tumanda tuman xalq ta'limi bo'limining, viloyatda viloyat xalq ta'lim boshqarmasining maxsus buyruqlari bilan tasdiqlanadi.

Tanlovga taqdim etilgan har bir ish uchun alohida baholash varaqalari to'ldiriladi, hakamlar hay'ati tomonidan imzolanib, rasmlar bilan birga tanlovning keyingi bosqichiga taqdim etiladi.

### G'oliblarni mukofotlash

Ijodiy ishlar tanlovining barcha bosqichida 1 ta birinchi, 1 ta ikkinchi 1 ra uchinchi o'rin ta'sis etilib, 1,2,3-o'rinlarni egallagan g'oliblar maktab, tuman,(shahar) viloyat xalq ta'limi bo'limlarining faxriy yorliqlari va qimmatli sovg'alari bilan mukofatlanadilar.

Tanlovning viloyat bosqichi g'oliblariga va ularning o'qituvchilariga ota-onalar, xomiylar, tegishli tashkilot vakillari tomonidan qimmatli tuhfarlar taqdim etiladi. Eng yaxshi ijodiy ishlar mualliflari haqida ma'lumotlar mahalliy matbuot sahifalarida chop etiladi.

Ko'rik- tanlovning bevosita yakuniy bosqichini o'tkazish Viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi tomonidan tasdiqlangan hakamlar xay'ati zimmasiga yuklatiladi, Hakamlar hay'ati tarkibi ko'rik-tanlovi o'tkazilishidan bir kun oldin tayinlanadi.

**Izoh:** ushbu ko'rik- tanlov nafaqat maktablarda balki, tuman, viloyat va respublika miqyosida ham o'tkaziladi.

Ko`rik-tanlov mezonidan “Servis xizmati” yo`nalishida ham foydalaniladi va xaqq hunarmandchiligining “Quroqchilik”, “Kashtachilik”, “Zardo`zlik”, “Doppido`zlik” va boshqa sohalar bo`yicha tanlovlar tashkil etiladi.

## **2. Mamlakatimizda an`anaviy xalq hunarmandchiligi bo`yicha tashkil etilayotgan ko`rik tanlovlar va grantlar**

An`anaviy hunarmandchilikni rivojlantirish uchun grantlar “ Bazar-Art” loyihasi doirasida Fond Forum va “ Mehr nuri” jamg`armasi ko`rgazmasi laureatlariga aylangan hunarmandlarga grantlar ajratildi.

Grantlar amaliy san`atni rivojlantirish, hunarmandchilikning yo`qalib borayotgan turlarini va mamlakatimiz san`atining an`anaviy shakllarini qayta tiklashdir. Mazkur an`anaviy dastur o`z ishini yo`lga qo`yish, oilaviy farovonlik yo`lida tadbirkorlikka qo`l urish istagidagi ayollarni qo`llab-quvvatlashga qaratilgan. Tanlovda mazkur grant yordamida tadbirkorlik faoliyatini boshlash niyatida bo`lgan ayollar ishtirok etishi mumkin.

Nomzodlar taqdim etgan biznes-reja da`vogarning ishbilarmonlik xususiyatlari, loyihaning dolzarbligi va aniq maqsadidan kelib chiqqan holda malakali hakamlar hay`ati tomonidan saralanadi. Oilaviy biznes va kasanachilikni rivojlantirishga qaratilgan loyihalarga alohida e`tibor beriladi. Shuningdek, tadbirkorlik ko`nikmalari va yangiliklar joriy etish istagi hamda loyihani yolg`iz amalga oshirishdagi qiyinchiliklar inobatga olinadi. Tanlovda ishtirok etish uchun quyidagi hujjatlar topshirilishi lozim: ishtirokchi anketasi (2-ilova); biznes- reja; pasport-nusxasi; mahalla qo`mitasi dan tavsiyanoma. Hujjatlar har yili 1 martdan 1 maygacha qabul qilinadi.

## 11-12-dars. "Servis xizmati" yo`nalishi uchun.

|               |   |
|---------------|---|
| <b>lavzu:</b> | <b>Bluzkani bichish va tikish. NI-2</b> |
|---------------|---|

### Darsning maqsadi:

- a) *ta`limiy* - o`quvchilarga bluzkani bichish va tikishni o`rgatish;
- b) *tarbiyaviy* - tikuvchilik ishkarida o`quvchilarni sabrli bo`lishga, go`zllikni his etishga undash;
- v) *rivojlantiruvchi* - o`quvchilarda hunarmandchilikning zamonoviy texnologiyalarini o`rganib, amaliyotda qo`llashni tarkib toptirish.

**Kasbga yonaltiruchi maqsadi:** o`quvchilarning tikuvchilik buyumlarini tayyorlash haqidagi ko`nikmalarini kengaytirish.

- tikuvchilik ishlari haqida ma`lumot berish;
- ayollar kiyimlari haqida ma`lumot berish;
- bluzka turlari va ularni tikishni o`rgatish

**Dars tipi:** yangi bilimlar berish.

**Dars turi:** nazariy, amaliy.

**Darsda qo`llaniladigan o`qitish metodlari:** tushuntirish, suhbat, amaliy ish, taqdimot.

**Fanlararo bog`lanish;** matematika, fizika, chizmachilik, iqtisodiy bilim saoslari va b.

**Darsning jihozi:** tarqatma materiallar, kompyuter, proyektor, ekran, slaydlar, tikuv buyumlari, bluzkalardan namunalar, ko`rgazmali qurollar, asbob-uskunalar.

**Darsning borishi:**

- I. **Tashkiliy qism.**
- II. **So`rash.** O`tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o`tkazish
- III. **Yangi mavzu bayoni**



**Reja:**

1. Bluzka haqida ma`lumot.
2. Ayollar bluzkasini loyihalash.
3. Bluzka andozasi va bluzka assortimenti.

Bluzka yengil kiyim hisoblanib, yelkali kiyimlar turiga kiradi. Kiyimlar assortimentiga ko`ra, bluzka, bluzka-jemper, bluzka-batniklari kabi turlari mavjud. Ayollar bluzkasini loyihalash xuddi ko`ylakni loyihalash usulidek bajariladi, lekin buyum uzunligida farqi bo`ladi. Agar bluzkani yupka ustidan chiqarib kiyilsa, uning beldan uzunligi 10-15sm yoki bo`ksadan bir oz uzunroq bo`lishi, bluzkani yupkaning ichiga kirgizib kiyiladigan bo`lsa, bo`ksa chizig`idan 5-7sm uzunlikda bluzka uzunligi olinadi. Bluzka yuqorigacha taqiladigan yoki bo`rtlari qaytarilgan bo`lishi mumkin. Bluzkani bel vitochkalarisiz to`g`ri, ya`ni kokrak chizig`i bilan bo`ksa chizig`ini birlashtirib to`g`ri va vitochkaliqilib loyihalasah mumkin. Bluzkani loyihalashda uning taqilmasiga e`tibor berish kerak. Bluzka taqilmasida adipi yaxlit

bo`lsa, avval uning o`tim haqi 2-3sm, so`ngra adip haqi  $2,5 \times 2 + 1,5 = 6,5$ sm qo`yiladi. Bluzka taqilmasida adip alohida bo`lsa, o`tim haqi 2-3sm, so`ngra bort adipini tikish uchun chok haqi 0,5sm qo`shiladi, ya`ni  $2,5 + 0,5 = 3$ sm. Bluzka taqilmasida yaxlit plankali ishlatilsa, u holda o`tim haqi 2 baravar ko`p olinadi, ya`ni  $2,5 \times 2 + 2 = 7$  sm.

Bluzkadan oilaviy tantanalarda: bluzka bilan yupka yoki bluzka bilan shim bilan birga kiyish mumkin. Uyda ishlash kiyimi komplektlari nihoyatda bemaol harakat qilishga xalaqit bermaydigan bo`lishi kerak. Buning uchun trikotaj maykalar, sviterlar bilan shim yoki gavidaga yopishib turmasligi uchun qo`yimi ko`paytirilgan bluzkalar kiyish yaxshi hisoblanadi. Quyida o`quvchilar amaliy mashg`ulot davomida mustaqil ishlashlari uchun bluzka andozalaridan namunalar va turli xil bluzka assortimentlari keltirilgan.



### **III. Dars yakuni:**

#### **1. Yangi mavzu yuzasidan o`quvchilar bilimini mustahkamlash.**

1. Bluzka andozasini gazlama ustiga joylashtirishni tushuntirib bering
2. Bluzkani bichish va qirqimlarga ishlov berishni bilasizmi?
3. Bluzkani tikish texnologik jarayoni to`g`risida nimalarni bilasiz?
4. Asbob-uskuna, moslamalardan foydalanishda sanitariya-gigiyena talablarini bilasizmi?

**3. Ish o`rnini yig`ishtirish. 2. Uyga vazifa berish.** Mustaqil ravishda bluzka andozasini tayyorlash va bluzka tikish. Yangi mavzuni takrorlash.

## 9-14-dars.

“Texnologiya va dizayn” yo`nalishi uchun.

|               |   |
|---------------|---|
| <b>Mavzu:</b> | <b>Amaliy mustaqil ishlar: Xalq hunarmandchiligining tanlangan yo`nalishi bo`yicha zamonaviy dizayn talablari bilan uyg`unlashtirilgan mahsulot tayorlashdagi ish usullarini egallash</b> |
|---------------|---|

### **Darsning maqsadi:**

a) ta`limiy – o`quvchilarga xalq hunarmandchiligi sohalari bo`yicha turli buyumlar tayyorlashni o`rgatish;

b) tarbiyaviy – o`quvchilarda sabrlik, go`zallikni his qilish xislatlarini rivojlantirish;

v) rivojlantiruvchi – o`quvchilarning xalq hunarmandchiligiga oid buyumlarini yasash ko`nikmalarini rivojlantirish.

**Kasbga yo`naltiruvchi maqsad:** o`quvchilarni xalq hunarmandchiligi sohasiga oid kasblar bo`yicha bilim va ko`nikmalarini kengaytirish orqali ularni shu sohaga oid kasblarga yanada qiziqtirish, shu sohaga oid biror kasbni tanlashlariga yordam berish.

### **Darsning vazifalari:**

- o`quvchilarning xalq hunarmandchiligi sohasidagi bilimlarini kengaytirish

- xalq hunarmandchiligida ishlatiladigan asbob-uskunalar va qo`llaniladigan ish usullari haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish;

- ma`lum bir hunarmandchilikga oid buyumlar tayyorlashga oid mehnat ko`nikmalarini kengaytirish.

**Dars tipi:** Yangi bilimlar berish.

**Dars turi:** amaliy.

**Darsda qo`llaniladigan o`qitish metodlari:** Taqdimot, bahs-munozara, savol-javob, amaliy ish.

**Fanlararo bog`lanish:** rasm, tasviriy san`at, chizmachilik, matematika, fizika, iqtisodiy bilim asoslari va b.

**Darsning jihozi:** kompyuter, proyektor, ekran, slaydlar, Xalq hunarmandchiligiga oid turli buyumlar, ularni tayyorlashga oid texnologik xaritalar, asbob-uskunalar va moslamalar, xavfsizlik texnikasi qoidalari, sohaga oid kasb bo`yicha ko`rgazmali materiallar.

### **Darsning borishi:**

#### **I. Tashkiliy qism.**

**II. So`rash.** O`tgan dars mavzusi yuzasidan savol-javob o`tkazish, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo`llagan holda o`quvchilar bilimini nazorat qilish. O`quvchilarning bergan javoblarini umumlashtirilib, yangi mavzu yuzasidan yo`l-yo`riqlar berish.

#### **III. Yangi mavzu bayoni.**

Reja:

1. Yog`och o`ymakorlik san`ati.

2. Yog`och o`ymakorligida qo`llaniladigan asboblari va mahsulot tayorlashdagi ish usullari.

**1. Yog`och o`ymakorlik san`ati.** Yog`och o`ymakorligi o`zbek xalq amaliy bezak san`atining keng tarqalgan bir turi bo`lib, bunda biror naqsh yoki tasvir taxta yoki yog`och buyumlarga chizib, kesib o`yib ishlanadi. Badiiy san`atning bu turi deyarli barcha xalqlarda bo`lib, qadimgi Sharqda antik dunyo mamlakatlari arxitekturasida keng ishlatilgan. Asrlar davomida Evropa va Osiyo mamlakatlarida yog`och oymakorligi rivojlanib, o`ziga xos badiiy uslublari kelib chiqqan. Shu singari O`rta Osiyoda ham yog`och o`ymakorligi qadimdan rivojlanib, kishilarning uy-ro`zg`or buyumlarida va arxitekturasida juda keng qo`llanilgan. Bu o`ymakorlik qadimiy arxitekturaning eshik, darvoza, ustunlar har xil to`sin, stol, xontaxta, quticha, romcha, qalamdon va boshqa buyumlarni bezashda ishlatilib kelingan V-VI-asrlarga oid yog`och o`ymakorligi namunalari Surxondaryo vohasidagi Yumaloq tepa tubidan topilgan. Olimlarimizning aniqlashicha bundan 1-1,5 ming yil muqaddam mazkur joyda naqsh o`ymakorligi san`ati bo`lib, u juda yaxshi rivojlanganligi isbotlangan. XIX va XX-asrdagi yog`och o`ymakorligi, miskarlik, naqqoshlik va san`atning boshqa turlari rivojlanib har bir shaharning o`ziga xos yog`och o`ymakorligi paydo bo`ldi. Qo`qondagi xudayorxon saroyi, Toshkentdagi knyaz N.Kramonovlarning saroyi, Quvadagi Zayniddinboyning uyi, Marg`ulondagi Saidahmatxo`ja madrasasi va Buxoradagi Sirorai Mohi-Xosa va boshqalarda yog`och o`ymakorligining o`ziga xos namunalari yaratilgan. Shunday ekan, yog`och o`ymakorligida duradgorlikni bilmasdan turib o`ymakorlikni tushunib yetish qiyin. Chunki xar bir o`ymakor usta oyiladigan buyum detallarini alohida tayyarlab, ya`ni detalni o`lchab, arralab randalab tayyarlaydi. O`quvchilar yog`ochga ishlov berish sohasidagi xalq hunarmandchiligida duradgorlik kasbidan xabardor bolishi va shu kasbda ishlatiladigan asboblarni bilishlari lozim. Duradgorlik kasbi shunday kasblardanki, bunchalik xalq turmishiga singib ketgan kasblar kam topiladi. Duradgor yasagan buyumlar har bir xonodonda ko`plab topiladi. Shuning uchun bu kasb o`quv pretmetiga aylani, har bir o`quvchilar uyi va saroylarida, maktablarida va oliy o`quv yurtlarida o`qitilib, o`rgatilib kelinmoqda. Bundan tashqari naqqoshlik, beshikchilik va sandiqchilik kasblari ham xalq orasida keng tarqalgan kasblardan hisoblanadi.

Yog`och o`ymakorligi ishlarini o`rganish jarayonida o`quvchilar quyidagi ustaxona xavfsizligi texnikasi va yong`in xavfsizligi qoidalariga amal qilishlari lozim. Yog`och o`ymakorlik ustaxonasi binoning birinchi qavatida joylashishi, unga yorug`lik yaxshi tushib turadigan bo`lishi kerak. Ustaxonaning yarim podval yoki podvalga joylashishi gigienik nuqtai nazardan qat`iyan man qilinadi. Ustaxona uchun qo`yiladigan maxsus talablardan biri- unga tabiiy yorug`lik yaxshi tushishi, xona isitilishi va shamollatilishi kerak. Eng muhimi, ustaxonada xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilish kerak. Ustaxonada yong`in xavfsizligiga alohida e`tibor berish lozim, chunki, yog`ochdan chiqqan qirindilar tez yonad. Shuning uchun elektr isitgich asboblari uchun maxsus belgilangan joy bo`lishi lozim. Ustaxona o`t o`chirish moslamalari (inventarlari) bilan jihozlanishi zarur.


Yog`och o`ymakorlik ustaxonasida ishlaganda quyidagilarga e`tibor berish lozim:

1. Ish boshlashdan oldin ish kiyimlarini to`g`ri kiyib, ularning tugmalarini qadab olish.
2. Ishlayotganda kerakli yag`ochni dastgohga mahkamlab, uning mustahkamligini tekshirib ko`rish.
3. Kesuvchi asboblarning tig`ini tekshirish, agar o`tmas bo`lsa o`tkirlash.
4. Arra bilan ishlaganda gaplashmasdan, hushyorlik bilan ishlash.
5. Randa bilan ishlaganda randaning sozligini tekshirish.
6. Yelim tayyorlashda, uni eritishda elektr asboblaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanish.
7. Ishdan keyin qolgan materiallar va tugatilmagan ishlarni navbatchiga topshirish.
8. Asboblarni artib, tozalab joyiga qo`yish.
9. Ish dastgohlarini qirindi-payrahalardan tozalashda maxsus cho`tka-lardan foydalanish.
10. Ustaxonada tibbiyot aptechkalarni bo`lishi shart.

Agar biror o`quvchining qo`li kesuvchi asboblar bilan jarahotlanib, qon ketayotgan bo`lsa, uni to`xtatish uchun jarohatlangan joyni yuqori qismidan bog`lab qo`yish va uni tezda yaqin oradagi tabbiy yordam ko`rsatish bo`limiga olib borishi lozim.


**Yog`och o`ymakorligida qo`llaniladigan asboblar va mahsulot tayyorlashdagi ish usullari.** Yog`och o`ymakorligida naqsh kompozitsiyalarini chizish, o`lchash va boshqalarda bir qancha ish, o`lchov va nazorat asboblari ishlatiladi. Masalan metr, chizg`ich, go`niya, pargor (ruscha-sirkul), kronsirkul, nutromer, qalam, knopka, o`chirg`ich, reysfeder, reysshina, transportir kabilar o`lchash va nazorat asboblariga kiradi(5-rasm)

Yog`och o`ymakorligida turli ish asboblar ishlatilib, ular o`ziga xos ishlarni bajaradi (6-rasm). Yog`och o`ymakorligida turli ish asboblar ikki turga bo`linadi, ya`ni naqshni o`yish uchun “o`yma qalamlar” va ikkinchisi “naqsh qalamlar”. Asboblarning shakli va bajaradigan ishiga qarab iskanalarning bir necha xillari bo`ladi. Masalan, iskana, morpech iskana, baliq sirti iskana, zamin iskana, kovza iskana, chekma iskana va boshqalar.



4-rasm.





5-rasm. Yog'och o'ymakorlik asboblari

Iskanalar shakliga va bajaradigan ishiga qarab sakkiz guruhga bo`linadi:

1. To`g`ri iskanalar- 4-xil bo`lib, mayda (tig`ining kengligi 1,5 mm) iskana, o`rta iskana, katta iskanalarga bo`linadi. Ular o`yma naqsh elementlarining atroflarini va geometrik shakldagi bog`dodi naqshlarning chetlarini kesishda, zamin olishda va ularni tekislashda ishlatiladi.
2. Kurakcha iskanalar-2 xil bo`lib, tig`ining kengligi 15-25 mm bo`ladi. Bu iskanalar kesadigan tig`ining uchi bir tomonga qiya qilingan bo`lib, kurakcha shaklida bo`ladi. O`quvchi usta o`ng qo`li bilan iskananing dastasidan ushlab, naqsh chizig`i ustid, ma`lum bir chuqurlikda sanchigan holda o`zi tomon kesadi. Bu iskana asosan buyumlarning chetiga ensiz zanjir va hoshiya naqshlar o`yishda qo`llaniladi.
3. Navo iskanalar- navo iskananing yig`ining uchi bo`v shaklida bo`lib, eni 2 mm dan 15mm gacha bo`ladi. Bu iskanalar yo`goch buyumlarning yuziga turli shakldagi o`simliksimon, islimiy, qavartma naqshlarni o`yish va pardozlashda ishlatiladi. Nova iskanalar to`rt xil: nuqta nova iskana, kichik iskana, o`rta nova iskanadir.
4. Baliq sirti iskana- bu iskanalarning tig`i botiq, kamalaksimon ko`tarilgan, baliq qovurg`si shaklida bo`lib, tig`ining kengligi 3,6,10,15mm gacha bo`ladi. Yog`ochga chizilgan naqshni o`yish uchun usta iskanani chop qo`lida ushlab, tig`ini chizizq ustida ushlab, tig`ini chiziq ustiga tik qo`ygan holda bolg`acha bilan urib kesadi.
5. Zamin iskanalar-2 xil bo`lib, tig`ining kengligi 5-7 mm gacha bo`ladi. Ular buyumlarning yuziga chizilgan islimiy va girih naqshlarning zaminini o`yib olishda ishlatiladi.
6. Chekma iskanalar- buyumning iziga o`yilgan naqshlar zaminining bir tekis bo`lishi, naqsh chiziqlarining aniq ko`rinishi uchun ishlatiladi. Naqshni o`yishda oquvchilar iskanani chap qo`l kaftining orasiga olib, uni tik ushlagan holda bolg`acha bilan naqsh zamainini bir chetdan cheklab chiqadi. Chekma iskanalar bir tishli, uch tishli, besh tishli, o`n olti tishli bo`ladi.
7. Morpech iskanalar- 4 xil bo`lib, tig`ining kengligi 5, 8, 15, 20 mm gacha bo`ladi. Bu iskanalar buyumlarga qo`yilgan naqshlarning chetlaridagi zanjiri,

hoshiya, yarim doiralar, nuqtalar chiqarishda ishlatiladi. Morpech iskana ham bolg`acha bilan urib ishlatiladi.

8. Kavza iskana-3 xil bo`lib, tig`ining kengligi 5, 8, 12 mm gacha bo`ladi. Bu iskanalarning to`g`ri tig`li va egri tig`li deb yuritiladigan ham bor. Kavza iskanalar buyumlarning yuziga o`yilgan naqsh chiziqlarining ustiga uch qirrali qavariq yollar chiqarish va parallel chiziqlar tushirishda ishlatiladi.

Yuqorida ko`rsatilgan o`ymakorlik asboblari bilan buyumlarga turli xil naqshlarni o`yish mumkin. O`ymakorlik asboblaridan foydalanar ekanmiz, agar ular o`tmas bo`lsa, ish sifatsiz, ko`ngildagidek chiqmaydi, shuning uchun ham “Ustani o`zi usta emas, asbobi usta” yoki “Ishni asbob qilar, egasi lof urar” deb bejiz aytmaganlar.

#### **IV. Dars yakuni:**

1. **Yangi mavzu yuzasidan o`quvchilar bilimini mustahkamlash.**
1. Yog`ochga ishlov berish sohasidagi qanday xalq hunarmandchiligi kasblarini bilasiz?
2. Yog`och o`ymakorligi qanday san`at turi hisblanadi?
3. Yog`och o`ymakorligi qachon paydo bo`lgan?
4. Yog`och o`ymakorligida qanday aboblardan foydalaniladi?
5. Yog`och o`ymakorligida ishlatiladigan qanday o`lchov asboblarini bilasiz?
6. Mahsulot tayyorlashdagi qanday ish usullarini bilasiz?
2. **Uyga vazifa berish.** Mustaqil ravishda yog`och o`ymakorligi asosida buyum tayyorlab kelsh.
3. **Ish o`rnini yig`ishtirish.**

## 13-14-dars.

“Serviz xizmati” yo`nalishi uchun

|               |   |
|---------------|---|
| <b>lavzu:</b> | <b>alq hunarmandchiligining tanlangan yo`nalishi bo`yicha zamonaviy izayn talablari bilan uyg'unlashtirilgan maxsulot tayyorlashdagi ish sullarini egallash</b> |
|---------------|---|

### Darsning maqsadi:

*ta`limiy*- o`quvchilarga xalq hunarmandchiligi sohalaridan doppido`zlik bo`yicha buyumlar tayyorlashni o`rgatish;

*tarbiyaviy*- o`quvchilarning sabrlik, go`zallikni his qilish xislatlarini rivojlanritish;

v) *rivojlantiruvchi*- o`quvchilarning do`ppido`zlik hunariga oid ko`nikmalarni rivojlantirish.

**Kasbga yo`naltiruvchi maqsad:** o`quvchilarning do`ppido`zlik hunariga bo`lgan qiziqishlarini oshirish, ularni shu hunarni o`rganib olishga undash.

### Darsning vazifalari:

- o`quvchilarning xalq hunarmandchiligi sohasidagi bilimlarini kengaytirish;
- xalq hunarmandchiligida ishlatiladigan asbob-uskunalar va qo`llaniladigan ish usllari haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish;
- do`ppi tikish ishlarini o`rgatish.

**Dars tipi:** Yangi bilimlar berish.

**Dars turi:** amaliy.

**Darsda qo`llaniladigan o`qitish metodlari:** Taqdimot, baxs- munozara, savol-javob, amaliy ish.

**Fanlararo bog`lanish:** rasm, tasviriy san`at, chizmachilik, matematika, fizika, iqtisodiy bilim asoslari va b.

**Darsning jihozlari:** kompyuter, proyektor, ekran, slaydlar, Xalq hunarmandchiligiga oid turli buyumlar, ularni tayyorlashga oid texnologik xaritalar, asabob-uskunalar va moslamalar, xavfsizlik texnikasi, sahoga oid kasb bo`yicha korgazma materiallari.

### Darsning borishi:

**I. Tahskiliy qism.**

**II. So`rash.** O`tgan dars mavzusi yuzasidan savol-javob o`tkazish.

**III. Yangi mavzu bayoni,**

Reja:

1. Do`ppilar haqida umumiy ma`lumot
2. Do`ppini bichish va tikish.

**Do`ppilar haqida umumiy ma`lumot.** Do`ppi bosh kiyimi sifatida juda qadimdan o`zbek xalqining kundalik turmish tarziga shunchalik singib ketganki, ularsiz bayramlarni va yig`inlarni tassavur qilib bo`lmaydi. Mamlakatimizda do`ppini erkaklar, o`g`il bolalar, qizlar, kelinchaklar, yosh-u qari-barcha sevib kiyishadi.

Do`ppi qadimdan o`zbek kashtachilik san`atining o`ziga xos go`zal turlaridan biri hisoblanadi. Do`ppilarning qachon paydo bo`lganligi, uning ilk ijodkori haqida biror-bir aniq ma`lumot yo`q. Faqat eramizdan ming yillar avval Ahamoniylar davrida

O`rta Osiyoda Sakatiguada degan qabila yashaganligi va bu atama tepasi cho`nqaygan bosh kiyim kiygan saklar degan ma`noni bildirganligi haqida tarixiy ma`lumotlar ma`lum. Demak, do`ppilar juda qadimgi bosh kiyimlardan biridir. Asrlar o`tishi bilan do`ppilarning shakli ham, ularni tayyorlash usullari ham o`zgarib, takomillashib borgan. Qadimdan Andijon, Marg`ilon, Chust, Qo`qon, Samarqand, Buxora, Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo va Toshkent do`ppilari shakli jihatidan bir-biridan ajralib turgan. Do`ppilarning tuzilishiga qarab uni kiygan kishini qaysi hududdan ekanligini bilib olish ham mumkin.



6-rasm. Marg'ilon do'ppilari.



7-rasm. Chust do'ppilari.




8-rasm. Buxoro do'ppilari.

O`datda do`ppilar uch qismdan iborat bo`ladi: tepa qism, kizak qism, jiyak qism. Mana shu qismlarning tayyorlanish uslublari bir-biridan farq qiladi, Do`ppilar O`zbekistonning barcha tuman va viloyatlarida o`ziga xos texnologiya va uslublar asosida tayyorlanib, ko`pincha, shu joyning nomi bilan atalib kelinadi. Xalqimiz, ko`pincha, eng aziz va yaqin kishilariga bosh kiyimlar sovg`a qilishadi. Boshga kiyilgan do`ppilar esa birovga berilmaydi. Do`ppilar razmiy ma`noda ehtiyot qilinib, doimo ozoda va baland joyda avaylab saqlanadi.



9-rasm. Tepa qism



10-rasm. Kizak qism.



11-rasm. Jiyak qism

**Do`ppi tikish uchun ish o`rnini tashkil etish.** Do`ppi tikuvchining ish o`rni qulay, yorug`lik soya qilmagan holda, chap tomondan tushgani ma`qul. Ish stoli chevarakning bo`yiga mos bo`lishi lozim. Ish jarayonida gavda holatiga ahamiyat berilishi zarur. Gavda ish stoliga bir oz egilgan, lekin stolga ko`krak bilan suyanmagan holda bo`lishi kerak. Stolni suyanishga qulay qilib, stolga yaqin qilib olinadi. Qo`l stol ustida bemaol harakat qiladigan bo`lishi lozim. Ko`z bilan ish o`rtasidagi oraliq 25-30 sm dan oshmasligi lozim. Kergi bilan ishlangan vaqtda chap qo`l kergining tagida, ong qo`l esa kergining ustki tomonida harakat qiladi.

Ish stolining ustida ortiqcha buyumlar bo`lmasligi kerak. Do`ppining bichilgan qismlari (tepa va kizak qismlarining avra-astari, jiyagi) alohida bir qutichada, ishlatiladigan asboblari alohida, ipaklar, iplar alohida, piltalari alohida qutichada, ninalari ninasanchgichda ehtiyot qilinib, alohida tartib bilan joylanishi kerak. Kashta sxemalari, rasmlari va oldindan tayyorlangan andazalar ham alohida papkalarda saqlangani ma`qul. Qaychining uchi hech qachon ochiq holda qolmasligi kerak. Narsa bichayotganda qaychining uchi pastga qilib ushlanadi.

**O`lcham olish.** O`lcham olish uchun santimetr lentasidan foydalanamiz. O`lcham peshananing eng baland nuqtasi bo`ylab gorizantal yo`nalish orqali aylantirib o`lchanadi. O`lchamda ko`rsatilgan sonni yozib olamiz. Shu son bosh kiyimning o`lchami bo`ladi (12-rasm).



12-rasm

**Do`ppining andazasini tayyorlash.** Do`ppilar shakli, ko`rinishi jihatidan dumaloq, uchburchaksimon taxlanadigan, konussimon, yarim konussimon shakllarda bo`ladi.

1. Dumaloq shakldagi do`ppilarning andazasini tayyorlash. Dumaloq shakldagi do`ppilarning andazasini tayyorlash uchun avval kerakli o`lchamni aniqlash, yozib olamiz (aytaylik, 54-o`lcham.)



### 13-rasm


*Tepa qismining andazasini tayyorlash.* Olingan o'lcham asosida do'ppining tepa qismi radiusini aniqlash. Uni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:  $R=L:6,28=8,6$  sm.

Bu yerda: L-o'lcham uzunligi, 54 sm; 6,28- o'zgarmas son.

O'lcham uzunligi L ni tepa qismning radiusini topish formulasiga qo'yamiz.

Mana, formula yordamida 54-o'lcham uchun tepa qismining aylana radiusi 8,6 sm bo'lishini aniqlab oldik. Endi pargor yordamida radiusi  $R=8,6$  sm bo'lgan aylana chizamiz. Chizilgan aylanani qaychi yordamida qirqib olamiz. Qirqib olingan doirani karton qog'ozga ko'chirib, do'ppining tepa qismi andazasini tayyorlab olamiz.


*Kizak qismining andazasini tayyorlash.* Endi kizak qismining andaza chizmasini chizamiz. Buning uchun eni 4 sm, uzunligi L ga ya'ni o'lcham uzunligiga ( u kizak uzunligiga teng, bizning misolimizda  $L=54$  sm ) teng bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chizib olamiz (15- rasm):



15- rasm

Mana, kizak qismining ham andazasi tayyor bo'ldi. Kizakning enini ixtiyoriy ravshda 4 sm dan oshirib olish ham mumkin. Bu do'ppining chuqurroq bo'lishini taminlaydi.


*Uchburchaksimon taxlanadigan do'ppilarning andazasini tayyorlash* (16-rasm)




16-rasm

Avval do'ppi uchun kerakli o'lchamni aniqlab, yozib olamiz (misol uchun 54-o'lcham). Uchburchaksimon taxlanadigan do'ppilarning tepa qismining andaza chizmasi quyidagicha tayyorlanadi. Kizak qismining uzunligini tortga bo'lamiz:  $54:4=13,5$  sm.

Tomonlari 13,5 sm ga teng bo'lgan to'g'ri to'rtburchakning burtbuklarini chizg'ich yordamida markaziy O nuqtada kesishuvchi A-E VA B-D to'g'ri chiziqlar orqali tutashtiramiz.



Hosil qilingan chizmada to'g'ri to'rtburchakning markaziy nuqtasi O dan istalgan burchak nuqtasigacha bo'lgan masofani (O-A, O-E yoki O-D ni) chizg'ich yordamida o'lchab aniqlaymiz. (Bizning misolimizda 9,5 sm ga teng.) Endi pargor yordamida to'g'ri to'rtburchakning markazi O nuqtada, radiusi 9,5 sm ga teng bo'lgan aylana chizib olamiz.



21-rasm.

Ayланaning to'rtburchak tashqarisiga chiqib turgan qismini ikki yoki uch bo'lakka bo'lib chizib chiqamiz. Chizib olingan bo'lakning 19-rasm birinchi yoki 20-rasm ikkinchisini qoldirib, qirqib olamiz. Buni ham karton qog'ozga ko'chirib, qirqib andaza tayyorlab olamiz. Mana, uchburchaksimon taxlanadigan do'ppining tepa qismi andazasi tayyor bo'ldi. Kizak qismining andazasi uzunligi 54 sm bo'lgan, eni esa do'ppilarning turiga qarab, 4 sm dan 6 sm gacha bo'lgan to'g'ri to'rtburchak holida tayyorlanadi. Mana, siz bilan dumaloq va uchburchaksimon taxlanadigan do'ppiylarning andazalarini tayyorlashni o'rganib oldik.

- IV. Dars yakuni:**
- 1. Yangi mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimini mustahkamlash.**
  - 2. Uyga vazifa berish.** Mustaqil ravishda biror o'lchamdagi do'ppining andozasini tayyorlab kelish.
  - 3. Ish o'rnini yig'ishtirish.**

# ISHLAB CHIQRISH ASOSLARI

## 15-dars.

“Texnologiya va dizayn” hamda “Serviz xizmati” yo`nalishlari uchun.

|               |   |
|---------------|---|
| <b>Mavzu:</b> | <b>O`zbekistonda ishlab chiqarish turlari</b> |
|---------------|---|

### Darsning maqsadi:

- a) *ta`limiy*- O`quvchilarga O`zbekistondagi asosiy ishlab chiqarish turlari haqida ma`lumot berish;
- b) *tarbiyaviy*- o`quvchilarda ishlab chiqarish sohalaridagi kasblarga nisbatan qiziqish uyg`otish;
- v) *rivojlantruvchi*-o`quvchilarning ishlab chiqarish sohalariga oid bilimlarini kengaytirish.

**Kasbga yo`naltiruchi maqsad:** o`quvchilarning ishlab chiqarish sohalariga oid bilimlarini kengaytirish orqali ularni shu kasblarga bo`lgan qiziqishlarini mustahkamlash, biror kasbni tanlashlariga ko`maklashish.

### Darsning vazifalari:

- O`zbekistondagi asosiy ishlab chiqarish turlari haqida ma`lumot berish;
- O`zbekistondagi ishlab chiqarish sohaları ko`p tarmoqli ekanlini tushuntirish;
- ishlab chiqarish sohalarining bir-biri bilan o`zaro bog`liq holda rivojlanishini uqtirish;
- mamlakat va jamiyatning qudrati va rivojlanishi bevosita ishlab chiqarish sohalarining rivojlanishi bilan bog`liqligini anglatish.

**Dars tipi:** Yangi bilimlar berish.

**Dars turi:** nazariy.

**Darsda qo`llaniladigan o`qitish metodlari:** ma`ruza, suhbat, tushuntirish.

**Fanlararo bog`lanish:** texnika, texnologiya, matematika, informarika, fizika, iqtisodiy bilim asoslari va b.

**Dars jihozi:** tarqatma mareriallar, kompyuter, proyektor, ekran, ishlab chiqarish sohalariga oid slaydlar, ko`rgazmalar va h.

### Darsning borishi;

#### I. Tashkiliy qism.

#### II. O`tilgan darsni so`rash va baholash:

1. Xalq hunarmandchiligi turlarini ayting.
2. Dizayn so`zining ma`nosini ayting.
3. O`zbekistonda rivojlangan xalq hunarmandchilik turlari haqida gaprib bering.
4. O`zbekistonda xalq hunarmandchiligi rivojlanishiga oid Prezident qarorlari haqida gapirib bering.

#### III. Yangi mavzuni bayon qilish.

Reja;

1. O`zbekistondagi ishlab chiqarish turlari haqida.
2. Moddiy ishlab chiqarishning yetakchi tarmog`i- sanoat haqida.



### 3. Mehnat jarayonining zaruriy shartlari haqida.

Insonlarning o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida iqtisodiy ne'matlar yaratish jarayoni ishlab chiqarish deb yuritiladi.

Iqtisodchilar iqtisodiy ne'matlarni ishlab chiqaruvchi korxonalarni- ishlab chiqaruvchilar, ularni iste'mol qiluvchilarni esa iste'molchilar deb ataydi. Ishlab chiqaruvchilar odatda, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohaslariga bo'linadi. Moddiy ishlab chiqarish sohasiga sanoatdagi zavod va fabrikalarni, qishloq xo'jalidagi fermer va dehqon xo'jaliklarini misol qilib keltirish mumkin. Moddiy ishlab chiqarish sohasiga moddiy boyliklarni ishlab chiqaradigan yoki iste'molchilarga yetkazib beradigan hamma tarmoqlar kiradi. Sanoat, qishloq xo'jaligi va qurilish jamiyati uchun zarur ishlab chiqarish vositalari (oziq-ovqat mahsulotlari, kiyimlar, poyabzal va hokazalar) yaratiladi. Yuk transporti, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bo'yicha aloqa, savdo, umumiy ovqatlanish, moddiy-texnika ta'minoti tayyorlash va sotish hamda moddiy ishlab chiqarish sohasiga kirad, chunki bular mahsulotlarni yaratishda yordam beradi va ularning realizasiya qilinishini ta'minlaydi.

Xalq xo'jaligining noishlab chiqarish sohasiga alohida ta'lim berish, tabiiy xizmat ko'rsatish, madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish boshqarishni, boshqarish, rejalashtirish va boshqa ijtimoiy zarur vazifalarni amalga oshiradigan tarmoqlar kiradi. Bu soha kishilarning mehnat sharoitini, turmushini yaxshilab xalqning farovonligini yuksaltirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston sanoati ishlab chiqarishi ko'p tarmoqli bo'lgan murakkab sohadir. U elektr energetikasi, yoqilg'i, qora va rangli metallurgiya, kimyo va neft kimyosi, mashinasozlik va metallga ishlov berish, qurilish materiallari, to'qimachilik, tikuvchilik va boshqa shu kabi tarmoqlardan iborat. Bular sanoatning ikki muhim tarkibiy qismini- og'ir va yengil sanoatni tashkil qiladi

Og'ir sanoat tabiiy moddiy boyliklar (mineral xomashyo, neft, toshko'mir, gaz va h.) ni qazib olish va tayyorlash hamda ulardan turli xil buyumlar tayyorlash uchun ularni qayta ishlash bilan shug'ullanadi. Mamlakatimizda kon sanoati yer bag'ridagi juda boy rangli metal rudalar, tosh ko'mir, gaz, qurilish materiallari (ohak, marmar, granit, qum)ni qazib olish va qayta ishlash orqali xalq xo'jaligi uchun zarur mahsulot ish chiqarish bilan shullanadi.


Sanoatning ikkinchi muhim tarkibiy qismi bo'lgan yengil sanoat qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlaydigan yetakchi tarmoq bo'lib, xalqning gazlama, kiyim-kejak, poyabzalga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Mamlakatimizda yetishtiriladigan paxta, kanop, jun, teri vah. Mahsulotlarining asosiy qismi ana shu sanoatda qayta ishlanadi. Biroq, bu og'ir va yengil sanoat bir-biriga bog'liq bo'lmasdan, mustaqil rivojlanadi, degan gap emas, albatta. Og'ir sanoat ishlab chiqarish vositalari (turli-tuman yigirish, to'qish dastgohlari, tikish mashinalari va h) tayyorlab, yengil sanoatni tez sur'atlarda taraqqiy ettirish bilan birga o'zi ham rivojlanadi. Bundan tashqari yengil sanoat og'ir sanoat uchun xom ashyo bazasi bo'lib xizmat qiladi.

Xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini zamonaviy texnika bilan ta'minlashni ilg'or mashinasozlik bazasisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki aynan mashinasozlikda ilmiy- texnika g'oyalar moddiy jihatdan ro'yabga chiqariladi, xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlaridagi belgilovchi yangi mehnat qurollari, mashinalar yaratiladi. Bu sohada resurslarni tejaydigan prinsipial yangi texnologiyalarga keng

miqyosda o`rinish, mehnat unumdorligini va mahsulot sifatini oshirish uchun asos solinadi.

Aholi uchun madaniy-maishiy va xo`jallikka mo`ljallangan xilma – xil tovarlarni tayyorlash bilan asosiy mahsulot chiqarishdan tashqari sanoatning istisnosiz barcha tarmoqlari shug`ullanadi. Qishloq xo`jaligi sanoati xom-ashyo bilan, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta`minlaydi. U o`simlikshunoslik (dalachilik, sabzavotchilik, mevachilik, yem-xashak tayyorlash va h) hamda chorvachilik ( qora molchilik, qo`ychilik, parrandachilik, baliqchilik va h)ni o`z ichiga oladi.

Qurulishning vazifasi ishlab chiqarish binolari, inshootlar, turar joylar, yo`llar, kasalxonalar, maktablar va boshqa ob`ektlarni qurish hamda rekonstruksiya qilishdir.



Transport- xalq xo`jaligi va aholining xilma –xil yuklarni tashish ehtiyojini uzluksiz hamda o`z vaqtida ta`minlaydi. Aloqa jamiyatning ishlab-chiqarish-xo`jalik faoliyatida, madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyat kasb etadi. U axboratlarning uzatilishini ta`minlaydi va pochta, telegraf, telefon, radio, televideniini o`z ichiga oladi.

Moddiy va ma`naviy ne`matlarni yaratish, xizmatlar ko`rsatish inson hayoti, uning yashashi va kamol topishi uchun moddiy asosdir. Shuning uchun ishlab chiqarishning to`xtovsiz takrorlanishi va uni rivojlantirish har doim eng muhim iqtisodiy qonuniyat va ob`ektiv zaruriyatdir.

Har qanday jamiyatda ishlab chiqarishning amalga oshishi, eng avvalo, uning ro`y berishi uchun bu jarayonda qatnashadigan omillar bo`lmog`i lozim. Iqtisodiyotning tizimi va shaklidan qat`iy nazar ishlab chiqarish yoki xizmat ko`rsatishning hamma sohalari uchun umumiy bo`lgan uchta omil: ishchi kuchi, mehnat qurollari va mehnat predmetlari bo`lishi shart. Ishchi kuchi deb, insonning mehnat qilishga bo`lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig`indisiga aytiladi. Ishchi kuchi mehnat qobiliyatiga ega bo`lgan kishilar uchun xosdir.

Mehnat qurollari deb, inson uning yordamida tabiatga, mehnat predmetiga ta`sir qiladigan vositalarga aytiladi (mashinalar, stanoklar, traktorlar, qurilmalar, uskunalar va b). Mehnat predmetlari esa bevosita ta`sir qiladigan, yani mahsulot tayyorlanadigan narsalardir (yer-suv, xomashyo vaboshqa turli materiallar).

Mehnat vositalarini mehnat predmetlariga ta`sir etish xususiyatiga ko`ra bir nechta katta guruhlariga bo`lish mumkin. Birinchi guruhga mashinalar, mexanizmlar, stanoklar, uskunalar, turli xil apparatlardan iborat mehnat qurollarini kiritish


mumkin. Ularning yordamida ishchi tabiat ashyolari va kuchlariga bevosita ta'sir qiladi va bu ashyolar o'zining iste'mol uchun zarur bo'lgan shaklga kiritiladi.

Ikkinchi guruhga materiallarni saqlash uchun mo'ljallangan mehnat vositalari (tizimlar, turli xil bochkalar, quvurlar, omborlar va boshqalar) kiritiladi.

Uchinchi guruhga ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashmaydigan, lekin unga shart-sharoit yaratib beradigan mehnat vositalari kiradi. Lekin bu vositalarsiz ishlab chiqarish jarayonining amalga oshishi mumkin emas yoki to'la va samarali amalga oshmasligi mumkin. Bularga binolar, yo'llar va boshqalar misol bo'la oladi.

Ma'lumki, biror mahsulotni ishlab chiqarish uchun resurslar kerak bo'ladi. Ishlab chiqarishga jalb qilingan resurslar faqat manba, zahira sifatida emas, balki uni harakatga keltiruvchi, unga ta'sir etuvchi omil sifatida ham qaratiladi. Shu sababli ishlab chiqarishga jalb etilgan resurslarni boshqacha ishlab chiqarish omillari deb ham ataladi. Resurslar, odatda tabiiy, kapital va mehnat resurslariga bo'linadi.

Tabiiy resurslarga havo, suv, quyoshdan kelayotgan issiqlik va yorug'lik, yer maydoni, yer osti va yer usti boyliklarni, o'simliklar va hayvonot dunyosi, xullas odamlar ehtiyoji uchun asqotadigan tabiatning barcha ne'matlari kiradi. Kapital resurslar deb inson tomonidan yaratilgan va boshqa mahsulot turlarini yaratishga jalb etiladigan resurslarga aytiladi. Ularga bino va inshootlar, asbob-uskunalar va mashina-uskuna va mashina-mexanizmlar, turli-tuman dastgohlar va jihozlar, xomashyolar va boshqalar kiradi. Mehnat resurslari deganda, mehnat qilishga layoqatli kishilar, ularning bilimi, ish tajribasi va mehnat mahorati bilan birgalikda tushuniladi.



#### **IV. Yangi o' tilgan mavzuni mustahkamlash va baholash.**

O' tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Ishlab chiqarish nima?
2. Ishlab chiqarish turlari necha xil bo'ladi?
3. Ishlab chiqarish resurslariga nimalar kiradi?
4. Ishlab chiqarish omillariga nimalar kiradi?
5. Ishlab chiqarish inson hayotida qanday ahamiyatga ega?

#### **IV. Darsni yakunlash (xulosalar) va uyga topshiriq berish.**

## 16-17-dars.

### “Texnologiya va dizayn” yo`nalishlari uchun.

|               |  |
|---------------|--|
| <b>Mavzu:</b> | <b>O'zbekiston xalq xo'jaligida, sanoat va qurilishda moddiy ishlab chiqarish asoslari va uning tarkibi, o'zaro munosabati, bir-biriga bog'liqligi</b> |
|---------------|--|

#### **O`qituvchiga metodik tavsiya**

Bu mavzu haqidagi ayrim ma`lumotlar yuqorida, ya`ni “O`zbekistondagi ishlab chiqarish turlari” deb nomlangan 15-mashg`ulotda qisman ko`rib chiqilgan. Mazkur mavzuni o`tishda o`sha o`tilgan mavzuni takrorlash, unda aytilmay qolgan ma`lumotlarni aytish zarur bo`ladi.

Mazkur mashg`ulotni tashkil etishning yana bir ko`rinishi- o`quvchilarni biror korxonaga yoki fermer xo`jaligiga sayohatga olib borish, u joydagi jihoz va ish o`rinlarini ko`rish, o`quvchilar va o`qituvchilar bilan uchrashish, suhbat o`tkazishdan iborat.

Bu holda ham o`quvchilarning to`plagan materiallarini va taassurotlarini o`rganish maqsadida ularga yuqorida olib borgan ishlari bo`yicha erkin mavzuda referat, insho, hikoya kabi yozma ishlarni bajarishni taklif etish maqsadga muvofiqdir.

**Vaqt:** 45 daqiqa

**Maqsad:** O`quvchilarni O`zbekiston iqtisodiyotining rivojlantirilishi haqidagi dunyoviy bilim, ko`nikma va malakalarini shakllantirish. O`quvchilarni O`zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishni zamonaviy usullariga ijodiy yondashishni rivojlantirish.

**Ko`rgazmali vositalar:** O`zbekiston iqtisodiyotini rivojlanishiga doir turli plakatlar, “O`zbekiston Respublikasi mustaqillik yillaridagi yutuqlari” slayd yoki CD disk

**Kerakli jihoz:** vatman, flamaster, skoch, rangli qog`oz

**Dars jarayoni:**

psixologik o`yin – 8 daqiqa

suhbat – 7 daqiqa

aqliy hujum- 10 daqiqa

guruh ishlar taqdimoti – 13 daqiqa

muhokama – 5 daqiqa

uyga vazifa – 2 daqiqa

**Darsning borishi :**

O`quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, bugungi dars mavzusi, uslubi bilan tanishtirish va psixologik o`yin tashkil etish.

**Psixologik o`yin: “Iqtisod saharchasi”**

O`qituvchi o`quvchilardan belgilangan joyda (sinf xonasi guruhlar bilan ishlash uchun tayyorlangan bo`lib, o`yin o`tkazishga joy qoldiriladi) doira, to`rtburchak yoki boshda ixtiyoriy xolatda turishlarini so`raydi.

O`quvchilar ixtiyoriy shaklda turadilar. O`qituvchi har bir guruhni nomlaydi. Masalan: “**Bosor**”, “**Byudjet**”, “**Iqtisod**”, “**Supermarket**”. O`quvchilar ketma-ketlikda belgilangan nomlarni takrorlaydilar va shu asosida to`rtta guruh tashkil

topadi. Har bir guruh belgilangan vaqtda guruh nomini ifodalovchi she'r, maqol aytib, hozirgi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlantirilishida o'z guruhini ijobiy va salbiy tutgan o'rni haqida qisqa, aniq ifodalab beradilar. (rasm, sxema yoki jadval orqali)

O'quvchilar guruh bo'lib bajargan ishlari tahlil qilinadi va rag'batlantiriladi. Shundan so'ng oqituvchi "**Suhbat**" usulidan foydalanib o'quvchilarga yani mavzuni bayon qiladi.

### **Reja**

1 O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti yo'li

2. Xarajatda ko'proq daromad olish omillari

Milliy iqtisodiyotni o'tgan davr mobaynida shakllantirish va uni tubdan isloh qilish mamlakatimiz mustaqil taraqqiyotining eng muhim omili va asosini tashkil etganini alohida ta'kidlash zarur. Bu borada bizning oldimizda respublika va aholi ehtiyojini, birinchi navbatda yoqilg'i-energetika resurslari, iste'mol va oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni ishonchli tarzda qondirishdek dolzarb hayotiy vazifa turar edi.

Yurtimizda yoqilg'i-energetika va g'alla mustaqilligiga erishish muhim strategik vazifa sifatida kun tartibiga qo'yiladi. Bu o'rinda avvalo O'zbekiston tabiiy gaz, neft va gaz kondensati bo'yicha aniqlangan ulkan sanoat zahiralari ega bo'lganiga qaramasdan, ilgari iqtisodiyot tarmoqlari va aholi ehtiyojini qondirish uchun yiliga 6-7 million tonna neft va neft mahsulotlarini chetdan keltirish va buning uchun katta miqdordagi valyuta resurslarini sarflashga majbur bo'lar edi. Bu jiddiy muammoni hal etish maqsadida qisqa fursat ichida o'zimizdagi uglevodorod xomashyosini qazib olish va qayta ishlash bo'yicha maqsadli dasturlari ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Yangi neft-gaz konlarini aniqlash, neft va tabiiy gazni qazib olish uchun zarur bo'lgan investisiyalar topildi, jumladan, xorij sarmoyasi jalb etildi. Buxorodan neftni qayta ishlaydigan yangi zamonaviy zavod barpo etildi, Farg'ona va Oltiariqdagi neftni qayta ishlash zavodlari modernizatsiya va rekonstruksiya qilindi, ularning barqaror va ishonchli faoliyat ko'rsatish uchun shart-sharoit yaratildi.

Shuningdek o'zining ishlab chiqarish va iqtisodiy salohiyatiga ko'ra o'xshashi bo'lmagan Sho'rtan gaz-kimyoy majmuasi kabi noyob inshoot barpo etildi. Ushbu korxonada

tayyorlanayotgan suyultirilgan gaz, turli markadagi polietilen va boshqa mahsulotlarga nafaqat mamlakatimiz, balki chet ellarda ham talab katta ekanini qayd etish lozim.

Mustaqillik yillarida ana shunday yirik korxonalarning qurilishi va rekonstruksiya qilinishi natijasida hozirgi vaqtda yurtimizda neft mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1990 yilga nisbatan 3 barabar ortdi. Bugungi kunda O'zbekiston bu borada mamlakatning va aholining o'sib borayotgan ehtiyojlarini ta'minlash bilan birga, eksport hajmini ham ko'paytirishga erishdi.

Asaka va Samarqand shaharlarida avtomobil zavodlarini barpo etganimiz tufayli mustaqillik yillarida avtomobillar soni keskin oshdi va har 100 oilaning avtomobil bilan ta'minlanish darajasida 6 barobar o'sdi. O'z-o'zidan yoki, respublikamizda benzin va yoqilg'i moylash mahsulotlariga bo'lgan talab ham shunga mos ravishda oshib bormoqda.

Aynan neft va neft mahsulotlari ishlab chiqarishni oshirish hisobiga biz bugun respublikamizning rivojlanayotgan sanoati va aholining keskin o'sib borayotgan mana shunday talab va ehtiyojlarini ta'minlashga erishmoqdamiz.

Ma'lumki, mustaqillikning dastlabki kunlarida aholini non vanon mahsulotlari bilan ta'minlash bo'yicha ham o'ta og'ir qiyinchilik va muammolar paydo bo'lgan edi. Bu muammoning sababi avvalo shundaki, O'zbekiston sobiq SSSR va socialistik lagerga mansub mamlakatlar uchun asosan paxta xomashyosi tayyorlar, g'alla va un mahsulotlariga bo'lgan ichki ehtiyojimizning 80 foizdan ortig'i esa chetdan keltirilgan mahsulotlar hisobidan qoplanar edi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, o'sha yillarda yetishtirilgan paxta xomashyosining 7 foizginasi mamlakatimizning o'zida qayta ishlanar, qolgan qismi suv tekin narxda chetga chiqarilar edi.

Aholini oziq-ovqat tovarlari, jumladan, go'sht va sut, 100 foizi chetdan keltiriladigan shakar mahsulotlari bilan ta'minlashning bunga yaqqol misol bo'ladi. O'sha vaqtda yurtimizga har yili Rossiya, Belorussiya, Polsha va boshqa mamlakatlardan qariyb 1.000.000 tonna kartoshka keltirilar edi.

Eng yomoni, bu mahsulot noyabr-dekabr oylarida keltirilgani uchun muzlab, uning katta qismi yaroqsiz holga kelar va chorvana yem bo'lar edi. Bugun esa xalqimizning kartoshkaga bo'lgan ehtiyoji to'liq o'zimizda etishtirilgan hosil hisobidan qoplanmoqda.

Ana shunday murakkab bir davrda biz g'alla mustaqilligiga erishishdek hayotiy muhim masalani ham o'z oldimizga ustuvor vazifa qilib qo'ydik. Birinchi navbatda qishloq xo'jaligini tubdan isloh qilganimiz, mamlakatimiz iqtisodiyoti va ekologiyasiga katta zarar yetkazgan paxta monopoliyasiga barham berganimiz tufayli bu vazifani ham muvaffaqiyatli hal etishga erishdik. O'zbekistonbugungi kunda o'zining g'allaga bo'lgan ehtiyojini qoplbgina qolmaydan, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tarkibidagi qo'shni mamlakatlarga, Afg'oniston, Eron va boshqa davlatlarga g'alla va un mahsulotlarini eksport qilmoqda. /alla mustaqilligining qo'lga kiritilishi mamlakatimiz aholisini nafaqat un va non mahsulotlari bilan ta'minlash, ayni paytda uning go'sht va sut mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojni barqaror ravishda o'z hisobimizdan qondirish masalasini ham hal qilish imkonini berdi.

Iqtisodiy rivojlanish haqida gapirganda, markazdan rejalashtirish va taqsimlash tizimi samarali mehnat, sifatli va raqobotbardosh mahsulot ishlab chiqarish, tashabbuskorlik yo'lida asosiy g'ov-to'siq bo'lib kelganini ta'kidlash lozim. Shu sababli o'zining mutlaqo yaroqsiz ekanini ko'rsatgan bu tizimning barcha-barcha illatlaridan butunlay voz kechganimiz ayniqsa prinsipial ahamiyatga ega bo'ladi.

Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari, savdo va xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarining butunlay davlat tasarrufidan chiqarilishi va xususiylashtirilishi natijasida mamlakatimizda amalda ko'p ukkladli iqtisodiyot shakllandi, mulkdorlar va tadbirkorlarning yangi sinfi paydo bo'ldi va bu sinf yildan-yilga yurtimiz hayotida tobora salmoqli rol o'ynamoqda.

Mustaqillik yillarida qo'lga kiritgan yutuqlarimiz haqida gapirganda, biz ularga avvalo iqtisodiyotning rivojlanishi, uning o'sish sur'atlari, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zaro mutanosibliigi, inflyasiya darajasining pasayishi, milliy

valyutamizning barqarorligi va uning xarid qobiliyati, eksport va oltin-valyuta zaxiramizning ortib borayotgani, bir soʻz bilan aytganda, butun iqtisodiyotimizning izchil tarzda rivojlanayotganidan kelib chiqqan holda baho beramiz. Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng koʻlamli tub islohotlar va oʻzgarishlarning qonuniy natijasi sifatida soʻnggi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotining oʻsish surʼati barqaror xususiyat kasb etdi. Birgina keyingi 4 yilning oʻzida yillik oʻsish surʼati 7 foizdan oshgani ham buning yaqqol isbotidir. Respublikamizda yalpi ichki mahsulot 1990 yilga nisbatan 1,3 barobar oshdi. Holbuki, Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi mamlakatlarning aksariyatida bu koʻrsatkich hanuzgagacha islohotlar boshlangan davrdagi darajaga ham yetgani yoʻq.

Shunisi muhimki, Oʻzbekiston iqtisodiyotining barqaror oʻsish surʼatlari jahon bozorida neft va gaz narxi oshib orayotgan bir sharoitda qator mamlakatlarda kuzatilayotgan holatdan tubdan farq qiladi. Yaʼni, biz aniq maqsadga qaratilgan bozor iqtisodiyotida chuqur tarkibi oʻzgarishlarni amalga oshirish, tarmoq va korxonalarni yangilash, texnik qayta jihozlash, raqobatbardosh va eksportga yoʻnaltirilgan yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisobidan iqtisodiy taraqqiyotga erishmoqdamiz. Ayniqsa, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy oʻzgarishlarni amalga oshirish gʻoyat muhim ahamiyat kasb etadi. Buning negizini mahalliy xomashyoni qayta ishlash va jahon bozoridagi keskin raqobatga bardosh bera oladigan mahsulotlar tayyorlashga asoslangan sanoat tarmoqlarining etakchi oʻringa chiqishi va xizmat koʻrsatish sohaslarining tez surʼatlari bilan rivojlanishi tashkil qiladi. Shuni taʼkidlash kerakki, mustaqillik yillarida yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi 11 foizdan 25 foizga, xizmat koʻrsatish sohaslarining ulushi 18 foizdan 42 foizga yoki 2 barobardan ziyod oshdi.

Bugunga kunda faoliyat koʻrsatayotgan korxonalarni jadal modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashni taʼminlash, yuksak texnologiyalar asosida ishlaydigan avtomobilsozlik va gaz-kimyoy, elektr texnikasiva toʻqimachilik, oziq-ovqat va farmatsevtika, axborot-telekommunikasiyalar tarmogʻi hamda boshqa yoʻnalishlardagi yangi va zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etishga qaratilgan faol investisiya siyosatini yuritishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Xorijiy va mahalliy sarmoyadorlar uchun qulay, har tomonlama imtiyozli investisiya muhiti yaratildi. Natijada mustaqil taraqqiyot yillarida mamlakatimiz iqtisodiyotiga 100 milliard dollardan ortiq investisiya jalb qilindi. Buning 25 milliard dollardan ziyodini xorijiy sarmoyadorlarni mablagʻlari tashkil etadi. Hozirgi kunda mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning 76 foizi, jumladan sanoat mahsulotining qariyb 80 foizi, qishloq xoʻjaligi mahsulotlari va chakana savdo aylanmasi esa toʻligʻicha iqtisodiyotning nodavlat sektorida yaratilmoqda. Yurtimizdagi korxonalarining 90 xususiy va korparativ mulk shakliga oʻtgan, ulardan jami ish bilan band aholining 77 foizi mehnat qilmoqda.

Kichik va xususiy biznesning yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi 45 foizdan ortib borayotgani va u mamlakatimiz iqtisodiyotidagi etakchi kuchga aylanib, bozorlarimizni zarur tovar va xizmatlar bilan toʻldirish, aholi daromadi va farovonligini oshirishning asosiy manbai, odamlarni ish bilan taʼminlash bilan ogʻliq muammolarni hal etishning muhim omiliga aylangani eʼtiborga sazovordir.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirilishi eng kam mablag' sarflab, eng katta xo'jalik natijalariga erishish demakdir. Bu esa o'z navbatida xo'jalik ishlab chiqarishga qo'shilgan, ya'ni xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya ishchilarning mehnat haqi uchun sarflangan har bir so'm maksimal darajada foyda keltiradigan yo'sinda yuritish kerakligini bildiradi.

Ishlab chiqarishni rivojlantirishning ikkita: ekstensiv va intensiv yo'llari bor. Bu birinchi yo'l korxonaning, ulardagi yangi ishchilarni jalb qilish.

Materiallar to'plash hisobiga ishlab chiqarishni kengaytirishdan iboratdir. Ikkinchi yo'li esa yanada mukammal texnologiyadan, texnikadan foydalanish, ishlab chiqarishni yaxshiroq tashkil etish, intizomni mustahkam lash, mavjud resurslarni tejab ishlatish orqali o'sha natijaga erishishdir.

Ishlab chiqarishni intensivlashtirishda, xo'jalik masalalarini oqilona hal qilishda rejalashtirish katta rol o'ynaydi. Rejalashtirish—zamonaviy sharoitida xalq xo'jaligini boshqarishning markaziy zvenosidir. Xalq xo'jaligi rejalarining bir qancha turlari mavjud bo'lib, bular uzoq muddatli, besh yillik va yillik rejalaridir. Har qanday korxonalar faoliyatini rejaga asoslanadi. Yuqori tashkilotlar (vazirliklar, idoralar) korxonalar rejalarining faqat eng zarur ko'rsatkichlarini: mahsulot ishlab chiqarish hajmi, va muddatini, buyumlarining asosiy turlari hamda boshqa ba'zi narsalarni tasdiqlaydi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini uchun qishloq mahsulotlarini xarid qilishda erkinlik va davlat rejalarini belgilanadi. Xo'jalik va turli ekiladigan maydonlarini, chorva mollari boshini, har xil ishlarini amalga oshirish muddatlarini o'zlarini mustaqil holda rejalashtiriladi.

Davlat har qanday korxonani tashkil qilishda uning ishlashi uchun zarur binolar, materiallar, texnika, pul mablag'lari ajratadi. Korxonalar esa bulardan foydalanib ishchilarini to'playdi, materiallar, asbob-uskunalar sotib oladi, o'z mahsulotlarini realizatsiya qiladi, boshqa korxonalar bilan shartnomalar tuzadi, o'zining moliyaviy ishlari yuritadi.

Har bir buyum korxonaga qanchadan tushadi? Korxonalar o'ziga berilgan binolar, inshootlar, mashinalar, stanoklar uchun davlatga asta-sekin, qismlarga bo'lib qarzini to'laydi. Buni amortizatsiya (narxini qoplash) xarajatlari deyiladi. Tayyorlangan mahsulotlarni tashish va realizatsiya qilishi uchun ham muayyan sarf-xarajatlarni taqozo etadi. Barcha ishchi va xizmatchilarning mehnati uchun haq to'lash kerak. Harajatlarning bir qismi yoritish, isitish binolari uchun shu bilan bog'liqdir.

Korxonada foydani ko'paytirishdan manfaatdormi? Foyda nimalarga ishlatiladi? Foydani qancha qismi davlat ixtiyoriga o'tadi (bu byudjetga ajratishdir). Ular yangi zavodlar, fabrikalar, turar joy binolari, maktablar, kasalxonalar, kinoteatrlar, yo'llar qurishga, talabalarning ta'limiga, boshqarish apparati xodimlarining maoshlariga, barcha kishilar uchun meditsina xizmati ko'rsatishga, Vatanimizning mudofaa qobiliyati mustahkamlashga sarflanadi.

Korxonalar xo'jalik hisobi sharoitida muvaffaqiyatli ishlashi uchun mehnatni yaxshi tashkil etish, tejamkorlikning g'oyat jiddiy rejimi zarur. Bunday vazifa xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, elektro-energiya, yer-mulk va ishchilardan kam miqdorda foydalanib ko'p mahsulot olishdan iborat bo'lib, ishlab chiqarishdagi



tejamkorlikning rejimining ma'nosi ham shundadir. Bu rejim oddiy narsalardan vujudga keladi.

Ishlab chiqarishda buyumlarni kam material ketadigan qilish, qimmat tabiiy materiallar o'rniga sun'iy materillar ishlatish, buyumlarning chidamliligini oshirish, kam chiqindiligi, resurslari iqtisod qiladigan texnologiyani joriy etish orqali materiallarni tejashga erishiladi.

Har bir ishchining ish vaqtidan ratsional va to'liq foydalanish-ishlab chiqarishdagi tejamkorlik rejimini kuchaytirishning asosiy shartlaridan biridir. Ish vaqti bunday foydalanish bir yo'la ko'p mahsulotlar tayyorlash, shu orqali uning tan narxini arzonlashtirish va korxonaning foydasini ko'paytirish imkonini beradi.

Ish vaqti mehnat sarflashning eng muhim o'lchovidir. Mehnat sarflashning samaradorligi–mehnat unumdorligidir. U vaqt birligi ichida tayyorlangan buyumning miqdorida o'z ifodasini topadi.

Mehnat unumdorligi, anchagina omillarga, ya'ni texnika va ilg'or texnologiyani joriy etishga, ishlarni yaxshiroq tashkil qilishga, mehnat imtizomini mustahkamlash, ishchilarni malakasini oshirish va hokazolar orqali sarflanadigan ish vaqtini qisqartirishga bog'liq. Mehnat unumdorligini oshirish iqtisodiy o'sish va xalq farovonligini yuksalishining asosiy omillaridir.

### **O'qituvchi darsni mustaxkamlash maqsadida, “Aqliy hujum” usulidan foydalanib savollar beradi va o'quvchilar javoblarini umumlashtiradi.**

1. Zamonaviy ishlab chiqarishni bozor munosabatlari bilan uzviyligini tushuntiring?
2. Ishlab chiqarish korxonasidagi ekstensiv bilan intensivning bir-biridan farqini ayting ?
3. Mahsulotning tan narxi qanday belilanadi ?
4. Maktab ustaxonasidagi tejamkorlik tizimi qanday rivojlantirish mumkin ?
5. Iqtisodiyotni rivojlatirishda kasb turlarining o'rnini muhim-mi ?

O'quvchilar javoblari umumlashtiriladi. Guruhlarga berilgan savol va kartochkalar asosida mavzuni o'zlashtirish, mustaxkamlash yuzasidan o'quvchilar javoblari muhokama qilinadi.

Guruhlar javobi “o`rin” orqali rag`batlantiriladi.

**Uyga vazifa:** Mavzu asosida referat tayyorlash.

## 18-dars

“Texnologiya va dizayn” hamda “Servis xizmati” yo`nalishlari uchun.

|               |   |
|---------------|---|
| <b>Mavzu:</b> | <b>Texnologiya jarayoni haqida asosiy tushuncha</b> |
|---------------|---|

### **Darsning maqsadi:**

a) *ta`limiy* - O`quvchilarga ishlab chiqarishdagi texnologik jarayon, mexanik, kimyoviy, biologik usullar haqida umumiy tushuncha berish;

b) *tarbiyaviy* - o`quvchilarga texnologik jarayonlarni amalga oshirishda xavfsizlikka rioya qilish, tejamkorlikka intilish zarurligini uqtirish;

v) *rivojlantiruvchi* - o`quvchilarning ishlab chiqarishning turli tarmoqlarida amalga oshiriladigan texnologik jarayonlar haqidagi bilimni kengaytirish. Ishlab chiqarishga oid kasblarga bo`lgan qiziqishlarini rivojlantirish.

**Ksabga yo`naltiruvchi maqsad:** o`quvchilarning ishlab chiqarish sohalariga oid bilimlarni kengaytirish orqali ularni shu kasblarga bo`lgan qiziqishlarini mustahkamlash, biror kasbni tanlashlariga ko`maklashish.

### **Darsning vazifalari:**

- ishlab chiqarishdagi texnologik jarayon haqida umumiy tushuncha berish;
- mahsulotlarni ishlab chiqarishi bevosita texnologik jarayonlarni tashkil etilishi va amalga oshirilishiga bog`liq ekanligini tushuntirish.

**Dars tipi:** Yangi bilimlar berish.

**Dars turi:** nazariy.

**Darsda qo`llaniladigan o`qitish metodlari:** ma`ruza, suhbat, tushuntirish.

**Fanlararo bog`lanish:** texnika, texnologiya. Matematika, informatika, fizika, iqtisodiy bilim asoslari va b.

**Dars jihozi:** tarqatma materiallar, kompyuter, proyektor, ekran, ishlab chiqarish sohalariga oid slaydlar, ko`rgazmalar va h.

### **Darsning borishi :**

#### **I. Tashkiliy qism.**

#### **II. O`tilgan darsni so`rash va baholash:**

1. O`zbekistonda xalq xo`jaligini rivojlantirish haqida gapiring.
2. Sanoat ishlab chiqarishi haqida gapiring.
3. Qurilishda.moddiy ishlab chiqarish asoslari haqida gapiring.
4. Sanoat va qurulish ishlab chiqarishining bir-biriga bog`liqligi haqida gapiring.

#### **III. Yangi mavzuni bayon qilish.**

Reja:

1. Ishlab chiqarish texnologiyasi va uning asosiy mazmuni.
2. Texnologik jarayon va uning tarkibi, xususiyatlari.
3. Texnologik harakat, usul va operatsiya.
4. Mexanik, kimyoviy, biologik va energetik usullar hamda ularni qo`llash texnologik jarayonlari.
5. Ishlab chiqarish jarayonining tarkibiy sxemasi.

Texnologiya deganda mahsulot olish jarayonida ishlatiladigan xomashyo, material yoki yarim tayyor mahsulotlarni qayta ishlab tayyorlash, ularning holatini, xossalari va shaklini o'zgartirish usullari majmui tushuniladi. Odatda texnologiya muayyan ishlab chiqarish bilan bog'lanadi. Masalan, sulfat kislota olish, po'lat eritish, non yopish, poyabzal tayyorlash va hokozolarning texnologiyasi bir-biridan farqlanadi.


Juda ko'p texnologik jarayonlar mavjud bo'lib, ularning har biri o'z strukturasi va xususiyatlariga ega. Lekin bir qancha texnologik jarayonlar uchun umumiy bo'lgan qator usullarni ham ajratish mumkin. Ana shunday umumiy (ba'zan asosiy deb ataladigan) usullarga mexanik, kimyoviy, biologik va energetik usullar kiradi.

Mexnik (fizik-mexanik) usul mehnat predmetiga mexanik ta'sir etuvchi chunonchi mareriallarni kesish, qirqish, detallarni vintlah, mix parchinlar bilan biriktirish, presslash va hokozolar orqali amalga oshadigan texnologik jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Kimyoviy usul bilan mehnat predmetlari kimyoviy reaksiyalar hisobiga o'zgaradigan texnologik jarayonlar amalga oshiriladi. Bu usul faqat bevosita kimyo sanoatida emas, balki xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlarida, masalan, elektrotexnika sanoatida ayrim elektroizolyatsion va o'tkazgich materiallar tayyorlashda, qishloq xo'jaligida zararkunandalarga qarshi kurashishda, mashinasozlikda metallarni korroziyadan saqlashda ham keng qo'llanadi.

Biologik usullar mehnat predmeti jonli organizmlarda ro'y beradigan biokimyoviy jarayonlar ta'sirida o'zgarishi bilan xarakterlanadi, Biologik usullar sanoatning bir qancha tarmoqlarida, masalan, oziq-ovqat, kimyo, yengil sanoatda keng tarqalgan, shuningdek, ular metallurgiyada ham o'rin olgan bo'lib, maxsus akteriyalar yordamida rudadan ayrim metallarni (mis, marganes, xrom va b) ajratib olish yo'llari topilmoqda.

Energetik usullar energiyaning elektr, yadro va boshqa turlaridan bevosita foydalanishda amalda oshiriladigan texnologik jarayonlarni o'z ichiga oladi. Masalan, mis va alyuminiy elektroliz yo'li bilan olinadi (buni fizika va kimyo darslarida bilib olish mumkin), ko'p detallar yuqori chastotali toklar bilan mustahkamlanadi va h.



Bir qator materiallarni ishlash texnologiyasi yuqorida ko`rib chiqilgan asosiy usullar kombinatsiyasiga tayanadi.

Kombinatsiyalashgan usulning misoli sifatida metallga himyolovchi va dekorativ qoplamalarni elektrokimyoviy metod bilan surtishni ko`rsatish mumkin. Detallarga elektrofizik usulda ishlov berish ham kombinatsiyalashgan usulga kiradi. Buning namunasi materiallarni elektronlar tutami bilan ishlash (payvandlash, kesish)dir.

Texnologik operatsiyalardan tashkil topadi. Texnologik operatsiya- texnologik jarayonning tugallangan qismi bo`lib, uni ishchi ( yoki ishchilar guruhi) uzluksiz bitta ish o`rnida bitta buyumni tayyorlash ( zagotovka, detal yig`ish birligi va h) bo`yicha bajariladi.

**Ishlab chiqarish jarayoni strukturasi.** Ishlab chiqarishning qator tarmoqlarida texnologik operatsiyalar o`tishlarga ajratiladi. O`tish operatsiyaning qismlarga bo`linmaydigan va asbobni (moslamani) almashtirmay bitta yoki bir nechta ishchi tomonidan ish rejasini o`zgartirmay bajariladigan tugal qismidir. Masalan, mashinasozlik korxonasi yig`uv sexida ishchi buyumni yig`ish jarayonida gaykovert, toresli klyuch, o`lchov asboblaridan foydalanadi. Uning barcha ishlari birgalikda slesarlik-yig`uv texnologik operatsiyaning mazmunini tashkil etadi, ammo gaykovert bilan ishlash- bir o`tish, toresli klyuch bilan ishlash boshqa bir o`tish, shtangensirkul bilan nazorat o`lchash uchunchi o`tish hisoblanadi.

Konstruktorlik tayyorgarligi berilgan topshiriqni texnik-iqtisodiy asoslash va buyumga qo`yiladigan texnik talablar ifodalangan dastlabki hujjatni ishlab chiqarishdan boshlanadi. Oxirgi natija ishchi hujjat, ya`na ishchi chizmalar bo`lib, ularda buyumlarni tayyorlash va nazorat qilish uchun zarur: yig`ish chizmalari, detallarning chizmalari, ularning tafsilotlari va hokozolar ifodalanadi. Ana shu hujjatlar asosida korxonaning texnologik tayyorgarligi amalga oshadi. Bu tayyorgarlik mahsulot tayyorlashning texnologik jarayonini ishlab chiqarishdan iborat bo`lib, u texnologik hujjatlarda-marshrut, operatsiya kartalari va hokozalarda o`z aksini topadi. Korxonaning texnologik tayyorgarligi yagona tizimiga, ya`na xalq xo`jaligining istalgan tarmog`iga mansub har bir korxonada rioya etadigan standartlarga muvofiq amalda oshiriladi.

Texnologik jarayonlarni loyihalashda bir tomondan buyumga qo`yiladigan texnik talablar, ikkinchi tomondan ishlab chiqarishning imkoniyatlari, uning zarur stanoklar, asboblar va kadrlar bilan ta`minlanganligi hisobga olinadi.

Korxonaning tashkiliy-ishlab chiqarish tayyorgarligi uning texnologik tayyorgarligiga chambarchas bog`liqdir. U sexlar va uchastkalarining aniq tashkil etishidan, ta`minot, jihozlarni joylashtirish, buyumning tajriba namunalari tayyorlash masalalarini aniqlashdan iboratdir. Ko`pincha mahsulotni sanoat ko`lamida o`zlashtirishni tezlashtirish uchun ishlash chiqarishning ba`zi tayyorgarlik bosqichlari birlashtiriladi.

## V. Yangi o`tilgan mavzuni mastahkamlash va baholash.

1. Texnologik jarayon nima?

2. Texnologik jarayon bilan texnologik usullarni umumiyligi nimada? Mexanik, kimyoviy, biologik va energetik usullar haqida gapirib bering. 3.
- V. Darsni yakunlash (xulosalash) va uyga vazifa berish.**

### 19-20-dars.

‘Texnologiya va dizayn’ hamda ‘‘Serviz xizmati’’ yo`nalishlari uchun.

|  |  |
|--|--|
|  | <b>Yangi texnika va ilg`or texnologiya, uning ifodalanishi</b> |
|--|--|

#### **Darsning maqsadi:**

- a) *ta`limiy*- o`quvchilarga yangi texnika va ilg`or texnologiya va uning ifodalanishi haqida tushuncha berish;
- b) *tarbiyaviy*- o`quvchilarda ishlab chiqarish sohalardagi kasblarga nisbatan qiziqish uyg`otish, ularda yangilikka intilish hissini tarbiyalash;
- v) *rivojlantiruvchi*- o`quvchilarning yangi texnika va ilg`or texnologiya haqida bilimlarni rivojlantirish.

**Kasbga yo`naltiruvchi maqsad:** o`quvchilarning ishlab chiqarish sohalarda yangiliklarni qo`llashga oid bilimlarni kengaytirish orqali ularni shu kasblarga bo`lgan qiziqishlarini mustahkamlash, biror kasbni tanlashlarga ko`maklashish.

#### **Darsning vazifalari:**

- yangi texnika va ilg`or texnologiya haqida tushuncha berish;
- ishlab chiqarish sohasining sifatlilari va qiyinchiliklari haqida ma`lumot berish.
- ishlab chiqarish sohasining rivojlanishi bevosita yangi texnika va ilg`or texnologiyalarni joriy etish bilan bog`liqligini tushuntirish.

**Dars tipi:** Yangi bilimlar berish.

**Daes turi:** nazariy.

**Darsda qo`llaniladigan o`qitish metodlari:** ma`ruza, suhbat, tushuntirish.

**Fanlararo bog`lanish:** texnika, texnologiya, matematika, informatika, fizika, iqtisodiy bilim asoslari va b.

**Dars jihozi:** tarqatma matetiallar, kompyuter, proyektor, ekran, ishlab chiqarish sohasiga oid ko`rgazmalar va h.

#### **Darsning borishi:**

##### **I. Tashkiliy qism.**

##### **II. O`tilgan darsni so`rash va baholash:**

1. Texnologiya deb nimaga aytiladi?
2. Texnologik jarayon nima?
3. Texnologik jarayon bilan texnologik usullarning umumiyligi nimada?

##### **III. Yangi mavzuni bayon qilish.**

Reja:

1. Hozirgi zamon texnikasi.
2. Ilg`or texnologiya.

XXI-asrda qo`llaniladigan texnika qaysi sohalarga, tarmoqlarga yoki ishlab chiqarish korxonasiga tegishli bo`lmasin, ularda kompyuter elementlari kiritiladi. Hozirgi zamon texnikasining asosini mashinalar tashkil etadi. Ular qanday ishni bajarishiga ko`ra bir-biridan farqlanadi va energetika mashinalari (turbina, ichki

yonuv dvigateli, elektrodvigel, elektrogenerator va b,) ishchi mashinalar, shu jumladan, texnologik mashinalari ( samolyot, avtomobil, vertolyot, velosiped, va b); axborot mashinalari (oddiy arifmometr dan elektr on-hisoblash mashinalarigacha) deb ataladi. Hozirgi ishlab chiqarishda ana shu mashinalarning barcha turlaridan foydalaniladi.

Mashina o`z vazifasini bajar a olish uchun ishchi (ijrichi) organi bo`ladi. Uning tuzilishi mashinaning vazifasi va ishlash sharoitiga bog`liqdir. Masalan, ventilyatorning ishchi organi- parragi, ekskavatorning ishchi organi-kavsh, avtomobilning ishchi organi- g`ildiraklari hisoblanadi. Mashinalar ishchi organlari yordamida ko`zlangan foydali ishlarni bajaradi. Mashinaning ishchi organini dvigel harakatga keltirdi. Harakat dvigeldan ishchi organga maxsus uzatmalar ( uzatish qurilmalari yoki mexanizmlar) orqali o`tadi. Buning uchun texnologik va transport mashinalarida ko`proq mexanik uzatmalardan ya`ni tasmali, zanjirli, tishli, chervyakli, friksion uzatmalardan foydalaniladi. Agar harakatning uzatilishi suyuqlik yoki gazlar ishtirokida amalga ohsa, bunday uzatmalar gidravlik yoki pnevmatik uzatmalar deyiladi.

Odatda uzatma mexanizm dvigel harakatlantiradigan kirish zvenosi va mashinaning ichki organi yoki qurilma ko`rsatgichiga birikkan chiqish zvenosidan tashkil topadi. Agar texnologik mashinaning ishchi organi, aytaylik, stanok supporti ilgari lanma-qaytma va aylanma harakat qilsa, mexanizm konstruksiyasi harakatning uzatilishi va tezlikning o`zgarishini ta`minlashdan tashqari dvigel valining aylanma harakatini supportning ilgari lanma-qaytma harakatiga aylantirishi ham kerak.

Mashinaning ishini bo`shqarish lozim. Ilgari mashinalarni faqat inson boshqarar edi. Hozir esa ishlab chiqarishda boshqarish vazifasini bajaradigan avtomat moslamalar tobora keng qo`llanilmoqda. Ular oldindan berilgan dastur bo`yicha ishlaydi, ishchi esa faqat ishlab chiqarishning borishini nazorat qiladi.

Vazifasi, konstruksiyasi va o`lchamlari har xil bo`lgan barcha mashinalar bitta umumiy xususiyatga ega –ular foydali ishni bajaradi. Ishchi asbobl ar kabi texnika vositalari o`zicha ishni bajar a olmasligi bilan mashinalardan farqlanadi. Asbob insonning mehnat quroli ( masalan, nina, belkurak, otvyortka va b) yoki mashinalarning ijrochi organlari (parma, freza va b) sifatida xizmat qiladi. Ishchi asboblardan tashqari o`lchash asboblari ham mavjud bo`lib, siz ular bilan mahsulot sifatini nazorat qilish masalasini o`rganishda tanishdingiz.

Ko`pchiligingiz parmalash stanoklarida ishlashda konduktor deb ataladigan texnik moslamani uchratgansiz. Bu moslama oldin rejalamasdan detalning kerakli joyida teshik parmalash imkonini beradi. Detalning har bir turi uchun maxsus ishlab chiqarilgan va tayyorlangan konduktor bo`lishi kerak. Ana shu moslamalar, maxsus asbobl ar va boshqa asbobl ar parmalash stanogining uskunalari hisoblanadi. Uskuna deganda, texnologik jihozlarni to`ldiradigan va texnologik jarayonning muayyan qismini mustahkamlash, zagotovka hamda detallarni uzatish va nazorat qilishni bajarish uchun kerakli texnik moslamalarning hammasi tushuniladi. Ishlab chiqarishning har qanday tarmog`ida qo`llaniladigan texnika vositalarining katta gruppasini nazorat-o`lchov qurilmalari tashkil qiladi. Ular qator belgilari: vazifasi, ishlash prinsipi va hokazolari bo`yicha tasniflanadi.

Moddaning massasini, haroratni, bosim va boshqalarni o`lchash qurilmalari o`lchanadigan kattalikning turiga ko`ra bir-biridan farqlanadi. Ishlash prinsipiga

ko`ra mexanik, elektrik, gidrovlik, optik va b. Shuningdek, kombinasiyalshgan (elektromexanik qurilmalar bo`lishi mumkin.

Ishlab chiqarish sharoitida ko`pincha kuzatuvchining ko`zi ilg`maydigan jarayonlarning ayrim parametrlarini, masalan, pechlardagi issiqlikni, atom reaktorining holati va boshqalarni o`lchash zarurati tug`iladi. Bunday paytlarda qurilmalarning datchiklari ( paramaetrlarni o`lchagichlar) bevosita ob`ektda, qurilmaning indikatorini (o`lchanayotgan kattalikning ko`rsatkichi) operatorning maxsus pultida bo`ladi. Bu xildagi qurilmalar distansion qurilmalar deyiladi.

Ko`p qurilmalar o`lchanayotgan kattalikning ana shu o`lchash paytidagi qiymatini ko`rsatadi. Bular ko`rsatuvchi qurilmalar deb ataladi. Ular, masalan, ampermetr, voltmeter, manometr, tarozi va b. Ular strelkali yoki raqamli (elektron saotlar tipida) bo`lishi mumkin.

Kundalik turmushda ko`rsatuvchi qurilmalar juda qulay bo`lsa, ishlab chiqarishda ko`pincha o`lchanayotgan parametrning absolyut qiymatidan tashqari, muayyan vaqt ichida uning o`zgarish xarakterini ham bilish zarur bo`lib qoladi. Ana shunday hollarda registrasiya qiladigan: o`zi yozadigan yoki mashinali qurilmalardan foydalaniladi.

Yuqorida aytilgan barcha texnik qurilmalar mashinalar, asboblari, uskunalari va qurilmalar ishlab chiqarishning texnikaviy jihozlari vositalari bo`lib, ular texnologik jarayonni amalga oshirish uchun zarur. Yangi texnologiyalar prinsipial yangi texnikani taqozo etadi va bunday texnikasiz texnologiyarning g`iyalari ro`yabga chiqmaydi.

Ilmiy bilimlar yuksak darajada rivojlanishi bilan ishlab chiqarishning texnik vositalari uzluksiz takomillashadi. Ularni amaliyotga tatbiq etish muddati ancha tezlashadi. XX-asrning birinchi choragida bajarilgan fundamental ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilguncha taxminan 20 yil vaqt o`tgan bo`lsa, so`ngi yillarda ana shu vaqt ko`p hollarda 5-6 marta qisqardi. Texnikaning muvaffaqiyatli o`z navbatida ilmiy tadqiqotlarning sur`atini jadallashtiradi va imkoniyatlarini kengaytiradi. Fan, texnika va ishlab chiqarishning o`zaro chambarchas bo`g`lanishi fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishning muhim shartidir. Hozirgi texnika uchun oldindan belgilangan xossalarga ega bo`lgan xilma-xil materiallar kerak. Bunday materiallar, masalan, juda katta yuk yoki issiqlik va sovuqqa chidamli, muayyan fizik-kimyoviy xossalarga ega bo`lishi (turli agressiv muhitga, haddan tashqari yuqori yoki past elektr o`tkazuvchanlikka dosh bera olishi) lozim. Buning zarurligini texnika murakkab sharoitlarida ishlatilganida yuqori darajada mustahkamligi va ishlash qobiliyatini saqlash kerakligi bilan izohlash mumkin. Masalan kosmik kema fazoda uchayotganida bosim va tebranish (vibrasiya)ga, harakatning keskin farqlanishiga, Quyosh radiusining ta`siri va hokazolarga duch keladi. Demak, bunday apparatlar uchun o`ta qattiq, issiqqa chidamli materiallar kerak. Aslida bunday materiallar tabiatda yo`q. Turli kimyoviy elementlarni birlashtirib oldindan belgilangan yangi materiallarni hosil qilish mumkin.

Yangi materiallar faqat kosmosdagina zarur emas. Sanoat va qishloq xo`jalik texnikasini ishlatish sharoiti ko`pincha ana shu texnika tayyorlanadigan material bir necha xossalarga ega bo`lishini, masalan, ham tebranishga chidamli, ham yuqori darajada mustahkam va oson ishlov beriladigan bo`lishini taqozo etadi. Lekin yangi materiallarni yaratish zarurligi faqat murakkab eksplatatsiya sharoiti

bilan bog`liq emas. Ishlatib kelinayotgan qotishmalarning ayrim tarkibiy materiallar juda qimmat, ularning tabiiy zapaslari cheklangandir.

Sizlar balki kompozitsion materiallar haqida eshitgansizdir. Bu sintetik materiallar moddalarning turlicha birikishi (kompazitsiyasi)dan iborat bo`ladi. Albatta, ularni ayrim komponentlarning oddiygina aralashirilishi deb toshunmaslik kerak. Kompozitlarning farqli xossalari: chidamliligi, yuqori darajada mustahkamligi, issiqqa bardosh berishi, korroziyalanmasligidir. Bunday materiallardan tuvushdan tez uchadigan samolyotlarda, dengiz texnikasida, qishloq xo`jaligida, yengil sanoat va hokazolarda foydalaniladi. Keyingi yillarda kompazit materiallarni ko`plab ishlab chiqarishga va foydalanishga alohida etibor berilmoqda. Yangi materiallar yaratishda ularga ishlov berish imkoniyatlari ham hisobga olinadi. Masalan, juda qattiq qotishmalardan zagotovkalar kesishda ularga nisbatan qattiqroq materialdan yasalgan asboblar bo`lishi shart.

Yangi materiallar(plastmassalar, sintetik kauchuklar, smolalar, sun`iy olnos va b ) tufayli Yangi texnologiyalar vujudga keladi. Chunonchi mashinasozlikda sintetik olmoslardan foydalanish detallar prokat qilinganidan so`ng tokarlik ishlarisiz silliqlash yoki issiqligicha sgilovkalash imkonini beradi. Faqat yangi materiallar emas, balki energiyaning yangi turlari ham yangi texnologiyalar yaratishga yordam beradi. Bu jihatdan lazer, elektron-nur, plazma, texnologiyalari alohida e`tiborga loyiqdir. Kam chiqindili va chiqindisiz texnologiyalarni keng joriy qilish fan-texnika taraqiyotini jadallashtirishning muhim yo`nalishidir. Sizlar metall qirqish stanoklarida ishlayotganingizda anchagina metallni qirindiga aylanishini ko`rgansiz. Ko`p hollarda dastlabki materialning 70-80 foizini chiqindilar tashkil qiladi. Xuddi shu sababli, xususan mashinasozlikda metallarni qirqish bilan ishlash o`rniga chiqindisiz va kam chiqindili texnologik usullarni qo`llash nihoyatda muhim ahamiyatga egadir. Mazkur usullardan biri-detallarni metall poroshoklaridan tayyorlash- poroshokli metallurgiya bo`lib, bu usul ilgari minutlar, ba`zan soatlar sariflanadigan detallar tayyorlashni aniq forma va o`lchamlar bilan sekundlarda bajarish imkonini berayotir. Ana shu usulda metal poroshogi (yoki poroshoklar aralashmasi) po`lat press-qolipga solinadi va katta bosim bilan presslanadi. Shunda metall zarralari bir-biriga jipslashadi, natijada geometrik parametrlari bo`yicha tayyor detalga mos zagotovka hosil bo`ladi. Keyin zagotovkani maxsus pechlarda juda yuqori temperaturada qizdiriladi (yaxlitlanadi)- metall zarralari birlashib, jips bir jinsli massaga aylanadi. G`oyat murakkab konfiguratsiyali detal tayyor bo`ladi. Bu usul bilan tayyorlanadigan detallar uchun kerakli asbob-uskunalar ayrim hollarda odatdagi metal qirqish stanoklariga qaraganda soddaroq va arzonroq bo`ladi. Poroshokli metallurgiyadan issiqqa, korroziyaga chidamli Yangi materiallar yaratishga xizmat qilishining bir misolidir. Ma`lumki, metallarni bosim bilan ishlash merall qirqish stanoklarida detallar tayyorlashga nisbatan ancha tejamlidir. Mexanik shtampovka o`rnini asta-sekin suv zarbi, magnit maydoni, portlatish bilan shtampovkalash egallamoqda. Sovuq va issiq holda hajmli shtampovkalash, aniq quyish, erigan suyuq materiallardan detallarni shtampovkalash va hokazalar ham nihoyatda tejamli texnologiyadir.

So`ngi yillarda metallarni qirqish tezligini oshirish, kimyoviy reaksiyalarni tezlashtirish va hokazalar hisobiga an`anaviy texnologik jarayonlarni intensivlashtirishdan ham keng foydalanmoqda. Ko`p operatsiyalarni birlashtiradigan



uzluksiz texnologik jarayonlarni qo'llash katta samara beradi. Uzluksiz texnologiya texnologik operasialarni qo'yish orqali zagotovkalarni, detallar va materiallarni bir ish o'rnidan ikkinchi ish o'rniga tashish hamda qator yordamchi operasialarni bartaraf etadi. Masalan, poroshokli metallurgiya usulida detallar tayyorlashda ko'pincha presslash va qizdirish jarayonlari qo'yiladi: metall poroshoklari presslanadi va bir yo'la qizdiriladi. Zamonaviy ishlab chiqarishga yangi materiallarni, ilg'or texnologik jarayonlarni intensivlashtirish xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'lidir.

#### **IV. Yangi o'tilgan mavzuni mustahkamlash va baholash:**

1. Mashinalni ishlab chiqarishda va turmushda qo'llaniladigan texnika va vositalardan nima bilan farqlanadi?
2. Mashinalar vazifasiga ko'ra qanday tasniflanadi?
3. Hozirgi zamon ishlab chiqarish texnologiyasi qanday yo'nalishlar bo'yicha takomillashmoqda.
4. Chiqindisiz va kam chiqindili texnologiya nima?
5. Maktab ustaxonasida metall va yog'och chiqindilarini qanday qilib kamaytirish mumkin?

#### **V. Darsni yakunlash ( xulosalash) va uyga topshiriq berish.**

### **21-22-dars.**

“Texnologiya va dizayn” hamda “Servis xizmati” yo'nalishlari uchun

|               |  |
|---------------|--|
| <b>lavzu:</b> | <b>lehnat predmetiga mexanik ta'sir etish orqali amalga shiriladigan texnologik jarayonlar</b> |
|---------------|--|

#### **Darsning maqsadi:**

a) talimiy – o'quvchilarning turli xomashyolarga mexanik ishlov berish haqida bilimlarini kengaytirish;

b) tarbiyaviy – o'quvchilarda ishlab chiqarish sohalaridagi kasblarga nisbatan qiziqish uyg'otish, ularda yangilikga intilish hissini tarbiyalash;

v) rivojlantiruvchi – o'quvchilarning yangi texnika va ilg'or texnologiya haqidagi bilimlarini rivojlantirish;

**Kasbga yo'naltiruvchi maqsad:** o'quvchilarning ishlab chiqarish sohalaridagi yangiliklarni qo'llashga oid bilimlarini kengaytirish orqali ularni shu kasblarga bo'lgan qiziqishlarini mustahkamlash, biror kasbni tanlashlariga ko'maklashish.

#### **Darsning vazifalari:**

- turli materiallar haqida tushuncha berish;

- ilg`or texnika va texnologiyalar haqida ma`lumot berish;
- ishlab chiqarish sohasining rivojlanishi bevosita yangi texnika va ilg`or texnologiyalarni joriy etish bilan bog`liqligini tushintirish.

**Dars tipi:** yangi bilimlar berish.

**Dars turi:** nazariy.

**Darsda qo`llaniladigan o`qitish metodlari:** ma`ruza, suhbat, taqdimot, tushintirish.

**Fanlararo bog`lanish:** texnika, texnologiya, matematika, informatika, fizika iqtisodiy bilim asoslari va b.

**Dars jihozi:** tarqatma materiallar, kompyuter, proyektor, ekran, ishlab chiqarish sohasiga oid slaydlar, ko`rgazmalar va b.

**Darsning borishi:**

**Tashkiliy qism.**

**So`rash.** O`tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o`tkazish;

1. Mashinalar ishlab chiqarishda va turmushda qo`llaniladigan texnika vositalari boshqalardan nima bilan farqlanadi?

2. Mashinalar vazifasiga ko`ra qanday tasniflanadi?

3. Hozirgi zamon ishlab chiqarish texnologiyasi qanday yo`nalishlar bo`yicha takomillashmoqda?

4. Chiqindisiz va kam chiqindili texnologiya nima?

5. Maktab ustaxonasida metall va yog`ochga ishlov berishda hosil bo`ladigan chiqindilarini qanday qilib kamaytirish mumkin?

**III. Yangi mavzu bayoni.**

Reja:

1. Materiallarni kesish, qirqish, biriktirish va payvandlash orqali amalga oshiriladigan texnologik jarayonlar

2. Gazlamalarning olinishi, ularni bichish-tikish, pardozlash mahsulotlarga birinchi va ikkinchi ishlov berish hamda yarim fabrikatlar orqali amalga oshiriladigan texnologik jarayonlar

**O`qituvchi uchun metodik tavsiya**

Bilamizki, mehnat ta`limi darslari quyi sinflardan boshlab tashkil etiladi. O`g`il bolalarga "Texnologiya va dizayn", qizlarga "Servis hizmati" yo`nalishlari bo`yicha bilim, ko`nikma va malakalar o`rgatiladi. Shu sababli, "Mehnat predmetiga mexanik ta`sir etish orqali amalga oshiriladigan texnologik jarayonlar" mavzusini noan`anaviy usulda tashkil etishni maqsadga muvofiq deb topdik. Chunk har ikkala yo`nalish bo`yicha ham o`quvchilar 5-7-sinflarda va 8-sinfning II-choragida o`tilgan mavzular bo`yicha kerakli bilim, ko`nikmalarga ega bo`lganlar. Shu bois ushbu darsni tashkil etishda grafikli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o`quvchilarni mehnat ta`limi darslarida faol ishtirok etishini, mehnat ta`limi mazmuniga oid o`rganilayotgan tushunchalarni, murakkablik darajalari turlicha bo`lgan mavzularni fanlararo amalga oshirilayotgan aloqadorlik va o`zaro bog`liqlik o`rnatishni, tahlil qilish, solishtirish va taqqoslash, topshiriqli muammolarini aniqlash, ularni hal etish va berilgan amaliy topshiriqlarni rejalashtirish, tafakkur qilish va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Grafikli organayzerlar** (tashkil etuvchi) – fikriy jarayonlarni ko`rgazmali taqdim etish vositasi hisoblanadi. Bu esa o`z ichiga quyidagi usullarni qamrab oladi.

- mavzuga oid ma`lumotlarni tarkiblashtirish, o`rganilayotgan tushunchalar o`rtasidagi o`zaro bog`liqliklarni o`rnatish usul va vositalari: “Klaster”, “Toifalash jadvali”, “Insert”, “B/B/B” jadvali va b,
- mavzuga oid ma`lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslash usul va vositalar: “T-jadvali”, “Venn diagrammasi”, “Zinama-zina” va b,
- mavzuga oid qo`yilgan muammani aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalashtirish usullari va vositalari: “Nima uchun?”, “Baliq skeleti”, “Piramida”, “Nilufar guli” sxemalari, “Qanday?” “Terarxik diagrammasi”, “Kaskad” tarkibiy-mantiqiy sxema va b.

Darslar davomida o`quvchilarga o`quv materialni ko`rgazmali shakli orqali o`qitish samaradorligi natijaviyligiga erishish mumkin. Chunki xalqimizda bir naql bor: “Ming marta eshitgandan ko`ra bir marta ko`rgan afzal”. Shunday ekan, yuqorida keltirilgan grafikli organayzerlardan foydalanishga doir tavsiyalarni “Texnologiya va dizayn” va “Servis xizmati” yo`nalishlari bo`yicha o`tiladigan ushbu mavzu misolida tayyorlangan ko`rgazmali materiallar asosida ko`rib chiqamiz.

### “Texnologiya va dizayn” yo`nalishi bo`yicha.

“Nilufar guli” grafikli organayzerida foydalanish bo`yicha tavsiya.

“Nilufar guli” grafikli organayzeri chizmasi- muammoni yechish vositasi. O`zida nilufar guli ko`rinishini namoyan qiladi. Uning asosida to`qqizta katta to`rt burchak tashkil etadi va tizimli fikrlash, tahlil qilish ko`nikmalarini rivojlantiradi va faollashtiradi.

“Nilufar guli” grafikli organayzeri chizmasini tuzish qoidalari:

- o`quvchilar alohida kichik guruhlariga ajratiladi va belgilangan tartibda o`quvchilar tomonidan chizma tuziladi: to`rt burchak markazida avval asosiy muomma (g`oya, vazifa) yoziladi. Uni yechish go`yalari esa markaziy to`rt burchakning atrofida joylashgan sakkizta to`rt burchakka yozilgan g`oyalarni, atrofda joylashgan sakkizta to`rt burchaklarning markaziga yoziladi, ya`ni gulning barglariga olib chiqiladi. Shunday qilib, uning har biri o`z navbatida yana bir muammodek ko`riladi;
- kichik muammolarni, ularning har biridan esa, kichik muammoni batafsil ko`rib chiqish uchun “kichik shoxchalarni” chiqariladi. Shunga asosan har bir g`oyani batafsil kuzatish lozim;
- amaliy nuqtai nazardan barcha g`oyalarni ixcham deb tasavvur qiling (bitta-ikkitasi bilan chegaralaning), bu ham aql uchun foydali mashq hisoblanadi;
- sizga katta qog`oz varag`i zarur bo`ladi. Doimo o`zingiz mushohadalaringiz natijasini bir varaq qog`ozda ko`rish foydali hisoblanadi. Qarama-qarshi holda esa sizga bir varaqdan boshqasiga sakrab yurishingizga va bunda zaruriy biror muhim narsani unutishingizga olib keladi.


### Ish natijalarining taqdimoti

“Nilufar guli” grafikli organayzeri chizmasini mavzu bo`yicha quyidagicha tartibda ishlab chiqish mumkin:

Mavzuga oid “Nilufar guli” grafikli organayzeri chizmasi tuzilishi

|     |                  |     |     |   |     |
|-----|------------------|-----|-----|---|-----|
| ... | ...              | ... | ... | ...                                     | ... |
| ... | Kesish – bu ...? | ... | ... | Xavfsizlik texnikasi qoidalarini bilish | ... |


**“Zinama-zina”** grafikli organayzeri. “Zinama-zina” grafikli organayzeri asosida marraga kim birinchi chiqish texnologiyasining sxematik tuzilishi bo`yicha o`tilgan mavzularni mustahkamlash samarali hisoblanadi. Quyida uning sxematik tuzilishi keltirilgan bo`lib, mavzuga oid savollar ketma-ketligi oddiydan murakkabga qarab tuziladi.



**“Servis xizmati”** yo`nalishi bo`yicha.

**“Nima uchun”** grafikli organayzeri chizmasini tuzish qoidalari:

1. Aylana yoki to`g`ri to`rtburchak shakllardan foydalanishni o`zingiz tanlaysiz.
2. Chizmaning ko`rinishi-mulohazalar zanjiri to`g`ri chiziqlimi, nato`g`ri chizikli emasligini o`zingiz tanlaysiz.
3. Yo`nalish ko`rsatgichlari sizning qidiruvlaringizni ya`ni dastlabki halotdan izlanishgacha bo`lgan yo`nalishingizni belgilaydi.  
Mavzuga oid **“Nima uchun”** grafikli organayzeri chizmasi tuzlishi




### **“Qanday-qanaqa” grafikli organayzerini qurish qoidalari bo`yicha tavsiya**

1. Ko`pgina hollarda savollarga javob berish “Nima qilish kerak”ligi to`grisida o`ylanib qolmasligingiz kerak. Asosan savollarga javob berishda “Bunday javob berish kerak?”, “Qanday” asosiy savollar yuzaga kelishidan iborat bo`ladi. “Qanday” savollarining izchil berilishi quyidagi imkoniyatlarni beradi: savol javobini topish nafaqat bor-imkoniyatlarini, balki ularni amalga oshirish yo`llarini ham tadqiq qilish; quyidan yuqoriga bosqichma –bosqich bo`ysunadigan savollar tuzilmasini aniqlaydilar. Bunda o`quvchilar eng oddiy darajali savollar bilan ishlashni boshlaydi. Savollarga javob berish va muammoni yechishning pastki darajasi birinchi galdagi harakatlarning ro`yxatiga mos keladi.

2. “Qanday-qanaqa” grafikli organayzeri chizmasi hech qachon tugallangan bo`lmaydi: unga yangi savollarni kiritish mumkin; agarda chizmada savol uning “Shoxlarida” bir necha bor qaytarilsa, unda u biror muhimlikni anglatadi. U savolga javob berishning asosiysi bo`lishi mumkin; yangi savollarni grafik ko`rinishida: daraxt yoki kaskat ko`rinishidami, yuqoridan pastgami yoki chapdan o`ngda qayd qilishini o`zingiz hal etasiz; agarda siz o`zingizga tog`ri savollar bersangiz va uning rivojlanishi yo`nalishini namoyon bo`lishida ishonchni saqlasangiz, “Qanday-

qanaqa” grafikli organayzeri yordamida siz har qanday savolni javobini topishingizni kafolatlaydi.



“Qanday-qanaqa” grafikli organayzeri chizmasi.

- V. **Dars yakunlash.**
1. **Yangi mavzu yuzasidan o`quvchilar bilimini mustahkamlash.**  
O`tilgan mavzu bo`yicha savol-javob o`tkazish.
  2. **Uyga vazifa berish.** O`quvchilar mavzu asosida qo`shimcha materiallarni to`plash va mustaqil ishlash asosida grafikli organayzerlarda berilgan savollarga javob berish

### 23-24-dars.

“Texnologiya va dizayn” hamda “Servis xizmati” yo`nalishlari uchun.

|        |  |
|--------|--|
| Mavzu: | <b>ishlab chiqarishda amalga oshiriladigan kimyoviy va fizik-texnologik jarayonlar</b> |
|--------|--|

#### Darsning maqsadi:

- a) *ta`limiy*- o`quvchilarga ishlab chiqarishda amalga oshiriladigan kimyoviy va fizik- texnologik jarayonlar haqida tushuncha berish;
- b) *tarbiyaviy*- o`quvchilarda ishlab chiqarishda ilg`or fan va texnika hamda texnologiyalardan foydalanish bo`yicha qiziqish uyg`otish;
- v) *rivojlantiruvchi*- o`quvchilarning ishlab chiqarishda fan-texnika yangiliklardan foydalanishga oid bilimlarni kengaytirish.

**Kasbga yo`naltiruvchi maqsad:** o`quvchilarning ishlab chiqarish sohalarida yangiliklarni qo`llashga oid bilimlarini kengaytirish orqali ularni shu kasblarga bo`lgan qiziqishlarini mustahkamlash, biror kasbni tanlashlariga ko`maklashish.

### **Dars vazifalari:**

- O'zbekistondagi asosiy ishlab chiqarish turlari haqida ma'lumot berish;
- O'zbekistondagi ishlab chiqarish sohalari ko'p tarmoqli ekanligini tushintirish;
- ishlab chiqarish sohasining bir-biri bilan o'zaro bog'liqlik holda rivojlantirish uqtirish;

-mamlakat va jamiyatning qudrati va rivojlanishi bevosita ishlab chiqarish sohasining rivojlanishini bilan bog'liqligini anglatish.

**Dars tipi:** yangi bilimlar berish.

**Dars turi:** nazariy.

**Darsda qollaniladigan o'qitish metodlari:** ma'ruza, suhbat, tushintirish.

**Fanlararo bog'lanish:** texnika, texnologiya, matematika, informatika, fizika, iqtisodiy bilim asoslari va b.

**Dars jihozi:** tarqatma materiallar, kompyuter, proyektor, ekran, ishlab chiqarish sohasiga oid slaydlar, ko'rgazmalar va b.

### **Darsning borishi:**

#### **I. Tashkiliy qism.**

#### **II. O'tilgan darsni so'rash va baholash:**

1. Texnologik jarayon nima?

2. Mehnat predmetiga mexanik ta'sir etish qanday amalga oshiriladi?

Mehnat ta'limi ustaxonalarida mexanik ta'sir etish jarayonlariga misol keltiring.

#### **III. Yangi mavzuni bayon qilish.**

Reja:

1. Texnologiya tushunchasi haqida.

2. Kimyoviy va fizik- texnologik jarayonlar.

Texnologiya deganda biror sanoat tarmog'ining usul va vositalarini (ishlab chiqarishni) bayon etish tushiniladi. Masalan, metalga ishlov berish usuli va vositasi, mashina va apparatlarni tayyorlash usul yoki vositalari mashinasozlik texnologiyasi fani asosini tashkil etadi. Mexanik texnologiya jarayonida mexanik ta'sir bilan ishlov berilayotgan moddaning tashqi ko'rinishi yoki fizik xossalarini o'zgartiradi, ammo ularning kimyoviy tarkibiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Kimyoviy texnologiya jarayonlari tabiatiga ko'ra murakkab kimyoviy va fizikaviy xossalariga asoslangan xomashyoni kimyoviy qayta ishlashini o'z ichiga oladi. Zamonaviy kimyoviy texnologiya tabiiy va texnika fanlari yutuqlaridan foydalanib, fizikaviy va kimyoviy jarayonlar, mashina va apparatlar, ushbu jarayonlarning unumli usullarini amalga oshirish va turli modda, mahsulot, material, buyumlarni sanoatda ishlab chiqarishni boshqarishni o'rganadi.

Texnologiya iborasi yunoncha "tehnos"- san'at, hunar va "logos"-bilim, fan ma'nosini bildirib, xomashyoni foydali mahsulotlarga aylantirish usullarini ko'zda tutadi. Dastlabki xomashyolarni qayta ishlash va olingan yo'nalishlariga qarab metallar texnologiyasi (ularning olinishi va ishlov berilishi), mashinasozlik texnologiyasi (mashinalarni va apparatlarni tayyorlash), oziq-ovqat texnologiyasi (oziq-ovqat mahsulotlari olish) va boshqalarga bo'linadi.

Xom ashyo va materiallarni mahsulotga aylantirish jihatlari hamda jarayonlari yig'indisi texnologik jarayon asosini tashkil etadi. Kimyoviy –texnologik jarayon –

dastlabki ashyolarni maqsadli ravishda mahsulotga ketma-ket ravishda aylantirish jarayoni bo`lib, kimyoviy va fizik-kimyoviy jarayonlarning mujassamlashuvidir. Gazlamaga ishlov berishda ip gazlamani pardoqlashdagi asosiy operatsiyalar: tuk kuydirish, oharni yuvish, qaynatish, oqartirish, bo`yash, gul bosish va yakunlovchi pardoqlash operatsiyalari bajariladi, bunda kimyoviy va fizik jarayonlar amalga oshiriladi.

#### **IV. Yangi o`tilgan mavzuni mustahkamlash va baholash:**

1. Texnologiyani ma`nosini aytib bering.
2. Kimyoviy va fizik texnologik jarayonlar haqida gapirib bering.
3. Mehnat ta`limi darslarida amalga oshiriladigan texnologik jarayonlarga misol keltiring.

#### **V. Darsni yakunlash (xulosalash) va uyga topshiriq berish:**

### **25-26-dars.**

“Texnologiya va dizayn” hamda “Servis xizmati” yo`nalishlari uchun

|               |   |
|---------------|---|
| <b>lavzu:</b> | <b>an-texnika taraqqiyotini jadallashtirish omillari va istiqboli</b> |
|---------------|---|

#### **Darsning maqsadi:**

- a) ta`limiy- o`quvchilarga mamlakatimizda amalga oshiriladigan fan-texnika taraqqiyoti istiqbollari to`g`risida ma`lumot berish;
- b) tarbiyaviy- o`quvchilarda ishlab chiqarish sohalaridagi kasblarga nisbatan qiziqish uyg`otish, ularda yangilikka intilish hissini tarbiyalash;
- v) rivojlantiruvchi- o`quvchilarning yangi texnika va ilg`or texnologiya haqidagi bilimlarni rivojlantirish.

**Kasbga yo`naltiruvchi maqsad:** o`quvchilarning ishlab chiqarish sohalarida yangiliklarni qo`llashga oid bilimlarni kengaytirish orqali ularni shu kasblarga bo`lgan qiziqishlarini mustahkamlash, biror kasbni tanlashlariga ko`maklashish.

#### **Darsning vazifalari:**

- yangi texnika va ilg`or texnologiya haqida tushuncha berish;
- ishlab chiqarish sohalarida yangi texnika va ilg`or texnologiyalarni joriy etishning afzalliklari va qiyinchiliklari haqida ma`lumot berish,



-ishlab chiqarish sohalarining rivojlanishi bevosita yangi texnika va ilg`or texnologiyalarni joriy etish bilan bog`liqligini tushuntirish .

**Dars tipi:** yangi bilimlar berish.

**Dras turi:** nazariy.

**Darsda qo`llaniladigan o`qitish metodlari:** ma`ruza, suhbat, taqdimot, tushuntirish.

**Fanlararo bog`lanish:** texnika, texnologiya, matematika, informatika, fizika, iqtisodiy bilim asoslari va b.

**Dars jihozi:** tarqatma materiallar, kompyuter, ekran, ishlab chiqarish sohalariga oid slaydlar, ko`rgazmalar va h.

**Drasning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

**II. O`tilgan mavzuni so`rash.** O`tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o`tkaziladi:

1. Texnologiya so`zining ma`nosini aytib bering.
2. Kimyoviy va fizik texnologik jarayonlar haqida gapirib bering.
3. Mehnat ta`limi daslarida amalga oshiriladigan jarayonlar haqida gapiring.
4. Texnologik jarayonlarga misol keltiring.

### **III. Yangi mavzu bayoni.**

leja:

1. Fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishning asosiy yo`nalishlari.
2. Yangi materiallar va zamonaviy texnologiyalar.

#### **1. Fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishning asosiy yo`nalishlari.**

Zamonaviy fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini egallash, ishlab chiqarishning fan yutuqlari va mehnat ko`p sarflanadigan tarmoqlarini jadal rivojlantirish kerak. Mashinasozlik, radioelektronika, asbobsozlik korxonalarini tubdan yangilash va yangilarini qurish hamda chiqarilayotgan mahsulotlarni yangilash vazifasi bugungi kunda dolzarb bo`lib turibdi.

Fan-texnika taraqqiyoti jadallashtirish-davlatimiz iqtisodiy siyosatining tub masalasidir. Barcha ilg`or yangiliklarni tez va keng miqyosda o`zlashtirish, ishlab chiqarish kuchlarini sifat jihatdan yangilash eng muhim vazifadir. Shunga ko`ra resurslar fan-texnika taraqqiyotining barcha sohalarini kompleks avtomatlashtirishni, ishlab chiqarish texnologiyasi va yangi materiallar tayyorlashni rivojlantirish ko`zda tutilmoqda.

Yangi texnologiyalar masalan, plazma, lazer, impuls, radiatsiya, quyosh energiyasidan foydalanish, nanotexnologiya va sanoatda sezilarli o`rin olmoqda. Ulardan ko`zlangan maqsad mehnat unumdorligini ancha oshirish, resurslardan foydalanish samaradorligini yuksaltirish, ishlab chiqarishda energiya va material sarfini kamaytirishdir. Qishloq xo`jaligida, xususan dehqonchilik va chorvachilikda ham industrial, intensiv texnologiyaga o`tish, biotexnologiya metodlarini qo`llash amalga oshirilmoqda.

Xo`jalik faoliyatining turli sohalarida avvalo, asbob-anjomlarni, texnologik jarayonlarni loyihalashtirishda hamda boshqarishda avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish lozim, kerakli mahsulotni tayyorlashga tez va isrofgarchiliksiz

moslashadigan kompleks-avtomatlashgan ishlab chiqarishni barbo qilish moljallanmoqda. Yuksak samarali texnikaning yangi avlodlarini yaratish va joriy etishni jadallashtirish, mashinalar tizimlarini hamda texnologik asbob-uskunalar komplekslarini ishlab chiqarishga o'tish vazifasi qo'yilmoqda.

Xalq xo'jaligini kompyuterlashtirish keng tus olib borayotgani sababli ishlab chiqarishning barcha sohalarini yanada mukammal hisoblash texnikasi vositalari bilan ta'minlash zarur. Bu tadbir iqtisod va boshqarishning informatsion-texnik bazasini tubdan qayta qurishni amalga oshirish imkonini beradi.

Fan-texnika taraqqiyotining yo'nalishlaridan biri- oldindan belgilangan xossalarga, ayniqsa, progressiv konstruksion xossalarga ega bo'lgan, jumladan, sintetik, kompozitsion, o'ta toza va boshqa materiallar yaratishdir. Ularni ishlab chiqarishga joriy etish metallar va qotishmalarni, qimmatli tabiiy materiallarni tejash imkonini beradi.

Energiyani tejashga, uning yangi manbalaridan foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. Quyosh energiyasi, shamol energiyasi va boshqa muqobil energiya manbalardan foydalanishni keng rivojlantirish mamlakatimiz energetika sanoatini sifat jihatdan yangi asosda qayta qurish va organik yoqilg'ining o'ta kamyob turlari sarflanishini kamaytirish imkonini beradi.

Yuqori kategoriyadagi sifatli sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni ancha ko'paytirish, texnikaning ishonchligini oshirish va ekspluatatsiya muddatlarini uzaytirish mo'ljallanmoqda. Shu maqsadda sifatni boshqarishning kompleks tizimi joriy etilmoqda. Fan-texnikaning istiqbolli yutuqlari asosida detallar, qismlar va texnologiyalarni tarmoqlar hamda tarmoqlararo unifikasiyalash amalga oshirilmoqda.

Fan-texnika taraqqiyotining yuqorida ko'rib chiqilgan va boshqa barcha turdagi yo'nalishlarini muvoffaqiyatli amalga oshirish fanning ishlab chiqarish bilan maksimal darajada yaqinlashuviga, "Ilmiy g'oya- ishlab chiqarish- joriy etish" jarayonning tezlashuviga yordam beradi. Shunga ko'ra ilmiy- ishlab chiqarish birlashmalarining tarmoqlari rivojlantirilmoqda, tarmoqlararo ilmiy-texnik komplekslar, ya'ni fan bilan ishlab chiqarishni birlashuvining prinsipial yangi shakli kengaytirilmoqda.

Jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi, moddiy ishlab chiqarish sohasining rivojlanishi va murakkablashib borishi, fan-texnika taraqqiyoti omili rolining o'shib borishi nomoddiy nematlarga bo'lgan talabning ko'payishiga olib keladi.

Fan-texnika taraqqiyotini rivojlantirishda, ko'p mehnat va ilm-fan yutuqlaridan foydalanish talab qilinadigan zamonaviy yangi ishlab chiqarishni o'zlashtirishda tashabbuskor bo'lish, respublikamizning kelajak yo'lini ochib berishi lozim. Shuning uchun biz tanlagan bosh yo'l –respublikaning barcha tabiiy boyliklarini – paxta, metallar, pilla, gaz, meva- zabzavot va boshqa mahsulotlarni qayta ishlashni ko'paytirishdan iborat hisoblanadi. Bu vazifani fan-texnika yutuqlariga asoslangan sermehnat ishlab chiqarishni, malakali mutaxassis va mehnatkashlarning barcha tabaqa vakillari saviyasining o'sishini ta'minlamasdan bajarib bo'lmaydi. Bu esa o'z navbatida ishga ijodiy, qiziqish bilan yondashish, kam sarflab eng yuqori natijalarga va mahsulotning yuksak sifatli bo'lishiga erishish uchun intilish-olg'a tomon harakatning, xalq farovonligini va mamlakatimiz qudratini oshirishning garovi hisoblanadi.

**2. Yangi materiallar va zamonaviy texnologiyalar.** Hozirgi texnika uchun belgilangan xossalarga ega bo'lgan xilma-xil materiallar kerak. Bunday materiallar, masalan, juda katta yuk yoki issiqlik va sovuqqa chidamli, muayyan fizik-kimyoviy xossalarga ega bo'lishi (turli muhitga, haddan tashqari yuqori yoki past elektr o'tkazivuchanlikka dosh bera olish) lozim. Buning zarurligini texnika murakkab sharoitlarida ishlatilganida yuqori darajada mustahkamligi va ishlash qobiliyatini saqlash kerakligi bilan izohlash mumkin. Masalan, kosmik kema uchayotganida bosim va vibratsiyaga, temperaturaning keskin farqlanishiga, quyosh radiyasiyasining ta'siri va hokazolarga duch keladi. Demak, bunday apparatlar uchun o'ta qattiq, issiqqa chidamli materiallar kerak. Aslida esa bunday materiallar tabiatda yo'q. Turli kimyoviy elementlarni birlashtirish oldindan belgilangan xossalarga ega bo'lgan yangi materiallarni hosil qilish mumkin.

Yangi materiallar faqat kosmosdagina zarur emas. Sanoat va qishloq xo'jalik texnikasini ishlatish sharoiti ko'pincha ana shu texnika tayyorlanadigan material bir necha xossalarga ega bo'lishini, masalan, ham vibratsiyaga chidamli, ham yuqori darajada mustahkam va oson ishlov beriladigan bo'lishini taqozo etadi. Lekin yangi materiallar yaratish zarurligi faqat murkkab ekspluatasiya shroiti bilan bog'liq emas. Ishlatib kelinayotgan qotishmalarning ayrim tarkibiy materiallari juda qimmat, ularning tabiiy zapaslari cheklangandir.

Yangi materiallar yaratishda ularga ishlov berish imkoniyatlari ham hisobga olinadi. Masalan, juda qattiq qotishmalardan zagotovkalar kesishda ularga nisbatan qattiqroq materiallardan yasalgan asbob-uskuna va moslamalar bo'lishi shart.

Yangi materiallar (plastmassalar, sintetik kauchuklar, smolalar, sun'iy olmos va hokozolar) tufayli yangi texnologiyalar vujudga keladi. Chunonchi mashinasozlikda sintetik olmoslardan foydalanish detallar praktat qilinganidan so'ng tokarlik ishlarisiz silliqlash yoki issiqligicha shlifovkalash imkonini beradi. Faqat yangi materiallar emas, balki energiyaning yangi turlari ham yangi texnologiyalar yaratishgda yordam beradi. Bu jihatdan lazer, elektron-nur, plazma texnologiyalari alohida e'tiborga loyiqdir.

Kam chiqindili va chiqindisiz texnologiyalarni keng joriy qilish fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishning muhim yonalishidir. Sizlar metall qirqish stanoklarida ishlayotganingizda anchagina metall qirindiga aylanishini ko'rgansiz. Ko'p hollarda dastlabki materiallarning 70-80 foizini chiqindilar tashkil etadi. Xuddi shu sababli, xususan, mashinasozlikda metallarni qirqish bilan ishlash o'rniga chiqindisiz va kam chiqindilib texnologik usullarni qo'llash nihoyatda muhim ahamiyatga egadir. Bu esa yengil sanoat va tikuvchilikda ham juda muhim omillrdan hisoblanadi.

Zamonaviy ishlab chiqarishga yangi materiallarni, ilg'or texnologik jarayonlarni joriy etish, an'anviy texnologik jarayonlarni intensivlashtirish xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'lidir.

#### **IV. Dars yakunlash.**

##### **1. Yangi mavzu yuzasidan o'quvchining bilimini mustahkamlash.**

1. Fan-texnika taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini ayting.
2. Fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishda ta'limning o'rnini qanday ahammiyatga ega?

3. Fan-texnika taraqqiyoti jamiyatimizni, uning har bir aʼzosi hayotini takomillashtirishga qanday taʼsir koʻrsatadi?

**vazifa berish.** Oʻquvchilarga mavzu asosida qoʻshimcha materiallarni toʻplash va refarat tayyorlashni tashkil etadi.

## 27-28 dars.

“Texnologiya va dizayn” hamda “Servis xizmati” yoʻnalishlari uchun.

|               |  |
|---------------|--|
| <b>lavzu:</b> | <b>adrlar tayyorlash, malakasini oshirish yoʻnalishlari, tartibi</b> |
|---------------|--|

**ing maqsadi:**

- a) *taʼlimiy*- oʻquvchilarga kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish yoʻnalishlari va tarkibi haqida tushuncha berish, ularga Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida” va “Kadrlar tayyorlash milliy tasturi toʻgʻrisida”gi Qonunlarining mazmuni, mohiyatini tushuntirish;
- b) *tarbiyaviy*- oʻquvchilarda taʼlim olishga, kasb-hunarga boʻlgan qiziqishini rivojlantirish;
- ) *rivojlantiruvchi*- oʻquvchilarning taʼlim olish va hunar oʻrganish imkoniyatlari haqidagi bilimlarini kengaytirish.

**Kasbga yoʻnaltiruvchi maqsad:** oʻquvchilarga kasb-hunar oʻrgatish sohasidagi imkoniyatlari, burchlari va huquqlarini tushuntirish orqali ularni shu kasblarga boʻlgan qiziqishlarini mustahkamlash, biror kasbni tanlashlariga koʻmaklashish.

**Darsning vazifasi:**

- Oʻzbekiston respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi toʻgʻrisidagi Qonunlari haqida maʼlumot berish, har bir fuqoraning taʼlim olishi taʼminlanganligini tushuntirish;
- Oʻzbekistonda joriy etilgan taʼlim turlari haqida maʼlumot berish va uning uzviyligini tushuntirish;
  - Taʼlim tizimida boʻlayotgan yangi oʻzgarishlar haqida maʼlumot berish.

**Dars tipi:** Yangi bilimlar berish.

**Dars turi:** nazariy.

**Darsda qoʻllaniladigan oʻqitish metodlari:** maʼruza, suhbat, tushuntirish.

**Fanlararo boʻgʻlanish:** tarix, xalq taʼlimi sohasi va b.

**Dars jihozi:** tarqatma materiallar, kompyuter, ekran, ishlab chiqarish sohalariga oid slaydlar, koʻrgazmalar va h.

**Dars turi:** Yangi bilimlar berish.

**Darsda qoʻllaniladigan metodlar:** maʼruza, suhbat.

**Darsning borishi:**

I. Tashkiliy qisim.

II. Oʻtilgan dasni soʻrash va baholash:

1. Ishlab chiqarishda fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishning asosiy yo`nalishlarini ayting.
2. Nima uchun hozirgi bosqichda texnologik jarayonlarni takomillashtirishga alohida etibor berilmoqda ?
3. Ishlab chiqarishni avtomatlashtirishning ahamiyati nimada?
4. Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish mahsulot sifatiga va ishchi-xizmatchilar mehnati unumdorligiga qanday ta`sir ko`rsatadi?

### Yangi mavzuni bayon qilish.

Reja:

1. “Ta`lim to`g`risida” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to`g`risida”gi Qonunlarning mazmun mohiyati.
2. Kadrlarni tayyorlash. Malakasini oshirish yo`nalishlar tartibi.

O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi Qonun 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan. Ushbu Qonunlarning maqsadi fuqarolarga ta`lim-tarbiya berish, kasb-hunar o`rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitusiyaviy huquqini ta`minlashga qaratilgan , O`zbekiston Respublikasining ta`lim tizimi quyidagi turlarda amalga oshiriladi.


- maktabgacha ta`lim;
- umumiy o`rta ta`lim;
- o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi;
- oliy ta`lim;
- oliy o`quv yurtidan keyingi ta`lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta`lim;

Maktabgacha ta`lim bola shaxsini sog`lom va yetuk, maktabdagi o`qishga tayyorlagan tarzda shakllantirish maqsadini ko`zlaydi. Bu ta`lim olti-yetti yoshgacha oilada, bolalar boqchasida va mulk shaklidan qat`iy nazar boshqa ta`lim muassasalarida olib boriladi.

Umumiy o`rta ta`lim. Umumiy o`rta ta`lim bosqichlari quyidagicha:

- boshlang`ich ta`lim (I-IV sinflar);
- umumiy o`rta ta`lim (I-IX sinflar);

O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limini olish maqsadida har kim umumiy o`rta ta`lim asosida akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o`qishning yo`nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega. Akademik liseylar va kasb-hunar kollejlarda egallagan kasb-hunar bo`yicha ishlash huquqini beradigan hamda bunday ish yoki ta`limni navbatdagi bosqichda davom ettirish uchun asos bo`ladigan o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi beradi.



*O`zbekiston Respublikasida joriy etilgan uzluksiz ta`lim tizimi sxemasi.*

Oliy ta`lim yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni taminlaydi.

Oliy ma`lumotli mutaxassislar tayyorlash, oliy o`quv yurtlarida o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi asosida amalga oshiriladi. Oliy ta`lim ikki bosqich: bakalavrluk va magistraturaga ega.

Oliy o`quv yurtidan keyingi ta`lim jamiyatning yuqori malakali ilmiy-pedagogik kadrlarga bo`lgan ehtiyoqlarini ta`minlashga qaratilgandir.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kasb bilimlari va ko`nikmalarini chuqurlashtirish hamda yangilashni ta`minlaydi. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Maktabdan tashqari ta`lim bolalar va o`smirlarning yakka tartibdagi ehtiyoqlarini qondirishga qaratilgan, ularning bo`sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo`nalishlarda maktabdan tashqari ta`lim muassasalarini tashkil etishlari mumkin. Maktabdan tashqari ta`lim muassasalariga bolalar, o`smirlar ijodiyot saroylari, uylari, klublari va markazlari, bolalar-o`smirlar sport maktablari, san`at maktablari, musiqa maktablari, studiyalar, kutubxonalar, sog`lomlashtirish muassasalari va boshqa muassasalar kiradi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to`g`risida”gi qonun ham 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan. Maqsadi: ta`lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o`tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to`la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma`naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdan iborat.

Kadrlar tayyorlashning milliy modeli:

**Shaxs-** kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub`ekti va ob`ekti, ta`lim sohasidagi xizmatlarni iste`molchisi va ularni amalga oshiruvchisi.

**Davlat va jamiyat-** ta`lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari.

**Uzluksiz ta`lim** - malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi.

**Fan** – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi ilg`or pedagogik va axborot texnologiyalarni ishlab chiquvchi.

**Ishlab chiqarish** – kadrlarga bo`lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo`yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi.



### III. Yangi o`tilgan mavzuni mustahkamlash va baholash.

1. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qachon qabul qilingan?
2. Ta'lim to'g'risidagi Qonunning maqsadini ayting?
3. Kadrlar tayyorlash milliy modelini ayting.
4. Ta'lim turlarini ayting.

### IV. Darsni yakunlash (xulosalash) va uyga topshiriq berish.

## 29 – dars.

“Texnologiya va dizayn” hamda “Servis hizmati” yo`nalishlari uchun

|              |   |
|--------------|---|
| <b>lavzu</b> | <b>Mulkchilik turlari, marketing va menejment faoliyatining<br/>vojlaniishi</b> |
|--------------|---|

### Darsning maqsadi:

- a) ta`limiy – o`quvchilarga mulkchilik turlari, marketing va menejment faoliyatining rivojlanishi haqida ma`lumot berish.
- b) tarbiyaviy – o`quvchilarda davlat mulki, shaxsiy mulk, xususiy mulkka nisbatan ijobiy munosabatlarini tarbiyalash;
- v) rivojlantiruvchi – o`quvchilarni marketing va menejment sohasiga hamda kasblariga oid bilimlarini kengaytirish.

**Kasbga yo`naltiruvchi maqsad:** o`quvchilarga marketing va menejment faoliyati haqida tushuncha berish orqali ularni shu kasblarga qiziqtirish, shu sohaga oid biror kasbni tanlashlariga ko`maklashish.

### Darsning vazifalari:

- O`zbekistondagi mulkchilik turlari, marketing va menejment faoliyatining rivojlanishi haqida ma`lumot berish;
- marketing va menejment faoliyati haqida ma`lumot berish;
- ishlab chiqarish sohalarida marketing va menejment faoliyatining ahamiyatini uqtirish;

**Dars tipi:** Yangi bilimlar berish.

**Dars turi:** nazariy.

**Darsda qo`llaniladigan o`qitish metodlari:** ma`ruza, suhbat, tushuntirish.

**Fanlararo bog`lanish:** texnika, texnologiya, matematika, iqtisodiy bilim asoslari va b.

**Dars jihozi:** tarqatma materiallar, kompyuter, proyektor, ekran, ishlab chiqarish sohalariga oid slaydlar, ko`rgazmalar va h.

### Darsning borishi:

**I. Taskiliy qism.**

**II. O`tilgan darsni so`rash va baholash:**

O`tilgan mavzuga oid savollar orqali o`tilgan dars so`raladi va baholanadi.

**III. Yangi mavzuni bayon qilish.**

Reja;

1. Mulkchilik turlari haqida.
2. Marketing faoliyati haqida.
3. Menejment faoliyati haqida.



Bozor iqtisodiyoti mulkchilik shakllarining xilma – xil bo`lishini talab qiladi, chunki tovar mulk ob`ekti bo`lgandagina oldi-sotdi qilinadi. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham: “ Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O`zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma – xil shakllardagi mulk tashkil etadi”, deb ta`kidlangan.

Jamiyat rivojining hozirgi rivojida bu mulk o`z ichiga davlat mulkidan tashqari, ishlab chiqarish, xizmat ko`rsatish va matbuot sohasidagi jamoa mulkining xilma – xil turlarini, ijtimoiy tashkilotlar mulkini, uy xo`jaligi va shaxsiy tomorqa xo`jaligi hamda yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan bo`g`liq bo`lgan mehnatkashlarning shaxsiy mulkini, tashqi iqtisodiy munosabatlar sohasidagi aralash mulk shakllarini va xususiy mulklarni oladi. Shu sababli “O`zbekiston Respublikasining mulkchilik to`g`risida”gi qonunida turli-tuman mulklar quyidagi mulk shakllariga kiritiladi, davlat mulki, xususiy mulk, aralash mulk. Quyidagi chizmada turli mezonlar asosida mulkchilik shakllarining tasniflanishi keltirilgan:



Davlat mulki – mulk davlatga tegishli bo`lganda mulkka egalik qilish, foydalanish va uni tasarruf qilish ixtiyorida bo`ladi. Davlat mulki asosan ikki yo`l bilan hosil bo`ladi.

1) xususiy mol-mulkni milliyashtirib, davlat hisobiga o`tkazish:

2) davlat mablag`lari hisobidan korxonalar qurish, davlatga qarashli korxonalar va tashkilotlarga investisiyalar kiritishni amalga oshirish.

Jamo'a mulki – muayyan maqsad yo`lida jamoaga birlashgan kishilar tomonidan moddiy va ma`naviy boyliklarni hamjihatlik bilan o`zlashtirishni bildiradi. Bir necha kishilardan iborat jamoaga tegishli bo`lgan mulk jamoa mulki deb yuritiladi.

Oilaviy mulk, mahalla ahli mulki, korxonalar jamoasi mulki, fermer xo`jaligi jamoasi mulki mamlakat aholisi mulkiga misol bo`la oladi. Agar sinfdoshlar pul yig`ib to`p sotib olsangiz, bu to`p ham jamoa mulki bo`ladi. Jamoa mulkiga jamoaning hamma a`zosi birgalikda egalik qiladi. Masalan, mahalla uchun hashar usulida qurilgan choyxona mahalla ahlining mulki hisoblanadi.

Biror shaxsning yolg`iz o`ziga tegishli bo`lgan mulk shaxsiy mulk deb ataladi. Shaxsiy mulk mulk shakllari ichida muhim o`rin tutadi. Shaxsiy mulk bu fuqarolar mulki bo`lib, ularning shaxsiy yoki oilaviy ehtiyojini qondirishga xizmat

qiladi. “shaxsiy mulk” bilan bir qatorda “xususiy mulk” iborasi ham ishlatiladi. “Aliyevning xususiy (yoki shaxsiy) firmasi bor”, degan soʻzlarni koʻp eshitgan boʻlsangiz kerak. Demak, tovar va xizmatlar ishlab chiqarishda foydalanilayotgan shaxsiy mulkni xususiy mulk deb atash ham mumkin ekan.

Xususiy mulk – ayrim sohiblarga qarashli yollanma mehnatga asoslangan va oʻz egasiga foyda keltiruvchi mulkdir. Turli shakldagi mulklarning birikib ketishi natijasida aralash mulk paydo boʻladi. Bu mulk alohida olingan obʻektning turli mulkdorlar ishtirokida oʻzlashtirilishini bildiradi.

Tovar ishlab chiqaruvchi va xizmat koʻrsatuvchi har qanday tashkilot korxonada deb ataladi. Siz bilgan zavod va fabrikalar, qurilish boshqarmasi, avtomobil, parki va taʼmirlash ustaxonalari, jamoa va fermer xoʻjaliklari, universitet, institut, kollej, litsey va maktablar, birja va banklar, kasalxonalar, bolalar bogʻchalari – bularning hamma-hammasi korxonada deb atalishi mumkin. Chunki ularda nimadir ishlab chiqariladi yoki qandaydir xizmat koʻrsatiladi.

Korxonada tovar ishlab chiqarilishini amalga oshirish murakkab va serqirra jarayon boʻlib, u odilona boshqarilishni taqazo etadi.

Maʼlumki, korxonada tovar ishlab chiqarish uchun ishchi kuchi, bino va asbob-uskunalar, xom-ashyo va materiallar, turli xil maʼlumotlar, pul mablagʻlarizarrur boʻladi. Qancha ishchi kuchi qancha va qanday xom-ashyo va materiallar kerak? Qaysi asbob-uskunalaridan foydalangan maʼqul? Ishlab chiqarishni qaysi texnologiya boʻyicha yuritgan yaxshiroq? Bularning hammasi uchun qancha pul mablagʻlari kerak? Ishlab chiqarish jarayonida bu va bunga oʻxshash oʻnlab savollar tugʻiladi, ularni yechish ancha murakkablashadi. Buning uchun ishlab chiqarish jarayonini boshqarish lozim boʻladi.

Korxonada tovar ishlab chiqarishni boshqarish jarayonini menejment, bu ish bilan. shugʻullanuvchi mutaxassislarni menejmentlar deb atashadi.

Menejer – yollanma professional boshqaruvchidir.

Rivojlangan davlatlarda kompaniya, bank, moliya muassasalari va ularga qarashli boʻlinmalarning rahbar xodimlari menejerlardir.

Menejerlar obligasiya zayomlari chiqarish (emissiya) va uni bozorda oʻtkazish bilan ham shugʻullanadigan rahbarlardir. Ular jamiyatning maxsus ijtimoiy qatlami boʻlib maʼmuriy-xoʻjalik rahbarligi sohasida ham maʼlum mustaqillikka ega.

Bozor iqtisodi sharoitida mejerlarning roli oshib bormoqda. Oʻzbekistonda ham bu soha xodimlari koʻpaymoqda. Xususan Toshkent iqtisodiyot dorilfununida, Toshkent boshqaruv va siyosatshunoslik institutida ham menejerlar tayyorlash yoʻlga qoʻyilmoqda.

Korxonada menejerlar odatda bir nechta boʻlib, ulardan biri bevosita mahsulot ishlab chiqarish jarayonini boshqarsa, biri xom-ashyo resurslari va materiallar taʼminotini boshqaradi. Yana biri mahsulot sifati va ishlab chiqarish texnologiyasini boshqarsa, boshqa biri korxonada xodimlarini boshqaradi va h.

Bozorni oʻrganish, narxlarni shakllantirish, mahsulotni sotish bilan bogʻliq ishlarni jamlab, bitta nom bilan marketing deb atashadi. Marketing xaridor ehtiyojlarini toʻlaroq qondirish asosida tovarlar va xizmatlar bozorida ayirboshlash jarayonlarini jadallashtirishga qaratilgan keng turdagi faoliyat boʻlib, uning asosiy maqsadi yuqori foyda olishni taʼminlashdir.

Marketing – bozor iqtisodiyoti munosabatlarining yetakchi tushunchalaridan biri. Marketing faqat bozordagi talay ehtiyojni qondirish vositasigina bo`lmay, balki ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun ham xizmat qiladi. Marketing bozor holatini o`rganish, uni oldindan baholash, tovar ishlab chiqarish va sotish orqali undan yaxshi foyda olishni ham uyushtiradi. Marketing ishi maxsus dasturlar orqali amalga oshiriladi. Marketing quyidagi asosiy qoidalarga amal qiladi:

1. Tovarga nisbatan bozor talabini o`rganish.
2. Tovar ishlab chiqarishga nisbatan korxonaning imkoniyatini o`rganish.
3. Xaridorning talab-ehtiyojini to`la qondirish va o`rganish.
4. Mo`ljallangan bozorda tovarlar aytilgan vaqtda, belgilangan miqdorda sotilishini tashkil qilish.
5. Korxonalarining bozor yo`nalishiga, xaridor talabiga moslashishini taminlaydi.

Tovar ishlab chiqaruvchilar marketing tufayligina bozor bilan uzviy bog`lanadilar, ishlab chiqarish manbalarini bozortalab tovarlar yaratishga qaratadilar. Bunday zamonaviy bozorshunoslar – marketing bilan shug`ullanuvchi, menejrlarning faoliyati, firmalar o`rtasidagi raqobat sharoitida korxonaning muvaffaqiyatini ta`minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Bu o`rinda to`g`ri tanlangan, vaqtda o`tkazilgan reklamaning o`rni ham beqiyosdir. Menejmentning – menejrlarning birgalikdagi hatti-harakati, oxir-oqibat, korxonani oqilona boshqarishga, ishlab chiqarish resurslaridan rejali foydalanib, ishlab chiqarish samaradorligini, mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan bo`ladi. Menejer qaysi sohani boshqarmasin, u avvalo odamlar bilan ishlaydi, ularni boshqaradi. Menejning qo`l ostidagi xodimlar bilan o`zaro munosabati, ular bilan muomalasi umumiy ish natijasiga bevosita ta`sir ko`rsatadi. Ishning umumiy muvaffaqiyatini oxir-oqibat menejer bilan xodimlar orasidagi insoniy munosabatlarga borib taqaladi

#### **IV. Yangi o`tilgan mavzuni mustahkamlash va baholash.**

1. Mulkning qanday asosiy shakllari bor?
2. Shaxsiy mulk qachon xususiy mulk deb yuritiladi?
3. Jamoa mulkiga egalik qilish deganda nimani tushunasiz?
4. Korxonada deb nimaga aytiladi?
5. Turli xil korxonalarga misollar keltiring.
6. Menejment nima? Menejerlar kim?
7. Korxonada menejerlar qanday soxalarni boshqaradi?
8. Marketing nima?

#### **V. Darsni yakunlash (xulosalash) va uyga topshiriq berish.**

### 30-dars.

“Texnologiya va dizayn” hamda “Servis xizmati” yo`nalishlari uchun.

|              |  |
|--------------|--|
| <b>lavzu</b> | <b>maliy mustaqil ishlar: Sanoat miqyosida ko`p seriyali ishlab chiqarish uchun tavsiya etish mumkin bo`lgan mahsulot namunasini (maketi, modeli) tayyorlash, unda qo`llanilgan xom-ashyo, ijodiy oya va dizayn yechimlarini asoslash.</b> |
|--------------|--|

#### O`qituvchiga metodik tavsiya

Bu mavzu umumiy ko`rinishga ega bo`lib, undan ko`zlangan maqsad o`quvchilarning sanoat miqyosida qanday ko`rinishdagi mahsulotlar ishlab chiqarishini bilishlarini aniqlashdan, shuningdek, ularni texnikada, uy-ro`zg`or ishlarida ko`p qo`llaniladigan mahsulotlarni, shu jumladan, yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish taklifini o`rtaga tashlashga o`rgatishdan iborat. Shu maqsadda o`qituvchi o`quvchilar oldiga ko`p ishlatiladigan mahsulotlarni sanashni va ularni qanday ishlab chiqarish mumkinligini aniqlashni vazifa qilib qo`yish mumkin. Quyida texnikada va uy-ro`zg`or ishlarida ko`p qo`llaniladigan ayrim buyum va mahsulotlarni keltirib o`tamiz.

“Texnologiya va dizayn” yo`nalishi bo`yicha – bolt, gayka, shayba, mix, burama mix, osma, zulpin, eshik, rom, stol, stul, kursi, beshik, sandiq, divan, so`ri, xontaxta, o`ymakorlik ishlari va h.

“Servis xizmati” yo`nalishi bo`yicha – dastro`mol, ro`molcha, peshpand, fartuk, qo`lqop, do`ppi, to`quvchilik, kashtachilik hamda zardo`zlik buyumlari va h.

## KASB TANLASHGA YO`LLASH

### 31- dars.

“Texnologiya va dizayn” hamda “Servis xizmati” yo`nalishlari uchun.

|               |   |
|---------------|---|
| <b>lavzu:</b> | <b>kasblar tasnifini, kasblarda mehnat turlarini ta’rifi</b><br>(odam-odam, odam-texnika, odam-tabiat, odam-belgili tizim, odam-badiiy obraz) |
|---------------|---|

#### Darsning maqsadi:

- a) ta’limiy- o`quvchilarda kasblarni mehnat qurollari bo`yicha tasniflash ko`nikmasini shakillantirish, muayyan tipdagi kasbga bo`lgan moyillikni aniqlash;
- b) tarbiyaviy - kasblarni tiplari bo`yicha tahlil qilish orqali o`quvchilarning ma`lum bir kasblarga nisbatan qiziqishlarini oshirish;
- v) rivojlantiruvchi – o`quvchilarni maktab atrofidagi ishlab chiqarish korxonalarida eng ko`p tarqaldan har xil tipdagi kasblarni farqlashga va tahlil qilishga o`rgatish.

**Kasbga yo`naltiruvchi maqsad:** o`quvchilarni har xil tipdagi kasblarni farqlashga va tahlil qilishga o`rgatish orqali ularni kasblarga bo`lgan qiziqishlarini mustahkamlash, biror kasbni tanlashlariga ko`maklashish.

#### Darsning vazifalari:

- kasblarning tasniflari haqida tushuncha berish;
- har bir kasbning mas`ulyatli va sharafligi, o`z o`rni va mavqei borligini tushuntirish;
- biror kasbni o`rganish va egallash uchun faqatgina xohish-ishtakni o`zi yetarli emasligini, balki kishida shu kasbni egallash uchun uning qiyinchiliklarini yengib oladigan, o`ziga xos xususiyatlariga mos keladigan qobiliyatlar ham bo`lishi zarurligini uqtirish.

**Dars tipi:** Yangi bilimlar berish

**Dars turi:** nazariy.

**Darsda qo`llaniladigan o`qitish metodlari:** ma`ruza, suhbat, tushuntirish, ro`lli o`yin.

**Fanlararo bo`g`lanish:** tibbiyot, biologiya, kimyo, qishloq xo`jaligi, texnika, texnologiya, matematika, informatika, fizika, iqtisodiy bilim asoslari va b.

**Dars jihozi:** tarqatma materiallar, kompyuter, proyektor, ekran, ishlab chiqarish sohalari uchun oid slaydlar, ko`rgazmalar va h.

#### Darsning borishi:

**Tashkiliy qism.**

**O`tilgan darsni so`rash va baholash:**

Ishlab chiqarish sohalari haqida gapirining.

Ko`p seriyali ishlab chiqarish deganda nimani tushunasiz?

Ijodiy g`oya va dizayn tushunchalarini gapirib bering.

Ishlab chiqarishda ishlatiladigan xomashyolar haqida gapiring.

## Yangi mavzuni bayon qilish.

reja;

Kasblar tasnifi (klassifikatsiyasi).

Kasblarning tiplari.

Dunyoda minglab kasblar bor. Mana shu rang - barang kasblar olamida qanday qilib mo`jal olish kerak? Hayot yo`lini – mehnat faoliyatini ro`g`ri boshlash uchun qaysi kasbni tanlagan ma`qul? Bu ishda kasblar tasnifi (tasnifsi) sizga yaxshi yordam berishi mumkin. Ko`pgina predmetlarni o`rganish chog`ida siz har xil oddiy va murakkab ob`ektlar, faktlar, voqea- hodisalar va boshqa shunga o`xshash narsalar qanday tizimlashtirishini bilib olgansiz. Masalan, o`simlik va hayvon or`ganizmlari tiplarga, turumlarga, otryadarga birlashtiriladi.

Kasblar tasnifi uchun har xil belgilarni asos qilish mumkin.


Masalan, ularning nomlari bo`shlanadigan birinchi harflar bo`yicha bo`lib chiqishi mumkin. Bu xuddi lug`tlarning tuzilishiga o`xshagan bo`ladi.

To`g`ri, bunday tasnifdan kasb tanlash uchun eng avvalo o`sha kasbning nomini bilish kerak. Hamma gap shundaki, ko`p hollarda kasbning nomi, uning qanday atalishi kasb tanlayotgan kishiga ma`lum bo`lmaydi. Masalan, aytaylik, siz yaxshi rasm chizasiz, bu mashg`ulot sizga juda yoqadi va siz bundan keyin ham o`zingizdagi mana shu rasm chizish qobiliyati kerak bo`ladigan joyda ishlashni, aytinch, siz gazmol ishlab chiqarishda rasmlardan nusxa ko`chiruvchi degan kasb borligini, poligrafiyada – kolorist, retushyor kasbi, badiiy zargarlik buyumlari ishlab chiqaradigan korxonalarda – inkrustator kasbi borligini bilasizmi, masalan, birgina tikuvchilik sanoatining o`zida molyar- konstruktorlar, texnologik jihozlarni sozlovchilar, slesarlar, gazmolni saralaydigan raschyotchik – podborshchiklar, qirquvchilar, tikuv – motoristlar, hisobchilar (buxgalterlar), iqtisodchi (ekonomistlar) singari juda ko`p kasblar mavjud. Lekin kishining shaxsiy fazilatlari (qiziqishlari, mayllari, qobiliyatlari, hosil qilgan tajribasi) bilan sanoatning bir tarmog`idagi kasblarni butunlay qamrab olishi mumkinmi? Albatta, yo`q. Shuning uchun ham tarmoq belgilari bo`yicha tuzilgan tasnifdan emas, balki odamning o`zidan, ya`ni mehnatda bevosita ishtirok etadigan kishining o`zidan kelib chiqadigan belgilarga qarab tuzib chiqilgan tasnifdan foydalanish kasb tanlayotgan kishi uchun qulay bo`ladi.

Chindan ham odam ishlayotgan vaqtda uning diqqat-e`tibori sohaga emas, balki (bu soha qanchalik yaxshi, obro`-etiborli va boshqa ko`pgina afzalliklarga ega bo`lishiga qaramay), balki mehnat predmeti (ob`ekti)ga qararilgan bo`ladi. Mana shu predmetni ishlatib, nimadir qilish kerak (bu endi mehnatning maqsadi bo`ladi). Har qanday mehnatda qurollar, vositalar mavjuddir. Nihoyat, odam uchun uning qanday sharoitda ishlashi muhim ahamiyatga egadir. Kasb tanlashni o`ylayotgan kishi uchun qulay bo`lgan kasblar tasnifsi mana shu to`rtta belgiga qarab tuziladi.

Sxema tarzida olganda, bunday tasnifni to'rt qavatli yaruslardan iborat piramida shaklida tasavvur qilish mumkin. Uning yaruslari: kasblarning tiplari; kasblarning turkumlari; kasblarning bo'limlari; kasblarning guruhlaridan iborat bo'ladi. Eng bo'sh qoldirilgan to'g'ri to'rtburchak sizning bo'lajak kasbingizga mo'ljallangan.

Ushbu sxemani siz o'zingizning kelajakdagi mehnat yo'lingizni tanlayotganingizda o'ylab olishingizga imkon beradigan, asta-sekin pastdan yuqoriga qarab chiqib borishingiz mumkin bo'lgan (kasb tipini aniqlashdan boshlab uning turkumini muhokama qilishga o'tish va hokazo) bir "pillapoya" sifatida qarash mumkin.



Mehnat predmetiga qarab barcha kasblar beshta tipga bo'linadi:

**1. "Odam- tabiat".** Bu yerda mehnatning asosiy, yetakchi predmeti- jonli tabiatdir. Bu tipga, masalan, quyidagi kasblar kiradi: Urug`shunos, meva- sabzavotshunos, davlat urug`chilik inspeksiyasi laboranti, master-charvador, kimyoviy-bakteriologik tahlil laboranti, zootexnik, agronom.

"Odam-tabiat" tipidagi kasblardan quyidagilarni ajratib ko`rsatish mumkin:

- o`simliklar organizmi mehnat predmeti bo`lgan kasblar;
- hayvonlar organizmi mehnat predmeti bo`lgan kasblar;
- mikroorganizmlar mehnat predmeti bo`lgan kasblar.

Yuqorida ko`rsatib o`tilgan bo`linish "odam-tabiat" tipidagi kasblar mansub bo`lgan kishilar mehnari faqat eslatib o`tilgan predmetlargagina qaratilgan bo`ladi, degan ma`noni anglatmaydi, albatta. O`simlikshunoslar, masalan, jamoa orasida ishlaydilar, xilma -xil texnikadan foydalanadilar, ularning o`z mehnatlari hisobga olish, unga iqtisodiy baho berish masalalari bilan ham shug`ullanishlariga to`g`ri keladi, lekin bari bir o`simlikshunoshlarning diqqat-e`tiborini jalb etadigan va ular g`amxo`rlik qiladigan asosiy predmet- bu o`simlioklar va ular o`sadigan muhit hisoblanadi. Mazkur tipdagi kasbni tanlash vaqtida siz o`zingiz tabiatga qanday munosabatda bo`lishingiz juda muhim ahamiyatga egadir: siz unga dam oladigan, ko`ngil xushlik qiladigan joy deb qaraysizmi yoki o`zingizni butun kuch- g`ayratingizni biror mahsulot ishlab chiqarishga sarf etishga aylanayotgan ustaxona deb qaraysizmi? Bu savolga javob berish uchun odam o`zini ishlab chiqarish bilan bog`liq bo`lgan, jonli tabiatga aloqador ijtimoiy foydali mehnat jarayonida yoki tegishli to`garaklar, qiziqish bo`yicha tuzilgan guruhlarining mashg`ulotlarida qatnashib sinab ko`rishi mumkin.

"Odam-tabiat" tipidagi kasblarni tanlash vaqtida hisobga olish zarur bo`lgan yana bir jihat bor. Mehnatning biologik ob`ektlarining o`ziga xos xususiyati shundan

iboratki, ular (o'z ichki qonuniyatlariga ko'ra) muarakkab, o'zgaruvchan va nostandart bo'ladilar. O'simliklar ham, jonivorlar ham mikroorganizmlar dunyoga kelib yashaydilar, o'sadilar rivojlanadilar. Shuningdek kasallikka chalnadilar va halok bo'ladilar. Bu sohada ishlaydigan hodim tirik organizmlar to'g'risida juda ko'p narsalarni shunchaki bilibgina qolmay, shu bilan birga ko'pgincha muqarrar ravishda sodir bo'ladigan yoki sodir bo'lishi ehtimoli tug'ilgan o'zgarishlarni ham oldindan ko'ra bilish kerak. Aniq mehnat vazifalarini hal qilish vaqtida odamdan tashabbuskorlik va mustaqillik talab qilinadi u tabiatga nisbatan g'amxo'r va uzoqni ko'ra oladigan kishi bo'lishi kerak.

Bu ish sizga yoqadimi, quyidagi ishlarni bajarishni xohlarmidingiz:

1. Biologiyadan laboratoriya ishlari va amaliy mashg'ulotlarni bajarishni istaysizmi?
2. Maktab o'quv-tajriba uchastkasida, tirik burchakda, o'quvchilar ishlab chiqarish brigadasi dalalarida ishlash sizga yoqadimi?
3. O'z tomorqa uchastkangizda, bog'ingizda ishlashni istaysizmi?
4. Uy hayvonlarini boqishni istaysizmi?
5. Jonli tabiat to'g'risidagi ilmiy-ommobop, badiiy adabiyotni o'qishni sevasizmi?

Agar mana shu savollarning ko'pchiligiga "ha" deb javob beradigan bo'lsangiz, u holda "odam-tabiat" tipidagkasblarning sizga to'g'ri kelishi ehtimoldan uzoq emas. Biroq, xozircha bu xulosani hali uzil-kesil xulosa deb hisoblab bo'lmaydi. Keyinchalik siz yana bir qancha omillar yig'indisini bilib olasizki, kasb tanlashda shu omillarni hisobga olmoq zarur.

**2. "Odam-texnika".** Bunday kasblar tipida mehnatning asosiy yetakchi predmeti – texnika ob'ektlari (mashinalar, mexanizmlar, kompyuterlar va boshqa shunga o'xshashlar), materiallar, energiya turlaridan iborat bo'ladi.

Jonsiz tabiat ob'ektlari (Yer osti boyliklari, tuproq, suv, o'rmon va qishloq xo'jaligi mahsulotlari) ham ko'p jihatdan shularga o'xshagan bo'ladi.

Bu yerda xodimlarning nehnati faqat texnikagagina qaratilib qolmaydi, albatta chunonchi, masalan, avtobus haydovchisi ish vaqtida yo'lovchilar bilan muloqatga kirishadi, kran mashinisti (kranchi) qishloq xo'jalik hayvonlari qamalgan qafaschani ortish bilan mag'ul bo'lishi mumkin va h. Lekin baribir mazkur holatlarda xodimlarning kasb-korlik diqqat-etibor qaratiladigan va ular g'amg'o'rlik qiladigan yetakchi predmet- texnika ob'ektlari va ularning xususiyatlari bo'lib qolaveradi.

"Odam-taxnika" tipidagi kasblardan quyidagilarni ajratib k'orsatish mumkin:

-qazib olingan tuproq, tog' jinslariga ishlov berish bilan bo'g'liq bo'lgan kasblar: poroxodchi, buldozer mashinist, burg'alash qurilmasi dizelchisi, kon texnigi, injener-geolog va shunga o'xshashlar;

- nometall sanoat materiallari, buyumlar, chala mahsulotlarga ishlov berish va ulardan foydalanish bilan bo'g'liq kasblari: duradgor, to'quvchi, tikuvchi, injiner-texnolog va boshqalar;

- metall ishlab chiqarish va unga ishlov berish, mashinalarni, qurilmalarni mexanik usulda yig'ish va montaj qilish bilan bog'liq bo'lgan kasblar: tokar, dastur



bilan boshqariladigan stanoklar operatori, slesar-asbobsoz, texnik-metallurg, yarim avtomat mashinalarda elektr bilan payvandlovchi va h;

- texnologiya mashinalari, jihozlari, transport vositalarini ta'minlash, sozlash va ularga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan kasblar: remontchi-slesar, texnologik jixozlar sozlovchisi, injiner-mexanik va b;

- binolar, inshootlar, konstruksiyalarni montaj, ta'mir qilish bilan bog'liq bo'lgan kasblar: armaturachi-betonchi, qo'lda ishlatiladigan asbob bilan kavsharlovchi-elektr payvandlovchi, slesar-kema remontlovchisi, arxitektor va b;

- elektr jihozlarini qurilmalarni va apparatlarni yig'ish, montaj qilish bilan bog'liq bo'lgan kasblar: kema-elektr montajchisi, radioapparatlar va qurilmalar montajchisi, mikrosxemalarni yig'uvchi, soatsoz yig'uvchi, injiner-fizik va b;

- elektr jixozlari, qurilmalar, apparatlar sozlanishi va ularga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan kasblar: radio va televizion apparatlarga xizmat ko'rsatish va ularning ta'miri bo'yicha radiomexanik, elektroslesar, dastur bilan boshqariladigan stanoklarni sozlovchi, elektr aloqalari texnigi, radiofizik va b;

- yuk ko'tarish, transport vositalarini qo'llash va ularni boshqarish bilan bog'liq bo'lgan kasblar: avtomobil haydovchisi, doker-mexanizator, fuqaro aviyasiyasi uchuvchisi, avtomobil transportlaridan foydalanish injineri va b;

- qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan kasblar: oshpaz, nonvoy, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha injener-texnolog va b.

Texnika ob'ektlarini qayta ishlash, o'zgartirish, qayta joylashtirish yoki baxolashda xodimdan nihoyatda aniq ishlash, o'z xatti-harakatlarida qat'iyatli bo'lish talab qilinadi. Madomiki, texnika ob'ektlari amalda har doim odamning o'z qo'li bilan yaratilar ekan, texnika olamida novatorlik, fikr-mulohaza qilib ko'rish uchun, texnika ijodkorligini namoyish qilish uchun ayniqsa katta imkoniyatlar mavjuddir. Ishga ijodiy yondashish bilan bir qatorda texnika sohasida (boshqa hamma sohada ham) odamdan yuksak darajada ijrochilik intizomi talab qilinadi.

Quyidagi savollarga javob bering:

Bu ishlar sizga yoqadimi, quyidagi ishlarni qilishni xohlardingiz:

1. Yangi materiallar, asboblarni, mashinalarini to'g'risida bilishni istaysizmi?
2. Qandaydir materiallarni, buyumlarni (gazmoldan, yog'ochdan, qog'ozdan, metaldan yasalgan, oziq-ovqat mahsulotlaridan tayorlangan va boshqa shunga o'xshashlarni) qarab chiqishni xohlaysizmi?
3. Buyumlarning xususiyatlarini va nimalarga ishlatilishini bilishni istaysizmi?
4. O'z qo'lingiz bilan buyumni, mahsulotni tayorlash istagingiz bormi?
5. Yangi buyumlar o'ylab topishga yoki mavjud buyumlarni boshqacharoq qilib yasashga zo'hringiz qalay?
6. Har xil predmedlarni yig'ib ishlash sizga yoqadimi?
7. Kundalik turmushga kerak bo'ladigan narsalarni, maishiy texnikani, kiyim-kechaklarni tartibga solish (ta'minlash, qayta yasash)ni yaxshi ko'rasizmi?
8. Texnik chizmalarni, sxemalarni tushuna olasizmi?
9. O'lchov vositalaridan foydalanishni bilasizmi?
10. Chizmalar chizishni bilasizmi?

Bordi-yu, siz ko'p savollarga "ha" deb javob berar ekansiz, chamasi sizga "odam texnika" tipidagi kasb to'g'ri keladi.

**3. "Odam-odam".** Bu yerda asosiy mehnat predmeti odamlardir. Mazkur mehnat sohasida mayllar, qiziqishlar qay darajada ekanini aniqlashda o'quv predmetlaridan tashqari, siz shaxsan o'zingiz jamoat ishlarida, jamoada o'tkaziladigan tadbirlarni tashkil etishda ishtirok etib ottirgan tajribangiz ham yordam beradi. Mazkur tipga kiradigan kasblarni quyidagicha ajratib ko'rsatish mumkin:

- odamlarni o'qitish va tarbiyalash bilan, bolalar jamoalarini uyushtirish bilan bog'liq bo'lgan kasblar: maktabgacha tarbiya muassasasi tarbiyachisi, ishlab chiqarish ta'limi masteri, o'qituvchi va b;

- ishlab chiqarishni boshqarish, odamlarga, jamoaga raxbarlik qilish bilan bog'liq bo'lgan kasblar: avtotransport korxonasi dispetcheri, ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha injener iqtisodchi va b;

- maishiy xizmat, aloqa, savdo xizmati bilan bog'liq bo'lgan kasblar: sartaosh, shaharlararo aloqa telefonistikasi, spravkalar byurosining xodimi, ekskursovod, sotuvchi va b;

- odamlarga informatsion-badiiy xizmat ko'rsatish hamda madaniy jamoalarga rahbarlik qilish bilan bog'liq bo'lgan kasblar: klub xodimi, drijyor va b;

- tibbiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan kasblar: feldsher, hamshirasi, shifokor (vrach) va b.

"Odam-odam" tipidagi kasblarga oid mehnatning asosiy mazmuni odamlarning o'zaro bir-biriga ta'sir ko'rsatishidan iboratdir. Bunday bir-biriga ta'sir ko'rsatishning muhim qismi o'zaro munosabatlar hisoblanadi. Mazkur tipdagi kasb bo'yicha muvaffaqiyatli ishlash uchun odamlar bilan aloqaga kirishish va ular bilan doimiy ravishda muloqotda bo'lishni, odamlarni tushunishni, ularning o'ziga xos xususiyatlarini bilib muomala qilishni o'rganib olish kerak, shuningdek, ishlab chiqarish, fan, texnika, san'at va boshqa shu singari tegishli sohaga oid bilimlarni egallab olish lozim.

Odamlar bilan ishlash unchalik oson ishlardan emas. Misol uchun sotuvchilik kasbini olib ko'raylik. Sotuvchi ish vaqtida minut sayin yangi - yangi odamlar bilan muomala qilishi kerak. Xaridorlar har hil bo'ladi: ular orasida o'ta sinchkovlari ham, mol tanlashda ikkilanib turadigani ham, haddan tashqari ko'p gapiradiganlari ham uchrab turadi va h. Xaridorlar bilan muomala qila olish esa sotuvchining vazifasidir. Bu esa sotuvchiga o'ziga xos iste'dod: og'ir vazmin xushmuomala, xushfe'l bo'lish mahorati zarur bo'ladi.

"Odam-odam" tipidagi kasbni tanlash uchun juda muhim va zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlarining qisqacha ro'yxati quyidagilardan iborat:

-odamlar bilan ishlash jarayonida barqaror yaxshi kayfiyatda bo'lish:

- odamlar bilan muomalada bo'lishga o'zida ehtiyoj sezish, jamoat, ishlarida sidqidildan ishtirok etish;

- boshqa kishilarning niyatini, o'y-fikrlarini, kayfiyatini tushuna olish, fikran o'zini boshqa kishining o'rniga qo'yib ko'rish qobiliyati;

- odamlar o'rtasida o'zaro munosabatlarni tezda bilib olish, ko'pchilik kishilarning shaxsiy fazilatlarini yaxshi tushunish va bilish mahoratiga ega bo'lish;

-turli kishilar kishilar bilan umumiy til topa olish.

Quyidagi savollarga javob bering:

1. Boshqa odamlar sizni muomalada tez xafa bo`ladigan, tabiati nozik va sal gapni ko`ngli ko`tarmaydigan kishi, deb hisoblaydilar (tanqidga, tanbehga javob berishadi)?

2. Muomala vaqtida paydo bo`lgan kayfiyat (quvonch, xafagarchilik, qayg`u)dan ko`nglingizda qolgan narsalar uzoq muddat saqlanib qoladimi?

3. Sizning kayfiyatingiz goh ko`tarilib, goh tushib, yaxshi-yamon kayfiyatlar tez-tez almashinib turadimi?

4. Siz o`z nomingizga aytilgan tanqidiy fikrlarni ko`nglingizga og`ir olib, uzoq vaqt iztirob chekib yurasizmi?

5. Sershovqin, quvnoq odamlar orasiga tushib qolganda qattiq charchamaysizmi?

6. Yangi odamlar bilan tanishishga to`g`ri kelib qolgan vaqtlarda qiynalib, istihola qilib yurasizmi?

7. Siz biror yangi gapni boshqa kishilardan so`rab olishdan ko`ra uni kitobdan o`qib bilib olish oson va qulay deb hisoblaysizmi?

8. Sizda yolg`iz o`zingiz qolib, tinch-osoyishta bir joyda dam olish istagi tez-tez bo`lib turadimi?

9. Birov bilan gaplashayotgan vaqtingizda kerakli so`zlarni topib aytish uchun uzoq vaqt o`ylaysizmi?

10. Siz juda ko`p yangi tanishlar orttirishdan ko`ra kichik bir davrdagi doimiy do`stlarni afzal ko`rasizmi?

Basharatli, mana shu savollarning ko`pchiligiga siz "ha" deb javob beradigan bo`lsangiz, u holda, aftidan, odamlar bilan bog`liq bo`ladigan kasblar sizga unchalik to`g`ri kelmaydi. Har holda bu sohada muvaffaqiyatga erishish uchun o`z ustingizda ko`proq ishlashingizga to`g`ri keladi.

5. **"Odam-belgili tizim"**. Kasblarning bu tipida shartli belgilar, raqamlar, kodlar, tabiiy yoki sun`iy tillar asosiy yetakchi mehnat predmeti hisoblanadi. Hozirgi zamon kishisi belgilar va belgi tizimlari dunyosida- tekstlar, chizmalar, sxemalar, kartalar, jadvallar, formulalar, yo`l belgilari ichida yashaydi. Binobarin, bularning hammasini biladigan tegishli mutaxassislar ham zarur.

"Odam-belgili tizim" tipidagi kasblar quyidagilarni o`z ichiga oladi:

- hujjatlarni (ona tili yoki chet tilida) rasmiylashtirish, ish yuritish, tekstlar va ularning qayta yozilishi, qayta kodlashtirishi bilan bog`liq bo`lgan kasblar: tarjimon, sekretar-mashinistka, telegrafchi, texnik redaktor va b.

- sonlar, miqdoriy nisbatlar mehnat predmeti hisoblangan kasblar: hisoblash mashinalarining operatori, nazoratchi, g`aznachi, dasturchi, hisobchi, texnik-rejalovchi va b:

- shartli belgilar tizimi, ob`ektlarning sxematik tasviri ko`rinishidagi ma`lumotlarni qayta ishlash bilan bog`liq bo`lgan kasblar: chizmakash, topograf, texnik-jiodezist, injener va b.

Mazkur tipdagi kasblarning birortasida muvoffaqiyatli ishlash uchun mana shu belgilar olamiga, sirdan qaraganda quruq belgi bo`lib ko`rinadigan odamga hayolan sho`ng`ib ketadigan, tevarak-atrofni o`rab olgan hayotdagi predmetli xususiyatlarni birdan unuta oladigan va butun diqqat-e`tiborini u yoki bu belgidan

iborat ma`lumotlarga qarata oladigan darajadagi alohida qobiliyat zarur bo`ladi. Shartli belgilar shklidagi ma`lumotlarni qayta ishlash vaqtida bu ma`lumotlarni nazorat qilish, tekshirish, hisobga olish, qayta ishlash vazifasi, shuningdek, yangi-yangi belgilar belgi tizimlarini yaratish vazifasi paydo bo`ladi.

**5. “Odam-badiiy obraz”.** Kasblarning bu tipida badiiy obrazlar, ularning tuzilish usullari yetakchi mehnat predmeti hisoblanadi. Bu yerda quyidagi kasblarni ajratib ko`rsatish mumkin:

- tasviriy faoliyat bilan bog`liq bo`lgan kasblar: badiiy mebellar ishlab chiqarish bo`yicha duradgor, toshga o`yib gul soluvchi, yoritish elektrotexnigi (teatrda), poyabzal konstruktor-modellari, grafik-rassom va b;

- musiqa faoliyati bilan bog`liq bo`lgan kasblar: pianino va royollarni sozlovchi, orkestr artisti, bastakor va b;

- adabiy-badiiy faoliyat bilan bog`liq bo`lgan kasblar: badiiy adabiyot muharriri, adabiy xodim va b;

- aktyorlik-sahna faoliyati bilan bog`liq bo`lgan kasblar: teatr artisti, estrada artisti va b.

“Odam-badiiy obraz” tipidagi kasblarning o`ziga xos xususiyatlardan biri shundan iboratki, xodim amalga oshirgan, sarf qilgan mehnatining anchagina qismi tashqi tomondan qaragan kishining ko`ziga ko`rinmay, yashirincha qoladi. Bundan tashqari, mehnatning so`ngi natijasiga erishish uchun, yangi ijroning yengil, zo`riqmasdan bajarilishi va o`ynalayotgan ro`lning tabiiy chiqishi uchun ko`pincha maxsus kuch-g`ayrat sarf qilishga to`g`ri keladi. Chunonchi, sahnada bor-yo`g`i bir necha minut davom etadigan tomoshani ko`rsatish uchun artist har kuni bir necha soatlab mehnat qilishi kerak. Mazkur tipdagi kasbni tanlamoqchi bo`lsangiz mehnatning mana shu yashirin tomoni to`g`risida o`ylab ko`ring, ehtimol, bu ishni bajarish sizning qo`lingizdan kelmay qolishi ham mumkin.

#### **IV. Yangi o`tilgan mavzuni mustahkamlash va baholash:**

1. Kasblar tasnifi haqida gapiring.
2. Kasblarning tiplari haqida gapirib bering.
3. “Odam-tabiat” tipiga kiruvchi kasblarni aytib bering .
4. “Odam-texnika” tipiga kiruvchi kasblar haqida gapirib bering.
5. “Odam-odam” tipiga kiruvchi kasblar haqida aytib bering .
6. “Odam-belgili tizim” tipiga kiruvchi kasblar haqida gapirib bering.
7. “Odam-badiiy obraz” tipiga kiruvchi kasblar haqida gapiring.

#### **V. Darsni yakunlash (xulosalash) va uyga topshiriq berish.**

## 32-dars

“Texnologiya va dizayn” hamda “Serviz xizmati” yo`nalishlari uchun

|               |   |
|---------------|---|
| <b>lavzu:</b> | <b>kasb-hunar egallashda inson salomatligiga qo`yilgan talablar</b> |
|---------------|---|

### **Darsning maqsadi:**

- a) ta`limiy – o`quvchilarga kasb tanlashda o`z salomatligini hisobga olish zarurligini tushintirish;
- b) tarbiyaviy – o`quvchilarda o`z-o`zini tushinish, salomatligini tanlayotgan kasb talablariga muvofiqligini to`g`ri anglash ko`nikmalarini shakllantirish ;
- v) rivojlantiruvchi- o`quvchilarning kasb-hunar egallash haqidagi bilimlarini kengaytirish.

**Kasbga yo`naltiruvchi maqsad:** o`quvchilarga kasb tanlashda o`z salomatligini hisobga olish zarurligini tushintirish; ularda o`z-o`zini tushinish, salomatligini tanlayotgan kasb talablariga muvofiqligini to`g`ri anglash ko`nikmalarini shakllantirish orqali ularning kasb-hunar turlari va ularni egallash haqidagi bilimlarini kengaytirish.

### **Darsning vazifalari:**

- inson salomatligiga mos keluvchi kasb-hunar egallash haqida tushuncha berish;
- davlatning mehnatkashlar salomatligini saqlash to`g`risidagi g`amxo`rligini ko`rsatish.

**Dars tipi:** Yangi bilimlar berish.

**Dars turi:** nazariy.

**Darsda qo`llaniladigan o`qitish metodlari:** ma`ruza, suhbat, tushintirish, rolli oyin.

**Fanlararo bog`lanish:** tibbiyot, biologiya, iqtisodiy bilim asoslari.

**Dars jihozi:** tarqatma materiallar, kompyuter, proyektor, ekran, ishlab chiqarish sohasiga oid slaydlar, ko`rgazmalar va b.

## **Darsning borishi:**

### **I. Tashkiliy qism.**

### **II. O`tilgan darsni so`rash va baholash:**

1. Kasblarga oid mehnat turlarini ayting.
2. “Odam-tabiat” tipiga kiruvchi kasblarga misol keltiring .
3. “Odam-texnika” tipiga kiruvchi kasblarga misol keltiring.
4. “Odam-odam” tipiga kiruvchi kasblarga misol keltiring.
5. “Odam-belgili tizim” tipiga kiruvchi kasblarga misol keltiring.
6. “Odam-badiiy obraz” tipiga kiruvchi kasblarga misol keltiring.

### **III. Yangi mavzuni bayon qilish.**

Reja:

1. Kasb tanlashda o`z salomatligi, ahvolini hisobga olish.
2. Mehnat sharoitini odam organizmiga ko`rsatadigan ta`siri.
3. Kasbga yaroqlilik.
4. Kasbga yaroqsizlik.

Biror kasbni tanlashda inson salomatligi katta ahamiyatga egadir. Agar kishining salomatligi yaxshi bo`lmasa, u muayyan kasbda ishlashi uchun vrachlar xulosasi bo`yicha yaroqli emas, deb topilgan bo`lsa o`sha kishi mazkur kasbga yaroqsiz deb hisoblanadi. Buning ma`nosi shuki, kishi mazkur ishni yo mutlaqo bajara olmaydi yoki bu ish uning sog`ligidagi (hozircha, balki uncha sezilmaydigan) o`zgarishlarni ko`paytirib, dardini kuchaytiradi.

Kishining salomatligi ma`lum bir kasb talablariga muvofiq kelish-kelmasligini aniqlash – vrachning vazifasidir. Shuning uchun ham ishga yoki o`quv yurtiga kirayotgan har bir kishi, albatta tibbiy ko`rikdan o`tadi. Lekin ko`pincha shunday bo`ladiki, kishi o`zining nazarida kasb tanlab bo`lganidan keyin bunday tibbiy ko`rik amalga oshiriladi. Keyin afsuslanib yoki iztirob chekib yurmaslik uchun o`z vaqtida vrach bilan maslahatlashib olish muhim ahamiyatga egadir. Kasb tanlayotgan har bir kishi o`z organizmi uchun noqulay deb hisoblanadigan omillarni bilib olmo`g`i kerak. Bu hol unga o`z imkoniyatlarini to`g`ri baholashga yordam beradi. Xo`sh, bular qanday omillar? Ba`zi hollarda bular – katta jismoniy nagruzkalar, optimal mikroiklimdan chekinilgan vaqtlar (haroratning past yoki yuqori bo`lishi) hisoblansa,

boshqa hollarda bu omillar ortiq darajadagi chang-toʻzondan, shovqin va tebranishdan, uchunchi bir hollarda esa zaharli moddalarni ishlatishdan iborat boʻladi va h.

Mehnat sharoitini odam organizmiga koʻrsatadigan taʼsiri boʻyicha kasblarni toʻrt guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga mehnat sharoiti maishiy kasblarga yaqin boʻlgan kasblar kiradi. Misol tariqasida soat ishlab chiqarish bilan, maishiy xizmat koʻrsatish bilan bogʻliq boʻlgan kasblarni keltirish mumkin. Bu ishchi kasblari ichida eng koʻp sonli guruhdir. Ikkinchiguruh kasblari, masalan, oshpazlik kabi ishlab chiqarish omilining moʻtadil yoki notekis taʼsir etishi bilan bogʻliq boʻlgan kasblardir. Bunday kasblar boʻyicha ishlagan vaqtda organizmga vaqtincha yuqori darajadagi havo harorati, namlik va boshqa shu singari omillar taʼsir koʻrsatadi. Bu esa tomir urishning tezlashib ketishiga, ter ajralib chiqishining kuchayishiga sabab boʻladi. Binobarin, bunday kasblarni faqat termoregulyasiyasi yaxshi boʻlgan kishilargagina, shuningdek, yurak-tomir tizimida, nafas organlarida kasalligi boʻlmagan kishilargagina tavsiya etish mumkin. Uchinchi guruhga har hil noqulay ishlab chiqarish omillarining yigʻindisixarakterli boʻlgan kasblar kiradi. Toʻqimachi kasbini bunga misol qilib keltirish mumkin. Yuragi, oʻpkasi, eshitish organlari, tayanch harakat apparati kasal boʻlgan (yoki kasallik alomatlarigamoyillik sezilgan), koʻzi yaxshi koʻrmaydigan kishilar uchun bu kasb toʻgʻri kelmaydi. Toʻrtinchi guruh ogʻir va zararli mehnat sharoiti bilan bogʻliq boʻlgan kasblardan iborat. Masalan, elektr payvandchi, poʻlat quyuvchi va boshqalar ana shunday kasblar qatoriga kiradi.

Bizning davlatimiz har bir kishining sogʻligʻi toʻgʻrisida gʻamxoʻrlik qiladi, kasb kasalliklarining oldini olish boʻyicha tadbirlar tizimini amalga oshiradi. Ishchilarga bir qator engilliklar yaratib berilgan ishlab chiqarish korxonalarida hamda kasb-hunarlarining roʻyxati belgilab chiqilgan va tasdiqlangan. Mana shu roʻyxatga kirgan kasbda ishlovchi kishilar tegishli imtiyozlardan foydalanadilar: ular uchun qisqartirilgan ish kuni, qoʻshimcha taʼtil, parhez taomlar, 45-50 yoshdan boshlab nafaqa bilan taʼminlanish hquqi va boshqa shu singari imtiyozlar berilgan.

Biror kasb tanlanayotgan vaqtda tibbiy koʻrsatkichlarning toʻgʻri kelmasligi eng avvalo kasallik harakteri bilan belgilanadi. Tanlangan kasbga sizning

sog`lig`ingiz to`g`ri kelish-kelmasligi haqidagi hulosani faqat vrach berishi mumkin. Biroq shini ham nazarda tutish kerakki, turli kasalliklarga organizmning qarshilik ko`rsatish imkoniyatlari juda katta bo`lib, odam o`zi sevgan kasbini egallash uchun butun iroda kuchini ishga solib kasallikni engishi mumkin. Har bir kishi yoshligidan boshlab o`z salomatligi to`g`risida o`ylashi, gigiena sohasidagi bilimlarini, birinchi tibbiy yordam ko`rsatish malakalarini egallab olishi, sog`lom turmush tarzi bilan yashashni organib olmog`i kerak.

Organizmi chiniqtirish, sport bilan shug`ullanish, mehnat va dam olish, ovqatlanish rejimiga rioya qilish, o`z bo`sh vaqtini oqilona tashkil etish va boshqa shunga o`xshashtadbirlar jismoniy jixatdan baquvvat va sog`lom bo`lib o`shishning zarur shartlaridir. Sog`lom bo`lib o`shishni istagan kishi spirtli ichimliklar ichish, chekish va giyohvandlik qilish singari yaramas odatlardan batamom voz kechishi kerak, albatta. Chunki bular organizmga nihoyatda zararli ta`sir ko`rsatadi: sog`liqni izdan chiqaradi, qiziqish doirasini toraytiradi, aqliy faollikni pasaytiradi va nihoyatshaxsni tamazzilga olib keladi.

Kasbga yaroqlilik – odam bilan uning ishi, ksabi o`rtasidagi o`zaro muvofiqlikdir. Ayni mana shu muvofiqlik bo`lgan taqdirdagina “odam-kasb” fo`rmulasini ro`yabga chiqarish imkonini tug`iladi. Mana shungay o`zaro munasabat xususida to`xtalib o`tamiz.

Har qanday kishining o`zigagina xos bo`lgan muayyan shaxsiy fazilatlar, xususiyatlar mavjud bo`ladi. Tanlanayotgan kasbning shaxsga xisbatan qo`yayadigan talablariga mana shu shaxsiy sifatlar qau darajada mos kelishiga qarab odamning u yoki bu kasbga yaroqliligi ro`g`risida bir qarorga kelish mumkin. Kasbga yaroqlilikni to`rt xil darajaga bo`lib, ularni bir-biridan farq qilishi mumkin.

**1. Yaroqsizlik** (mazkur kasbga yaroqsizlik). U vaqtincha ham bo`lishi mumkin yoki amaliy jihatdan ro`yabga chiqmaydigan bo`lishi ham mumkin. Kishining salomatligi yomon bo`lganda, u yoki bu sohadagi ishga o`sha kishining soglig`I, vrajlarning nuqtai nazariga qaraganda to`g`ri kelmaydi, deb topilgan hollarda kasbga yaroqsizlik to`g`risida gapirish mumkin.

Tanlangan kasbga sog`liqning to`g`ri kelmasligi xususida biz yuqorida to`xtalib o`tgandik. Lekin tanlangan kasbga faqat sog`liq emas, balki bundan boshqa



omillar ham monelik qilishi mumkin. Gap shundaki, butun bir guruhni tashkil etuvchi bir qator kasblar odamda nisbatan juda katta talablar qo'yadi. U kasblarga faqat faqat maxsus qobiliyatga ega bo'lgan kishilargina muvafiq kelishi mumkin. Agar kishida mana shunday maxsus qobiliyat yo'q bo'lsa, uning o'rnini hech narsa bilan to'ldirib bo'lmaydi.

Bunday xollarda kishida o'z kasbiga nisbatan mutloqa yaroqli bo'lish talab qilinadi, deb aytiladi.

Bajaradigan ishlar jarayonida odamlarning sog'lig'i va hayoti uchun xafli bo'lgan, kutilmagan vaziyatlar sodir bo'lishi ehtimoli tutilgan kasblar (uchuvchi, dengizchi, konchi, energotizmlar operatori va b) vakillari uchun o'z kasbiga ana shunday mutloqa yaroqli bo'lish sharti qo'llaniladi. San'at bilan bog'liq bo'lgan kasblar to'g'risida ham xuddi mana shu gaplarni aytish mumkin: agar, kishining tasviriy san'at sohasida shlash uchun qobiliyati bolmasa, rassom, arxitektor, haykaltarosh bo'lib yetilishi amri-maholdir.

**2. Yaroqlilik** ( u yoki bu kasblar yohud guruhga yaroqlilik). Kasbga yaroqlilikning ushbu dajasi shu bilan ajralib turadiki, bunda biror sohadagi mehnatga nisbatan monelik qilivchi omillar bo'lmaydi. lekin ayni mahalda kishida mazkur kasbga yaqqol ko'zga tashlanib turgan mayllar ham bo'lmaydi. "Siz mana shu kasbni tanlashingiz mumkin. Ajab emas, siz shu sohada yaxshi mutaxassis bo'lib yetisharsiz"- deb tasalli beriladi bu kasbni tanlagan kishilarga. Bu jihatdan kasbga yaroqlilik darajasini ham yuqorigadagi ta'rifdan bilin olish mumkin.

**3. Mos kelish** ( u yoki bu faoliat sohasiga odamning mos kelishi). Bunday hollarda odamning shaxsiy fazilatlarini ko'rsatib o'tish mumkin. Bu fazilatlar muayyan kasb yoki kasblar guruhi talablariga aniq mos keladi. Masalan, biror kishida muayyan bir sohada u yoki bu mehnat ob'ektiga masalan, biologiya, texnika va hokazo ob'ektlarga nisbatan qiziqish bo'lishi yohud biror sohada o'zini amaliy ishda sinab ko'rish vaqtida ba'zi bir yutuqlarni qo'lga kiritgan kishilardagi muvofiqlik, o'z kasbiga mos kelish buning misolidir. Kasbga yaroqlilikning bu darajasidagi kishilarga nisbatan shunday deb murojat qilish mumkin: "Siz mana shu kasbni tanlasangiz bo'ladi, siz yaxshi mutaxassis bo'lib yetishingiz mumkin".

**4. Havas** (mazkur kasbga, faoliyat sohasiga). Ishga havasi (rag`bati) bo`lgan bunday kishini mehnatchi sifatida inson taraqqiyotining mazkur bosqichida kasbga yaroqlilikning oliy darajasi deb hisoblash mumkin. Bu yerda gap odamni boshqalardan ajratib turadigan sifatlar to`g`risida bormoqda. Kishi taxminan o`zi bilan bir xil sharoitda ishlayotgan va o`qiyotgan tengdoshlaridan yaqqol ajralib turadi. Kasbga yaroqlilikning bunday darajasiga quyidagicha ta`rif berish mumkin: “Siz faoliyatning shu sohasida, ha, ayni mana shu sohada yaxshi mutaxassis bo`lib yetishasiz”.

Kasbga yaroqlilik- tug`ma sifat emas. U mehnat faoliyatida shakilanib boradi. Mehnat jarayonida faqat professional idrok, xotira va tafakkur rivojlanibgina qolmay, odamda muayyan xulq-atvor tipi ham, uning jamoatchilikka xos yo`nalishi ham, talabchanligi ham, burchni anglash hissi ham, shaxsning boshqa shu singari fazilatlari ham rivojlanib boradi. Ko`pchilik kasblarda ularga yaroqlilik masalasida odamda mutloq talblar qo`yilmaydi; unga yetishmaydigan zarur fazilatlar, xususiyatlar, qobiliyatlar o`rnini boshqalarini rivojlantirish hisobiga qoplash mumkin.

Odamda mavjud bo`lgan barcha fazilatlarni kasbiy jihatdan qimmatli, zararli yoki neytral sifatlar bilan deb bir necha turga ajratish mumkinmi? Yo`q. Gap shundaki, hatto eng oddiy biror kasb to`g`risida gap ketganda ham kasbiy jihatdan yagona va shubhasiz qimmatli fazilatlar to`g`risida gapirib bo`lmaydi. Misol uchun, ko`p stanokchi-to`quvchilik kasbini olib ko`raylik. Ularning bir xillari tez harakat qilish hisobga yuksak natijalarga erishadilar, boshqalar esa ehtiyotkorlik, puxta ishlash, ishning ko`zini bilish hisobiga yutuqqa erishadilar, uchinchi bir xillarri, esa ishni bir maromda, bir xil sur`atda tashkil etish hisobiga muvaffaqiyatga erishadilar. Xodim qanchalik malakali bo`lsa, u o`zining kuchli tomonlaridan shunchalik ko`proq, maksimal darajada foydalanadi hamda o`zining zaif tomonlarini yengib, har xil vositalar bilan ularning o`rnini qoplaydi. Natijada ishda takrorlanmas individual uslub vujudga keladi. Shuning uchun ham: “Ish ustasidan qo`rqar”- degan dono maqol ro`qilgan.

Odamning o`z kasbiga yaroqli ekanini quyidagi asosiy fazilatlariga qarab belgilanadi: fuqoralik fazilatlari (masalan, vatanparvarlik, jamoatchilik, umumiy foyda uchun mehnat qilish ehtiyoji va b.); mehnatsevarlik, mehnatga halol

munosabatda bo`lish, mazkur sohadagi faoliyatga nisbatan ijobiy qiziqish va mayllarning mavjudligi, aql-idrokning keng va rerangligi,, puxtalik, intizpomlilik, o`z-o`zini nazorat qilishning rivojlanganligi, tashabbuskorlik, salomatligining yaxshiligi va boshqa shunga o`xshash sifatlar maxsus qobiliyatlar ( masalan, pianino va rayollarni sozlovchi kishi uchun musiqani tinglay olish qobiliyatining yaxshi rivojlangan bo`lishi, yetakchi uchun ko`pchilik bilan muloqatga kirishib, tezda til topishib keta olish qobiliyati zarur va h.). O`z kasbingizga yaroqlilik uchun zarur bo`ladigan ayrim fazilatlarni o`zingiz muntazam ravishda shakllantirib borishingiz mumkin va lozim.

Biz hozir “odam-kasb” formulasidagi o`zaro aloqadorlikning bir tamonini qarab chiqdik. Endi odam uchun kasbning o`zi yaroqsiz bo`lib qolishi mimkin bo`lgan holat to`g`risida gaplashamiz. Buni quyidagi misolni ko`rib qarab chiqish orqali tushuntirish mumkin.

Konstruktorlar qudratli yuk ko`tarish mashinasi yaratdilar, lekin buni qarangki, bu mashinani boshqarish juda og`ir ekan (tushirish, tormozlash, to`xtatish richagini bosish, uni bir joydan ikkinchi joyga surish uchun haddan tashqari katta jismoniy kuch talab qilar ekan). Bunday holda kishining, masalan, ayol kishining bu mashinada mashinist bo`lib ishlashi bu kasbga loyiq emasligi to`g`risida gapirib o`tirmasa ham bo`ladi, Mashinani boshqarish usulini o`zgartirish kerak bo`ladi.

Yuqorida aytilganlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, odamning kasbga yaroqliligi o`zgaruvchan omildir. Kasbga yaroqlilikni shakllantirish – bu faqat odamdagi muayyan fazilatlarni (masalan, o`z-o`zini tarbiyalash vositalari bilan) rivojlantirishdagina iborat bo`lib qolmay, shu bilan birga mehnat sharoitini, ishlab chiqarish vositalarini o`zgartirishni ham taqoza etdi.

#### **IV. Yangi o`tilgan mavzuni mustahkamlash va baholash:**

1. Kasb tanlash vaqtida nima uchun salomatlikni hisobga olish kerak?
2. Organizm uchun qanday ishlab chiqarish omillari noqulay omillar hisoblanadi?
3. Kishining kasbga yaroqliligi to`g`risidagi uning qanday fazilatlariga qarab baho berish mumkin?

4. Kasbga yaroqlilikning qanday turlarini bilasiz?
5. Siz o`zingiz tanlagan kasb uchun qanday fazilatlarni muhim deb hisoblaysiz?
6. Siz tanlagan kasbdagi mutahassislar qanday mehnat sharoitida ishlaydi?

#### **IV. Darsni yakunlash va uyga topshiriq berish.**

##### **33 – dars.**

“Texnologiya va dizayn” hamda “Servis hizmati” yo`nalishlari uchun .

|               |  |
|---------------|--|
| <b>Mavzu:</b> | <b>Uzbekistonda uzluksiz ta`lim tizimi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining yo`nalishi, ularning bir-biridan farqi, umumiy omamlari. O`quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo`naltirish tizimi</b> |
|---------------|--|

##### **O`qituvchilarga metodik tavsiya**

Bunga o`xshash mavzu yuqorida, ya`ni “Kadrlarni tayorlash, malakasini oshirish yo`nalishlari, tartibi va standartlari” deb nomlangan 27-28-mashg`ulotlarda qisman ko`rib chiqilgan. Mazkur mavzuni o`tishda o`sha o`tilgan mavzularni takrorlash, unda aytilmay qolgan ma`lumotlarni aytish zarur bo`ladi.

Mazkur mashg`ulotni tashkil etishning yana bir ko`rinishi – o`quvchilarni biror akademik litsey yoki kasb-hunar kollejiga sayohatga olib borish, u joydagi xonalarni ko`rish, o`quvchilar va oqituvchilar bilan uchrashish, suhbat o`tkazishdan iborat.

Bu holda ham o`quvchilarning to`plagan materiallarini va taassurotlarini o`rganish maqsadida ularga yuqorida olib borgan ishlar bo`yicha erkin mavzuda referat, insho, hikoya kabi yozma ishlarni bajarishni taklif etish maqsadga muvofiqdir.

## 34 – dars.

“Texnologiya va dizayn” hamda “Servis hizmati” yo`nalishlari uchun .

|               |  |
|---------------|--|
| <b>Mavzu:</b> | <b>maliy mustaqil ishlar: Kasblarni tasniflash bo`yicha topshiriqlar bajarish. Tanlangan kasb-hunar turini egallashda inson salomatligiga qo`yilgan talablar haqida referat tayorlash.</b> |
|---------------|--|

### O`qituvchiga metodik tavsiya.

Bu mavzu ham umumiy ko`rinishga ega bo`lib, undan ko`zlangan maqsad o`quvchilarning kasblarning turlari va tasnifi bo`yicha olgan bilimlarini aniqlash va mustahkamlashdan iboratdir. Shu bilan birga tanlangan kasbni o`sha inson salomatligiga, layoqatiga mos kelish-kelmasligini tahlil qilishni o`rgatishdir. Shu maqsadda o`qituvchi muayyan sharoitdan kelib chiqib, o`quvchilarga yashash joylari atroflarida joylashgan korxonalar, fermer xo`jaliklari va boshqalarda mavjud bo`lgan kasblarni o`rganishni, u joylarda ishlayotgan ishchi - mutaxassislar bilan uchrashib, suhbatlashishni vazifa qilib topshirishi mumkin.

O`quvchilarning to`plagan materiallarini va taassurotlarini o`rganish maqsadida ularga yuqorida olib borgan ishlari bo`yicha erkin mavzuda referat, insho, hikoya kabi yozma ishlarni bajarish taklif etiladi

### Foydalanilgan adabiyot va manbalar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. T; Ma`naviyat, 2008.
2. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1997 y., 3-son, 89-modda va O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami, 2008 y., 14-15-son, 96-modda. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 31-mart, PF-1741-sonli “Xalq baddiy hunarmandchiliklari va amaliy san`atni yanada rivojlantirishni davlat yo`li bilan qo`llab-quvvatlash chora-tadbirlari to`g`risida”gi Farmoni.
3. O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami. 1997 y. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 4 iyundagi 282-sonli “HUNARMAND” xalq hunarmandlari uyushmasini tashkil etish va uning faoliyati

masalalari to`g`risida”gi Qarori. O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami. 2005 y., 12-13-son, 90-modda.

4. Ozbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 28-mart, PF-3588-sonli “Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san`atining yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi Farmoni.

5. O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami, 2008 y., 14-15-son, 96-madda. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 1 apreldagi PF- 3983-sonli “Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san`atini rivojlantirishni rag`batlantirishga oid qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida” gi farmoni.

6. Uzviylashtirilgan Davlat ta`lim standarti va o`quv dasturi. – T. “Yangi yo`l poligraf serviz”, 2010-292 b.

7. Bulatov S.S. O`zbek xalq amaliy bezak san`ati. T: Mehnat, 1991.

8. Kalyuga S. U, Chekel I.D. Ishlab chiqarish asoslari. Kasb tanlash. 1- 2-q.T. O`qituvchi, 19988, 1989.

9. Karimov I. Ergashev S. Tohirov O`.O. V Sinfda mehnat ta`limi darslarida xalq hunarmandchiligi ishlarini o`rgatish. Ushlubiy qo`llanma – T. Fan va texnologiya, 2009. -40 b.

10. Karimov I, Tohirov O`. O. Mustaqillik – eng buyuk ne`mat: Dars ishlanma. T. 2012.

11. Tohirov O`. “Tikuvchilik va dizayn” biznes loyihasi – o`quvchilar tadbirkorlik ko`nikmalarini shakillantirish omili sifatida. //”Ta`lim va texnologiya”: Ilmiy uslubiy maqolalar to`plami. T. 2012. N2 (17) –B. 460-462.

12. Tohirov O`. Mehnat ta`limini mazmunan modernizatsiyalash jarayonida grafikli organayzerlardan foydalanish usullari. //”Ta`lim texnologiyalari”. Ilmiy – uslubiy jurnal. Maxsus son. T. 2012. B. 40-44.

13. Sharipov sh. Shamsiyev Z. Mehnat ta`limi fanidan uzviylashtirilgan o`quv dasturlari asosida nazorat ishlarini o`rkazish bo`yicha metodik tavsiyalar (1-9sinflar). Metodik qo`llanma. –T. RTM, 2010. -80 b.

14. Shodiyev n. Ishchi kasblari. T. O`qituvchi, 1992.

## MUNDARIJA

### XALQ HUNARMANDCHILIGI TEXNOLOGIYASI UMUMIY TUSHUNCHALAR

|  |    |
|--|----|
| 1. Hunarmandlarning bozor munosabatlari asosidagi faoliyatlari, uyushmalari va uning istiqbollari.....   | 3  |
| 2-4. Sovg'a uchun quticha (shkatulka) buyumini yasash .....  | 14 |
| 2-4. To`qishning murakkab usullari. Bolalar panchosini to`qish.....  | 18 |
| 5-8. Duradgorlik asboblaridan to`qmoq yasash.....  | 22 |
| 5-8. Bayram sovg`alari uchun suvenir yasash.....   | 25 |
| 9-10. Mebel jihozlari uchun dasta (uchlag`ich) yasash.....   | 27 |
| 11-12. Xalq hunarmandchiligi bo`yicha ko`rgazma va tanlovlar.....  | 31 |
| 11-12. Bluzkani bichish va tikish.....   | 34 |
| 13-14. Xalq hunarmandchiligining tanlangan yo`nalishi bo`yicha zamonaviy dizayn talablari bilan uyg`unlashtirilgan mahsulot tayorlashdagi ish usullari .....           | 37 |
| 13-14. Xalq hunarmandchiligining tanlangan yo`nalishi bo`yicha zamonaviy dizayn talablari bilan uyg`unlashtirilgan mahsulot tayorlashdagi ish usullarini egallash..... | 41 |

## ISHLAB CHIQRISH ASOSLARI

|   |    |
|---|----|
| 15. O`zbekistonda ishlab chiqarish turlari .....  | 47 |
| 16-17. O`zbekiston xalq xo`jaligida, sanoat va qurilishda moddiy ishlab chiqarish asoslari va uning tarkibi, o`zaro munosabati, bir-biriga bog`liqligi.....   | 51 |
| 18. Texnologiya jarayoni haqida asosiy tushuncha.....   | 51 |
| 19-20. Yangi texnika va ilg`or texnologiya, uning ifodalanishi .....  | 54 |
| 21-22. Mehnat predmetiga mexanik ta`sir etish orqali amalga oshiriladigan texnologik jarayonlar.....  | 59 |
| 23-24. Ishlab chiqarishda amalga oshiriladigan kimyoviy va fizik-texnologik jarayonlar.....   | 64 |
| 25-26. Fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish omillari va istiqboli .....  | 66 |
| 27-28. Kadrlar tayyorlash, malakasini oshirish yo`nalishlari, tartibi.....  | 69 |
| 29. Mulkchilik turlari, marketing va menejment faoliyatining rivojlanishi.....  | 74 |
| 30. Amaliy mustaqil ishlar: Sanoat miqyosida ko`p seriyali ishlab chiqarish uchun tavsiya etish mumkin bo`lgan mahsulot namunasini ( maketi, modeli) tayyorlash, unda qo`llanilgan xom-ashyo, ijodiy g`oya va dizayn yechimlarini asoslash..... | 78 |

## KASB TANLASHGA YO`LLASH

|   |    |
|---|----|
| 31. Kasblar tasnifini, kasblarda mehnat turlarini ta`rifi.....  | 79 |
| 32. Kasb-hunar egallashda inson salomatligiga qo`yilgan talablar.....   | 86 |
| 33. O`zbekistonda uzluksiz ta`lim tizimi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning yo`nalishi, ularning bir-biridan farqi, umumiy tomonlari. O`quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo`naltirish tizimi..... | 92 |
| 34. Amaliy mustaqil ishlar: Kasblarni tasniflash bo`yicha topshiriqlar bajarish. Tanlangan kasb-hunar turini egallashda inson salomatligiga qo`yilgan talablar haqida referat tayyorlash.....               | 93 |
| Foydalanilgan adabiyot va manbalar.....   | 94 |